

664.143

Q.10

N. Xaydar-Zade, Q.S. Raxmonov,  
Sh.M. Qurbonova U.K. Xujakulov.

**QANDOLAT  
MAHSULOTLARI  
ISHLAB CHIQARISH  
TEXNOLOGIYASIDAN  
LABORATORIYA  
MASHG`ULOTLARI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA  
INSTITUTI**

**L.N. Xaydar-Zade, Q.S. Raxmonov,  
Sh.M. Qurbonova U.K. Xujakulov.**

**QANDOLAT MAHSULOTLARI  
ISHLAB CHIQARISH  
TEXNOLOGIYASIDAN  
LABORATORIYA  
MASHG'ULOTLARI**

*(o'quv qo'llanma)*

- 60720100** – *Oziq-ovqat texnologiyasi (non, makaron va qandolat mahsulotlari)*  
**5321000** – *Oziq-ovqat texnologiyasi (non, makaron va qandolat mahsulotlari)*

UO'K 664.143+664.68(076.5)(075.8)

KBK 36.86ya73

Q 20

**Xaydar-Zade L.N., Q.S. Raxmonov., Sh.M. Qurbonova., U.K. Xujakulov.**

Qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasidan laboratoriya mashg'ulotlari [Matn]: o'quv qo'llanma / L.N. Xaydar-Zade, Q.S. Raxmonov, Sh.M. Qurbonova U.K. Xujakulov. – Buxoro: "IPAKYO'LI", 2024. – 236 b.

*Ushbu ko'rsatmalar fanning o'quv rejasiga muvofiq qandolat yarim tayyor mahsulotlar, massa va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va sisatini tahlil qilish bo'yicha laboratoriya ishlarini bajarish usullarini nazarda tutadi. Qandli (karamel, pomada, marmelad, iris, milliy halvo) va unli (pechenye, pryanik, tortlar, pirojnih) qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyalari ko'rib chiqiladi.*

*Laboratoriya ishini bajarish usullarini taqdim etish maqsadi va unumiy qoidalarini ko'rib chiqishni, qandolat mahsulotlarining ishchi retseptlarini hisoblashni, laboratoriya sharoitida qandolat massasi va mahsulotlarni ishlab chiqarish ketma-ketligini, asosiy xom ashyoni, yarim tayyor mahsulotlarni va tayyor mahsulotlarni tahlil qilish usullarini o'z ichiga oladi, mahsulotlar, texnologik hisob-kitoblar uchun formulalar va laboratoriya protokolini to'ldirish misollari. Laboratoriya ishlarini bajarish va himoya qilishga o'zini-o'zi tayyorlash uchun o'z-o'zini tekshirish uchun test savollari, nazariy qism bo'yicha diagnostik testlar va adabiyotlar ro'yxati taqdim etiladi. Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi berilgan.*

*O'quv qo'llanma oziq-ovqat fani oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'millardan.*

#### **Taqrizchilar:**

**I.B. Isabayev** Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, "Oziq-ovqat texnologiyasi" kafedrasi professori, texnika fanlari doktori.

**A.B. Yo'lechiev** Andijon davlar universiteti "Oziq-ovqat va kimyoiy texnologiya" kafedrasi dotsenti, texnika fanlari doktori.

Ushbu o'quv qo'llanma Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Kengashining 30.11.2023 dagi 5-majlisida muhokama qilingan hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 04.03.2024 dagi 55-buyrug'iga asosan nashrga ruxsat berilgan.

**ISBN 978-9910-9395-2-5**

© Qurbonova Sh.M. 2024.

© "IPAKYO'LI" nashriyoti, 2024.

## K I R I S H

Laboratoriya ishlarini bajarish uchun o'quv qo'llanma bakalavriatning 5321000 «Oziq-ovqat texnologiyasi» yo'naliishi bo'yicha ta'lif olayotgan talabalarga «Qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasidan laboratoriya mashg'ulotlari» va 60720100 «Oziq-ovqat texnologiyasi» (non, makaron va kandolat mahsulotlari texnologiyasi) «Qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasidan laboratoriya mashg'ulotlari» fanidan laboratoriya ishlarini bajarish uchun tavsiya etilmoqda.

Laboratoriya ishlarini bajarish uchun o'quv qo'llanmada qandolat mahsulotlarining asosiy turlari - karamel, marmelad, konfet, milliy va unli qandolat mahsulotlarini tayyorlash texnologiyalari va retsepturalari, asosiy organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'rsatkichlari va ularni aniqlash uslublari keltirilgan.

«Qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasidan laboratoriya mashg'ulotlari» fani dasturiga ko'ra talabalar qandolat mahsulotlarining asosiy turlarini tayyorlash va sisatini aniqlash bo'yicha 8 ta laboratpriya ishini bajaradilar. Tajriba ishini bajarish jarayonida talabalar o'zları o'r ganayotgan qandolat mahsulotlarining tayyorlanish texnologiyasini, asosiy organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini, ularni aniqlash uslublarini va bu ko'rsatkichning ahamiyati bilan yaqindan tanishadilar. Bu ularga nazariy darslarda o'zlashtirgan bilimlarini xotirada yaxshi saqlab qolishga yaqindan yordam beradi.

Talabalar laboratoriya ishini bajarishdan oldin bajarilayotgan ish bo'yicha nazariy bilimlarni mustahkamlaydilar, laboratoriyalarni amalga oshirish va olingan natijalarni to'g'ri qayta ishlashga tayyoragarlik ko'radilar. Talaba nafaqat ishni bajarish ketma-ketligini bilishi, yana shuni yodda saqlashi lozimki, mahsulotni tayyorlash texnologiyasidan biroz chetga chiqish ham oxirgi natijalarning keskin o'zgarishiga olib keladi.

90846

Mustaqil tayyorlanish uchun ishlarning mazmuni har bir laboratoriya ishini bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalarining oxirida keltirilgan. Laboratoriya ishini bajarish vaqtida talabalar turli reaktivlar, elektrik va boshqa asboblar bilan ishlaganliklari sababli ishni bajarishdan oldin ular texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishishlari va yo'riqnomadaftariga imzo chekishlari kerak.

Laboratoriya ishini bajarishga nazariy tushunchalarni va ishni bajarish uslublarini o'zlashtirgan va tajriba jurnalini rasmiylashtirgan talabalarga ruxsat etiladi.

Ishni bajarish vaqtida talabalar laboratoriya jurnaliga barcha olingan ma'lumotlarni kiritadilar va kerakli hisoblashlarni amalga oshiradilar.

O'qituvchi rahbarligida va barcha talabalarning ishtirokida ishning natijalari muhokama qilinadi va tajriba jurnaliga umumiyl xulosa yoziladi.

## **LABORATORIYADA ISHLASHNING TEXNIKA XAVFSIZLIGI TALABLARI VA BAXTSIZ HODISALARDA BIRINCHI YORDAM KO'RSATADI**

Talabalar laboratoriya ishlarini bajarishga texnika va yong'inga qarshi xavfsizlik qoidalari o'qib o'zlashtirganlari, hamda maxsus jurnalda ro'yxatga olinganlaridan so'ng qo'yiladilar.

### **Laboratoriya ishlarini bajarishdagi texnika xavfsizligi qoidalari.**

Texnika va yong'inga qarshi xavfsizlik qoidalari talabalarini bajarishga talabalar shaxsan javobgardilar. Laboratoriya ishlagan ular asosiy etiborni quyidagi talab va tavsiyalarga qaratishlari kerak.

1. Laboratoriya ishlarini bajarishni faqat uslubiy qo'llannmalar asosida amalga oshirish kerak. Qo'llannmadan chetlashish faqat o'qituchi ruxsati bilan bo'lishi mumkin.

2. Ishni bajarishga talabalar faqat himoyalovchi ustki kiyimlari –

xalatlari bo'lsagina qo'yiladilar.

3. Kimyoviy reaktivlar bilan ishlaganda ularning qo'lga to'kilishligiga yo'l qo'ymaslik, qo'llarni ko'zlarga va yuzga tekkizmaslik kerak.

4. Kimyoviy moddalarni ta'mini ko'rishlik man etiladi; moddalarni xidini ularning bug'larini yoki gazalarini qo'l bilan elpib turib, o'ziga yo'naltirib, chuqur nafas olmay xidlash mumkin. Ishdan so'ng qo'llarni tozalab yuvish kerak. Laboratoriyada ovqatlanish man etiladi.

5. Laboratoriyada faqat etiketkali kamyoviy idishda turgan, nomi ma'lum reaktivlardan foydalanish kerak.

6. Ishqor va kislotalar, hamda boshqa o'yuvchi va zaharli suyuqliklar xajmini faqat o'lchash stilindri, avtomatik pipetka yoki maxsus rezinali pipetkalarda o'lchashga ruhsat beriladi.

7. Suyuqlik quyilayotgan, qizdirilayotgan yoki qaynayotgan idishga yaqin engashib qarashlik man etiladi, chunki suyuqlikning sachragan tomchilari yuzga yoki ko'zlarga tegishi mumkin. Suyuqlikniz zich yopilgan idishda qaynatish man qilinadi.

8. Yengil uchuvchan moddalarning ajralib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan, kislotali, ammiakli, eritmalarini qaynatish va bug'latish ishlari, dietil efiri va boshqa erituvchilar bilan ishlash, tahlil qilinayotgan moddalarni yondirish ishlarini faqat yoqilgan aktiv ventilyasiya shkafida (tyaga ostida) bajarishga ruhsat beriladi.

9. Yengil yonuvchi moddalar (dietil, asteton, spirt va boshqa erituvchilar) bilan ochiq elektr isitish jixozlari yaqinida ishlash man qilinadi.

10. Tigellarni mufel shkafidan olishda (mufel shkafida temperatura  $600-700^{\circ}\text{S}$ ) maxsus qisqich, tutqichlaridan foydalanish kerak; tigellarni sovutish uchun issiqqa va olovga chidamli maxsus joyga quyish kerak. Eksikatorga tigellar faqat sovutilgandan so'ng joylanadi.

11. Issiq suyuqlik solingan kolba va stakanni olib yurganda

nihoyatda ehtiyot bo`lish kerak.

12. Laboratoriya da asosan tik turib ishlash kerak; faqat yong'in, sachrash va portlash xavfi bo'lmasganda o'tirib ishlash kerak. Laboratoriya da yolg'iz bir kishi ishlashi man etiladi.

13. Elektr jixozlar bilan ishlaganda, shu jixoz bilan ishlashning barcha qoidalariga qat'iy amal qilish kerak. Elektr tarmog'iga ulangan uskunani ko`zg`atish yoki ta'mirlash man etiladi.

14. Yoqilib, ishlab turgan jixozlarni nazoratsiz qolidirish qat'iyan man qilinadi.

15. O'ta xavfli ishlar bajarilganda (yonish, portlash, issiq va agressiv suyuqliklarni sachrash xavfi bo`lsa) organik shishadan yasalgan himoyalovchi to'siq, ko'zoynak yoki himoyalovchi ekran tutish zarur.

16. Gazli gorelkalar bilan ishlaganda, gazning to'liq yonishi va xonaning gazlanmasligini nazorat qilish zarur.

17. Shisha idishlar bilan ishlaganda shishali qismi bo`lgan qurilma va jixozlarni yig'ish va ajratish quyidagi ehtiyotkorlik choralariga amal qilish kerak:

- shisha naychalarni po'kak tiqinlarga yoki rezinali naychalarga o'rnatishdan oldin ularni suvli glisteringa yoki vazelin moyiga botirib olish kerak. Bunda shisha idish sochiq bilan o'rak ushlanishi kerak.

- shisha kolbani tiqin bilan yopayotganda kolba bo`ynining eng yuqori qisimidan, tiqinga yaqinroq ushlash zarur. Bunda kolba sochiq bilan o'ralgan bo`lishi kerak.

18. Erituvchilar, konstrastiyalangan kislotalar va ishqorlar hamda boshqa o'yuvchi suyuqliklar qoldiqlarini kanalizastiyaga faqat maxsus qayta ishlashdan so'ng (neytrallash, xaydash, zararlantirish) to'kish mumkin.

19. Agar yonuvchi suyuqliklar yoki boshqa moddalar alangalansa, elektr isitish jixozlarini o'chirib, Yengil yonuvchi suyuqliklar turgan idishlarni olovdan uzoqroqqa olib, yong'inni o'chirish choralarini ko'rish

kerak.

20. Laboratoriyada tartib va tozalikni saqlash zarur. Ish tugagach elektr jixozlar va elektr tarmog'i o'chirilishi shart. Iflos laboratoriya idishlari yuvilib, ish joyi tozalanib, qo'llar sovunlab yuvilib, suv krani yopilishi kerak.

## BAXTSIZ HODISALARDA BIRINCHI YORDAM KO'RSATISH

Shifokorlar kelgunga qadar baxtsiz hodisadan jabrlangan kishiga xamkasblari birinchi yordam ko'rsatishlari kerak. Ko'p xollarda jabrlanuvchining sog'ligi va ba'zan xayoti unga ko'rsatilgan birinchi yordamning tezligi va to'g'rilingiga bog'liq. Shuning uchun, laboratoriyada ishlayotgan har bir kishi, jabrlangan odamga birinchi yordam ko'rsatishning amaliy ko'nigmalarini bilishi shart va shu bilan birga baxtsiz xodisa yuz bergen daqiqada xavfni yoki jarohat og'irligini kamaytirish choralarini ko'ra bilishligi kerak.

Laboratoriyada ishlaganda ko'proq qo'llarning termik yoki kimyoviy kuyishi, hamda qirqilib jarohatlanishi yuz beradi. Qo'l yoki tana kuyganda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

1. Kislota va ishqorlar teriga to'kilsa, hamda bir oz kuydirsa, shu joyni darhol 10...30 minut davomida vodoprovod suvi ostida yuvish kerak.

2. Termik kuygan joyni suv bilan yuvgandan so'ng, marganstovka eritmasi yoki etil spiriti bilan yuvib, maxsus kuyganda suriladigan maz surtish kerak.

3. Kislota bilan kimyoviy kuygan joyni suv bilan yuvgandan so'ng 5%li natriy bikarbonat eritmasi (choy sodasi) bilan yuvish kerak. Terining ishqor bilan kuygan joyini suv bilan yuvgandan so'ng 5%li sirka kislota eritmasi bilan yuvib yuborish kerak.


4. Kuygan joyga mazni paxtali tampondan foydalanib, jarohatni qirmasdan surtish kerak.

5. Juda katta teri yuzasi kuysa kislota va ishqorlar ko'zlarga sachrasa darhol tibbiy tez yordamga murojaat qilish kerak.


6. Qo'l qirqilsa, jarohatni yod yoki vodorod peroksid eritmalari bilan artish kerak.

## LABORATORIYADA QO'LLANILADIGAN VOSITALAR VA ASBOBLAR


### Laboratoriya jihozlari



1-rasm. Shkalalari pipetka



2-rasm. Paster pipetkasi



3-rasm. Shisha tayoqcha



4 - rasm. Termometr




5-rasm. Shkalasiz pipetka



6-rasm. O'lchamli shisha



7-rasm. Menzurka



8-rasm. Petri idishi



9-rasm. Voronka



10-rasm. Probirkalar uchun taxta tokcha



11-rasm. xalqali shtativ



12-rasm. Probirka tozalagich

13-rasm. Chinni xovoncha



14-rasm. Sentrifuga.



15-rasm. Analitik tarozilar



16-rasm. Elektron tarozi




17-rasm. Texnik tarozi



18-rasm. Fotoelektrokalorimetri



19-rasm. Kuritish shkofi



20-rasm. Mufel pechi

# **1-LABORATORIYA ISHI**

## **PATOKA VA INVERT QIYOMIDA KARAMEL TAYYORLASH**

### **VA SIFATINI ANIQLASH**

#### **Ishdan maqsad**

Laboratoriya sharoitida karamel tayyorlashni o'rganish va sifatini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Talabalar tajriba ishini bajarish natijasida karamelni patokada, invert qiyomida va kislotali usulda tayyorlash retsepturalarini hisoblash, shu retsepturalar asosida karamel tayyorlash va uning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.

#### **Ishning mazmuni**

1. Turli qiyom tayyorlash usullarini qo'llab karamel tayyorlash.
2. Yarim tayyor mahsulotlar va karamelning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash.
3. Turli usullarda tayyorlangan karamel xossalari va sifatini taqposlash va xulosa chiqarish.

*Kerakli xom ashyolar, jihozlar va kimyoviy reaktivlar:*

- xom ashyolar: shakar, patoka, kristallik limon kislota va uning eritmali; essensiya, oziqaviy bo'yoq, o'simlik yog'i, ichimlik suvi;
- jihozlar va idishlar: refraktometr URL, fotokalorimetr, elektr plita; analitik va texnik tarozi; marmar tosh, termometrlar, lineyka, karamelga shakl beruvchi qoliplar, alyumin idishlar va kostryulyalar, byukslar, shisha tayoqchalar, kimyoviy stakanlar, o'lchov kolbalar va silindrlar, konussimon kolbalar, pipetkalar, chinni idishlar, hovonchalar, shpatellar;
- kimyoviy reaktivlar: xlorid kislotaning 10 % li eritmasi, ichimlik

sodaning 10 % li eritmasi, metiloranj 1 % li eritmasi, kaliy ferritsianid – qizil qon tuzining ( $K_3Fe(CN)_6$ ) ishqoriy eritmasi; natriy gidrooksidi, distillangan suv.

## ASOSIY NAZARIY TUSHUNCHALAR

Karamel - qandolat mahsuloti bo‘lib, uning asosini karamel qiyomini namligi 1,5-4 % qolguncha qaynatish natijasida olingan karamel massasi tashkil etadi. Karamel massasi bu qattiq, tiniq, amorf (mo‘rt) holatdagi juda shirin ta‘mli mahsulotdir. Karamel massasi olish texnologik jarayonining mohiyati - qandning kristall holatdan mo‘rt holatga o‘tishidadir. Biroq, bunday massani faqatgina shakar eritmasini qaynata turib olib bo‘lmaydi, chunki shakar eritmasini qaynatish davom ettirilsa, eritma o‘ta to‘yingan holatga o‘tadi va yana qaytadan shakar kristallari hosil bo‘ladi.

Amorf karamel massasi faqatgina shakar eritmasiga kristallanishni oldini oluvchi modda (antikristallizator) qo‘sish natijasida olinadi. Karamel va boshqa qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishda antikristallizator sifatida patoka yoki invert qiyomidan foydalani-ladi.

Patoka tarkibida dekstrinlar, maltoza va glyukoza, invert qiyomi tarkibida esa glyukoza va fruktoza mavjud. Shakar eritmasiga patoka yoki invert qiyomi qo‘sib qaynatilganda saxarozaning eruvchanligi oshmaydi, aksincha pasayadi. Ammo bu paytda saxarozaning dekstrinlar hamda patoka va invert qiyomi qandlari bilan aralashmasining umumiy eruvchanligi oshadi. Ayni paytda saxarozaning to‘yingan eritmasidagi quruq moddalarga nisbatan shakar patoka va shakar invert qiyomi eritmalardagi quruq moddalar miqdori oshadi. Eritmadagi qandlar miqdorining oshishi bilan eritmaning qovushqoqligi yuqori bo‘ladi va olingan karamel massasi shakarlanmaydi. Patoka tarkibidagi dekstrinlar ham eritmaning qovushqoqligini oshiradi. Shuning uchun patoka qo‘sib tayyorlangan karamel massasining qovushqoqligi yuqori bo‘ladi

va uzoq muddat shakarlanmaydi.

Mis va boshqa ko'p valentli metallarning ishqoriy eritmasini qaytarish xususiyatiga ega bo'lgan barcha qandlarning (glyukoza, fruktoza, invert qand, maltoza va laktosa) yig'indisiga *qaytaruvchilik xususiyatiga ega bo'lgan qandlar* yoki redutsiyalovchi qandlar deb nomlanadi. Saxaroza erkin karbonil gruppasiga ega emas, ya'ni redutsiyalovchi qandlar turkumiga kirmaydi.

Karamel qiyomi va massasini tayyorlash jarayonida yuqori harorat ta'sirida saxaroza va redutsiyalovchi qandlar qisman parchalanadi. Parchalanish paytida hosil bo'lgan ayrim mahsulotlar (angidridlar va ularning kondensiyalanishidan hosil bo'lgan moddalar) saxarozaning kristallanishini saqlab turish xususiyatiga ega. Saxaroza va boshqa qandlarning chuqur parchalanishi natijasida hosil bo'lgan mahsulotlar esa (oksimetilfurfurol, bo'yovchi va gumin moddalar) karamel massasi va tayyor karamelning rangi va gigroskopik xossasini (suvni o'ziga tortib olish xossasini) oshiradi.

Karamelning gigroskopik xossasi asosan uning tarkibidagi redutsiyalovchi moddalar bilan bog'liq. Bunday moddalar miqdori ortishi bilan karamelning gigroskopik xossasi oshadi va rangi to'qlashadi. Shuning uchun ham karamel qiyomi va massasida redutsiyalovchi moddalar-ning miqdori qat'iyan chegaralanadi va karamel qiyomida 14-16%, karamel massasida esa 20-23 % dan oshmasligi kerak.

Unchalik katta bo'limgan korxonalarda karamel massasi karamel qiyomiga sut yoki limon kislotalari qo'shib ham tayyorlanadi. Bunda antikristallizator vazifasini bajaruvchi invert qand sekinlik bilan hosil bo'ladi. Karamel massasidagi redutsiyalovchi moddalar miqdori 20 % dan oshmasligi uchun qo'shiladigan kislotaning miqdori tajriba asosida aniqlanadi.

Karamel massasining tayyor bo'lganligi uning qaynash haroratini nazorat qilish bilan aniqlanadi. Bunda shuni qayd etib o'tish kerakki,

qiyomning qaynash harorati nafaqat quruq moddalar miqdoriga, balki qiyomdagи erigan moddalar tarkibiga ham bog'liq.

Tarkibidagi quruq moddalar miqdori bir xil bo'lishidan qat'iy nazar, shakar-invert qiyomining qaynash harorati shakar-patoka qiyomining qaynash haroratiga nisbatan  $5\text{--}10^{\circ}\text{S}$  yuqori bo'ladi.

Karamel tayyorlash texnologik jarayonining to'g'ri olib borilganligini belgilovchi va uning sisfatini aniqlovchi eng asosiy ko'rsatkichlarga karamel qiyomi va massasining namligi va ular tarkibidagi redutsiyalovchi moddalar miqdori, karamel massasining rangi va yoyiluvchanligi kiradi.

## **TADQIQOT QISMI**

### **Ishni bajarish tartibi**

Tajriba ishini bajarish uchun har bir talaba o'qituvchining topshirig'iga binoan quyidagi variantlarning biri bo'yicha karamel tayyorlaydi:

- variant 1 - 100 g shakar va 50 g patokadan tayyorlangan qiyomni  $145^{\circ}\text{C}$  gacha qaynatish natijasida olingan karamel massasidan;
- variant 2 – 100 g shakar 50 g patokadan tayyorlangan qiyomni  $135^{\circ}\text{C}$  gacha qaynatish natijasida olingan karamel massasidan;
- variant 3 – 100 g shakar va invert qiyomining hisoblangan miqdoridan tayyorlangan qiyomni  $155^{\circ}\text{C}$  gacha qaynatish natijasida olingan karamel massasidan;
- variant 4 – 100 g shakar va invert qiyomining hisoblangan miqdoridan harorati  $135^{\circ}\text{C}$  gacha qaynatish natijasida olingan karamel massasidan;
- variant 5 – 140 g shakar va 0,021 g limon kislotadan tayyorlangan qiyomni  $155^{\circ}\text{C}$  gacha qaynatish natijasida olingan karamel massasidan;
- variant 6 – 140 g shakar va 0,021 g limon kislotadan tayyorlangan

qiyomni  $135^{\circ}\text{C}$  gacha qaynatish natijasida olingan karamel massasidan.

«Monpanse» karameli uchun tasdiqlangan retseptura asosida laboratoriya sharoitida tayyorlanadigan karamel uchun retseptura qaytadan hisoblanadi.

1. 2-variantlar bo'yicha karamel retsepturasi 100 g shakar hamda patoka tarkibidagi quruq moddalarning amaldagi miqdorini inobatga olgan holda hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval

Xom ashyolar	Quruq moddalarning miqdo-ri, %	1 t karamel ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		100 g shakardan patokada karamel ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
Shakar	99,85	713,2	712,1	100,0	99,85
Patoka	78,00	356,6	278,1	50,0	39,0
Limon kislota (nordanlash uchun)	98,00	10,0	9,8	Hisoblash yo'li bilan aniqlanadi	
Essensiyasi	-	40	-		
Bo'yoyq	-	0,2	-		
Jami		1084,0	1000		
Mahsulotning chiqishi	98,5	1000,0	985,0		


3, 4-variantlar bo'yicha karamel retsepturasi 100 g shakar va invert qiyomining hisoblangan miqdori va ularning tarkibidagi quruq moddalarning amaldagi miqdorini inobatga olgan holda hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval

Xom ashyolar	Quruq modda-larning miqdori, %	I t karamel ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		100 g shakardan invert kiyomida karamel tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq modda-larda	asl holda	quruq modda-larda
Shakar	99,85	713,2	712,1	100	99,85
Patoka	78,00	356,6	278,1	-	-
Invert qiyomi		-	-		
Limon kislota (nor-donlash uchun)	98,00	10,0	9,8	Hisoblash yo'li bilan aniqlanadi	
Essensiyasi		40			
Bo'yоq		0,2			
Jami		1084,0	1000		
Mahsulotning chiqishi	98,5	1000,0	985,0		

Bu variantlar bo'yicha ishni bajarayotganda dastlab invert qiyomi tayyorlab, undagi suv va redutsiyalovchi moddalar miqdori aniqlanadi, keyin esa 100 g shakardan karamel tayyorlash uchun kerak bo'lgan invert qiyomi miqdori hisoblanadi.

5, 6-variantlar bo'yicha karamel retsepturasi 140 g shakar uchun hisoblanadi (3-jadval) va kislotali usulda tayyorlanadi.



3-jadval

Xom ashyolar	Quruq modda - larning miqdori, %	1 t karamel ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		140 g shakardan kislotali usulda karamel tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalar da	asl holda	quruq moddalar da
Shakar	99,85	713,2	712,1	140	99,85
Patoka	78,00	356,6	278,1	-	-
Limon kislota (qiyom tayyorlash uchun)				0,021	0,02
Limon kislota (nordonlash uchun)	98,00	10,0	9,8	Hisoblash yo'li bilan aniqlanadi	Hisoblash yo'li bilan aniqlanadi
Essensiysi		40			
Bo'yog'		0,2			
Jami		1084,0	1000		
Mahsulotning chiqishi	98,5	1000,0	985,0		

Recepturaga asoslanib har bir variant uchun barcha kerakli xom ashyolar o'lchab olinadi, hamda idish va laboratoriya jihozlari tanlanadi.

Karamel shaxsiy variantda ko'rsatilgan tayyorlash uslubiga aniq roya qilinib tayyorlanadi.

Karamel massasining yoyiluvchanligi aniqlanadi.

Tayyor karamelning organoleptik ko'rsatkichlari, quruq va redutsiyalovchi moddalar miqdori aniqlanadi. Barcha natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

Barcha variantlar asosida tayyorlangan karamellarning organoleptik va fizik-ximiyaviy sifat ko'rsatkichlari umumiy jadvalga kiritiladi va taqqoslanadi.

Ish karamel massasini tayyorlash turli usullarining karamel sifatiga ta'siri to'g'risidagi xulosa bilan yakunlanadi.

### **Turli qiyom tayyorlash usullarini qo'llab karamel tayyorlash**

#### ***Karamelni patokada tayyorlash.***

Shakarni idishga solib ustidan 25-30 ml suv quyiladi va aralashtirib turib qaynatguncha qizdiriladi. Keyin patoka solinadi, aralashtiriladi va qiyom karamel massasi hosil bo'lguncha qaynatiladi. Bunda qaynab turgan massa harorati termometr yordamida nazorat qilinib, shaxsiy vazifada ko'rsatilgan haroratgacha qaynatiladi.

Tayyor bo'lgan karamel massasi, yopishishini oldini olish maqsadida avvaldan yog' surtilgan marmar toshga quyiladi. Karamelni yoyiluvchanligini aniqlash maqsadida karamel massasi hosil qilgan doiraning o'zaro perpendikulyar diametrlari chizg'ich yordamida o'lchanadi.

Karamel massasi sirtiga limon kislota sepiladi va essensiya tomiziladi. Kurakcha yordamida karamel massa yaxshilab aralashtiriladi. Bunda butun karamel massasi bo'ylab qo'shimchalarining va haroratning tekis taqsimlanishi, massasining birjinsligi va undagi havo pufakchalarini chiqarib yuborilishiga erilishadi.

Karamel massasi 75-80 °C haroratgachasovugandan keyin unga shakl beraladi va sovutish davom ettiriladi. Sovugan karamelni tarozida tortib, uning chiqishi, keyin sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi.

#### ***Karamelni invert qiyomida tayyorlash.***


Dastlab invert qiyomi tayyorlanadi.

Karamel tayyorlashdan oldin shakarning 80 %-li eritmasi shakar massasiga nisbatan 0,1 % miqdoridagi limon kislota bilan 90°C haroratda 30 min mobaynida inversiyalanadi.

Tayyor invert qiyomi darhol sovutiladi, uzlusiz aralashtirgan holda 10%-li ichimlik sodasi bilan kislota neytrallanadi. Bu fruktozaning parchalanishi natijasida ishqoriy muhitga sezgir qoramtilar hosil bo'lishini oldini olish uchun kerak.

Olinadigan invert qiyomi kuchsiz kislotali muhitga ega bo'lishi kerak, aks holda qandlar parchalanishi mumkin. Buning uchun, kislotani neytrallash uchun ichimlik sodasi hisoblangan miqdordan 10 % dan kam olinadi.

Natriy bikarbonat tuzi tomonidan limon kislotani neytrallanishi quyidagi reaksiya buyicha sodir bo'ladi:



Reaksiyada qatnashuvchi limon kislota ( $\text{C}_6\text{H}_5\text{O}_7$ ) molekulasining massasi – 192 va natriy bikarbonatniki ( $\text{NaHCO}_3$ ) – 84 ni tashkil qiladi.

1 gramm molekula limon kislotani neytrallash uchun 3 gramm molekula ( $84 \cdot 3 = 252$  g) natriy bikarbonat sarflanadi. Demak 1 qism limon kislotani neytrallash uchun  $252/192=1,3125$  marotaba ko'proq natriy bikarbonat tuzi sarflanadi.

Tayyor invert qiyomini tezda sovutish kerak, aks holda invert qiyomi tarkibida mavjud bo'lgan fruktozaning 100°C dan past haroratda parchalanishi natijasida hosil bo'lgan mahsulotlar qiyomini juda ham qoramtilrangga aylantirish mumkin.

Invert qiyomini tayyorlash uchun 50 g shakar chinni idishga solinib, 12,5 ml suvda eritiladi. Olingan shakar eritmasiga 90° C haroratda kislota qo'yib, 30 min mobaynida saxaroza inversiyalanadi.

Inversiya jarayoni tugagandan keyin invert qiyomi darhol 65°C haroratgacha sovutiladi va uzlusiz aralashtirgan holda 10% li ichimlik sodasi bilan neytrallanadi.

Invert qiyomida refraktometr usuli bilan namlik va fotoelektrokolorimetrik usul bilan redutsiyalovchi moddalar miqdori aniqlanadi.

Karamel retsepturasi 100 g shakar uchun hisoblanadi.

Invert qiyomining miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$X = \frac{100 a S}{(100 - b)(A - a)} \quad (1)$$

bu yerda  $X$  – invert qiyomining miqdori, g;

$S$  - shakar miqdori, g (karamel tayyorlash uchun sarflanadigan shakar miqdori - 100 g).

$A$  – invert qiyomi tarkibidagi invert qandning aniqlash natijasida topiladigan miqdori, %;

$a$  – karamel qiyomida invert qandning yo‘l qo‘yiladigan miqdori, % (14 %);

$b$  – karamel qiyomining namligi, % (14-16%).

Karamel tayyorlash uchun invert qiyomining kerakli miqdorini aniqlangandan so‘ng retseptura hisoblanib chiqiladi. Invert qiyomida karamel tayyorlash jarayoni patokada karamel tayyorlashday olib boriladi. Bunda ham qiyom to karamel massasi hosil bo‘lguncha shaxsiy vazifada berilgan haroratgacha qaynatiladi va karamel tayyor-lashning qolgan jarayonlari yuqoridagi variantdek amalga oshiriladi.

#### *Karamelni kislotali usulda tayyorlash.*

Shakarni idishga solinadi va ustiga shakar massasiga nisbatan 25-30 % miqdordagi suv quyiladi va aralashtirib qaynatiladi. Keyin ustiga limon kislotasining 1 %-li eritmasidan 2 sm<sup>3</sup> (0.02 g) solinadi va qaynatish shaxsiy vazifada berilgan haroratgacha davom ettiriladi. Karamel tayyorlashning qolgan jarayonlari yuqoridagi variantlardek amalga oshiriladi.

## **Yarim tayyor va tayyor karamelning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash**

*Karamel sifatini organoleptik baholash.* Karamel sifatini organoleptik baholashda uning ta'mi va hidi, sirtining holati, shakli va rangiga e'tibor beriladi.

Standart talablariga binoan karamelning ta'mi va hidi aniq ifodalangan, karamelning nomiga xos, begona ta'm va hidlarsiz bo'lishi; rangi - karamelning nomiga xos bo'lishi; sirti – quruq, yoriqsiz, silliq bo'lishi; shakli – to'g'ri, karamelning nomiga xos, aniq bo'lishi kerak.

Karamelning tishga yopishuvchanligiga alohida e'tibor beriladi. Yuqori namlikdagi karamel tishga yopishuvchan bo'ladi.

Laboratoriya sharoitida turli usullarda tayyorlangan karamel namunalarining organoleptik ko'rsatkichlari aniqlanadi, olingan natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi va standart talablari bilan taqqoslanadi.

### **Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi**

Karamelni tayyorlash usuli \_\_\_\_\_

Karamelning ta'mi \_\_\_\_\_

Karamelning hidi \_\_\_\_\_

Rangi \_\_\_\_\_

Sirtining holati \_\_\_\_\_

Shakli \_\_\_\_\_

Xulosa \_\_\_\_\_

### ***Karamel massasi yoyiluvchanligini aniqlash.***

Karamel massasi qovushqoqligini belgilovchi ko'rsatkichlardan biri uning yoyiluvchanligi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich karamel retsepturasi bilan ga bog'liq. Karamel massasining qovushqoqligi karamelning shakarlanishiga va karamel massasiga ishlov berish jarayoniga ta'sir etadi.

Patokada tayyorlangan karamel massasining qovushqoqligi, ayniqsa, past qandlangan patokada dekstrinlar miqdorining ko'pligi tufayli, namligi bir xil bo'lishidan qat'iy nazar, invert qiyomida tayyorlangan karamel massasining qovushqoqligiga nisbatan yuqori bo'ladi. O'z navbatida karamel massasining qovushqoqligi qanchalik yuqori bo'lsa, uning yoyiluvchanligi shunchalik past bo'ladi.

Karamel massasining yoyiluvchanligi yoyiluvchanlik koeffitsenti bilan ifodalanadi va quyidagi formula orqali topiladi:

$$K = \frac{S}{M} \quad (2)$$

bu yerda  $K$  – yoyiluvchanlik koeffitsenti,  $\text{sm}^2/\text{g}$ ;

$S$  – marmar tosh sirtiga quyilgan karamel massasi hosil qilgan doira yuzasi,  $\text{sm}^2$ ;

$M$  – karamel massasining vazni, g.

Karamel massasi yoyiluvchanligini aniqlash uchun karamel massasi hosil qilgan doiraning o'zaro perpendikulyar diametrlari o'chanadi, doira yuzasi va karamel massasining vazni aniqlanadi. Patoka bilan tayyorlangan karamel massasining yoyiluvchanligi 1,35 ga teng, 20 % invert qiyomi qo'shib tayyorlangan karamel massasining yoyiluvchanlik koeffitsenti 1,60 ga teng bo'ladi.

Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi

Karamelni tayyorlash usuli \_\_\_\_\_

Karamel massasi hosil qilgan doira yuzasi ( $S$ ) \_\_\_\_\_  $\text{cm}^2$

Karamel massasining vazni ( $M$ ) \_\_\_\_\_ g

Yoyiluvchanlik koeffitsenti ( $K$ ) \_\_\_\_\_  $\text{cm}^2/\text{g}$

Xulosa \_\_\_\_\_

*Yarim tayyor mahsulotlar va tayyor karamel namligini aniqlash.*

Namlikni refraktometr usuli bilan aniqlashda РЛ, РПЛ-3, УРЛ refraktometrlaridan foydalilanadi. Karamel hamda boshqa quyuq va qovushqoq konsistensiyaga ega bo'lgan mahsulotlarning tarkibidagi

quruq moddalar miqdorini aniqlash uchun taxminan 50 % li eritmadan soydalish juda qulay. Buning uchun qopqog'li tayyoqchaning uzunligi shunaqa bo'lishi kerakki, byuksning qopqog'ini yopilishiga xalaqt bermasin. Byuksning vazni o'lchanib, ichiga yaxshilab maydalangan karameldan 10 g solinadi. O'lhash 0,01 g aniqlik bilan bajarilishi kerak. Byuksning ichiga 10 cm<sup>3</sup> distillangan suv solib, 40-70°C haroratda karamel o'lchanmasi eritiladi. O'lchanma yaxshi erigandan keyin byuksni sovutib, qopqog'i yopiladi va 0,01 g aniqlikda vazni o'lchanadi. Tayyor eritmadan shisha tayoqcha bilan 1-2 tomchi olib, refraktometr eritmasiga tomiziladi va refraktometrga o'rnatilgan termometr orqali harorat belgilab olinadi. Harorat 10-30°C oralig'ida bo'lishi kerak. Agar harorat 20 °C dan farq qilsa, jadvaldan refraktometr ko'rsatkichiga tuzatish topiladi. Tuzatish refraktometr ko'rsatkichiga qo'shilib yoki ayrilib, 20 °C ga mo'ljallab hisoblanadi (4-jadval).

Refraktometr ko'rsatkichiga mahsulot tarkibidagi patoka, invert qiyomi, spirt va boshqalar miqdori ta'sir etadi. Mahsulot tarkibiga qarab, jadvaldan refraktometr ko'rsatkichiga tuzatish topiladi. Agar karamel tarkibida patoka ko'p miqdorda bo'lsa, tuzatish refraktometr ko'rsatkichidan ayrıldi. Mabodo karamel tarkibida ko'p miqdorda invert qiyomi va kam miqdorda patoka bo'lsa, tuzatish refraktometr ko'rsatkichiga qo'shiladi (5, 6-jadvallar).

Karameldagi quruq moddalar miqdori (haroratga, patoka va invert qiyomidagi uglevodlarga beriladigan tuzatishni inobatga olmagan holda) quyidagi formula orqali topiladi:

$$X = \frac{nb}{g} \quad (3)$$

bu yerda n - refraktometr shkalasidagi quruq moddalar ko'rsatkichi %;  
g - karamel o'lchanmasining massasi, g;  
b - o'lchanmadan tayyorlangan eritmaning massasi, g.

**Quruq moddalarni refraktometr usuli bilan aniqlashda harorat uchun tuzatish jadvali**

**4—jadval.**

Harorat, °C	Quruq moddalari miqdori, %					
	30	40	50	60	70	75
<b>Quruq moddalarning refraktometr shkalasi ko'rsatkichidan ayirish kerak.</b>						
15	0,35	0,37	0,38	0,39	0,40	0,41
16	0,28	0,30	0,30	0,31	0,31	0,32
17	0,21	0,22	0,23	0,23	0,24	0,24
18	0,14	0,15	0,15	0,16	0,16	0,16
19	0,07	0,08	0,08	0,08	0,08	0,08
<b>Quruq moddalarning refraktometr shkalasi ko'rsatkichiga qo'shish kerak.</b>						
21	0,08	0,08	0,08	0,08	0,08	0,08
22	0,15	0,15	0,16	0,16	0,16	0,16
23	0,23	0,23	0,24	0,24	0,24	0,24
24	0,31	0,31	0,31	0,32	0,32	0,32
25	0,39	0,40	0,40	0,40	0,40	0,40
26	0,47	0,48	0,48	0,48	0,48	0,48
27	0,55	0,56	0,56	0,56	0,56	0,56
28	0,63	0,64	0,64	0,64	0,64	0,64
29	0,72	0,73	0,73	0,73	0,73	0,73
30	0,80	0,81	0,81	0,81	0,81	0,81

Invert qiyomidan tayyorlangan redutsiyalovchi moddalari o'rtacha 20-22% miqdorda bo'lgan karamel massasi uchun refraktometning quruq moddalari ko'rsatkichiga tuzatishlar

5-jadval

Patokaning	Invert qiyomi-ning	Tuzatish %	Patokaning	Invert qiyomi-ning	Tuzatish %
100 kg shakar uchun olingan miqdori, kg			100 kg shakar uchun olingan miqdori, kg		
45	10,2	-0,54	20	17,7	0,00
40	11,7	-0,44	15	19,3	+0,12
35	13,3	-0,33	10	20,8	+0,24
30	14,8	-0,23	5	22,2	+0,3
25	16,3	-0,13	0	23,7	+0,52

Karamel massasi, shakar-patoka qiyomi, pomada va boshqa patoka qo'shilgan mahsulotlar uchun refraktometr ko'rsatishiga tuzatishlar

6-jadval

100 qism shakar uchun ishlataladigan patoka miqdori	Tuzatish, %	100 qism shakar uchun ishlataladigan patoka miqdori	Tuzatish, %
50	- 0,85	25	- 0,46
45	- 0,78	20	- 0,37
40	- 0,71	15	- 0,27
35	- 0,62	10	- 0,16
30	- 0,55	5	- 0,07

Hisoblab chiqilgan quruq moddalar miqdoriga harorat, patoka va invert qiyomi uchun tuzatishlar yoki qo'shiladi yoki ayrıldı.

*Misol:* 100 qism shakar va 50 qism patokadan tayyorlangan karamel massasining 50% li eritmasida quruq moddalarining miqdori refraktometr ko'rsatkichi bo'yicha - 49,3 % g, invert qiyomidan tayyorlangan karamel massasining aynan shunday eritmasidagi quruq moddalar-ning miqdori refraktometr ko'rsatkichi bo'yicha - 49,5%. Refraktometr prizmasining harorati 25°S. Birinchi holatda karamel massasi o'lchan-masining massasi 9,83; eritma massasi 19,32 g; ikkinchi holatda esa ka-ramel o'lchanmasining massasi massasi 9,61; eritmaning

massasi 19,04 g ga teng.

Patoka va invert qiyomidan tayyorlangan karamel namligini aniqlash kerak.

*Patokada tayyorlangan karamel massasi namligini aniqlaymiz.*

$$QM_0 = 49,3 \cdot 19,32 / 9,83 = 96,9\% .$$

Harorat 25 °C va quruq moddalar miqdori 70% dan ortiq bo'lsa, tuzatish jadval bo'yicha +0,4% ga teng, patokadagi quruq moddalar miqdori uchun esa tuzatish 0,85 % ga teng.

Tuzatishlarni inobatga olganda, karamel massasining quruq moddalar miqdori

$$QM = 96,9 + 0,4 - 0,85 = 96,45\% ni, namlik esa$$

$$V_{k.m} = 100 - QM = 100 - 96,45 = 3,55 \% ni tashkil qiladi.$$

*Invert qiyomidan tayyorlangan karamel massasi namligini aniqlaymiz*

$$QM_0 = 49,5 \cdot 19,04 / 9,51 = 98,08\% .$$

Harorat 25 °C va quruq moddalar miqdori 70% dan ortiq bo'lsa, jadval bo'yicha tuzatish +0,4 % ga, invert qiyomidagi quruq moddalar miqdori uchun esa tuzatish -0,52 % ga teng. Tuzatishlarni inobatga olganda, karamel massasidagi quruq moddalar miqdori

$$QM = 98,08 + 0,4 - 0,52 = 99\% ni, namlik esa$$

$$V_{k.m} = 100 - QM = 100 - 99 = 1\% ni tashkil qiladi.$$

#### Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi

Karamelni tayyorlash usuli	_____	
Karamel o'lchanmasi massasi	_____	g
Eritmaning massasi	_____	g
Refraktometrning ko'rsatishi	_____	%
Dastlabki quruq moddalarning miqdori	_____	%
Refraktometr prizmasining harorati	_____	°C
Harorat uchun tuzatish	_____	%

Quruq moddalar miqdori uchun tuzatish	_____ %
Tuzatishlarni hisobga olgan holda quruq moddalar miqdori	_____ %
Mahsulotning namligi	_____ %

*Redutsiyalovchi moddalar miqdorini fotokolorimetrik usulida  
aniqlash.*

Bu usul qizil qon tuzi ishqoriy eritmasining sisati aniqlanayotgan mahsulot tarkibidagi redutsiyalovchi qandlar bilan reaksiyaga kirishganidan keyin qolgan ortiqcha qismini fotokolorimetrlashga asoslangan.

Bu usulda boradigan reaksiyaning asosiy mohiyati – redutsiyalovchi moddalarning ishqoriy muhitda qizil qon (kaliy ferritsianid) tuzi eritmasi bilan oksidlanishidadir. Bunda qizil qon tuzi sariq qon (kaliy ferrotsianid) tuzigacha qaytariladi, bu esa o‘z navbatida rang-ning pasayishiga olib keladi, chunki qizil qon tuzi sariq qon tuziga nisbatan ancha to‘qroq rangga ega. Eritma rangining pasayishi shu eritmaning optik zichligini tushiradi. Eritmaning optik zichligi reaksiyaga kirishga redutsiyalovchi moddalarning miqdoriga bog‘liq. Bu bog‘lijni amalda ko‘rsatish maqsadida tarkibiga turli xil aniq miqdorda redutsiyalovchi moddalar kiritilgan eritmalarining optik zichligi aniqlanadi. Olingan natijalar asosida eritmaning optik zichligi bilan redutsiyalovchi moddalar miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi darajalash grafigi tuziladi.

Redutsiyalovchi moddalar miqdorini aniqlash quyidagi bosqichlaridan iborat: kerakli reaktivlarni tayyorlash; asbobni kalibrlash grafi-gini tuzish; mahsulotdagи redutsiyalovchi moddalar miqdorini aniqlash.

Ishqoriv qizil gon (kaliy ferritsianid) tuzi eritmasi quyida-gicha tayyorlanadi. 8 g kaliy ferritsianid ( $K_3Fe(CN)_6$ ) tortib olinadi va biroz distillangan suvda eritiladi. 28 g KON yoki 30 g NaOH kam miqdordagi suvda eritiladi. Ikki eritma  $1000 \text{ sm}^3$  hajmli o‘lchov kolbaga solinadi

distillangan suv bilan chizig'igacha yetkaziladi va yaxshilab aralashtiriladi. Tayyorlangan eritmani to'q rangli shisha idishida yoki qorong'ida kamida 1 kecha-kunduz saqlangandan keyin ishlatish mumkin.

Invert qandi standart eritmasi quvidagicha tayyorlanadi. Analitik tarozida 0,001 g aniqlikda 0,95 g kimyoviy toza saxaroza yoki mayin maydalangan qand-rafinad tortib olinadi va eksikatorda quruq kalsiy xlorid ustida quritish uchun 3 kecha-kunduz saqlanadi. Keyin 250 sm<sup>3</sup> gacha distillangan suvda eritib 500 sm<sup>3</sup> hajmli o'lchov kolbasiga quyiladi. Shu kolbani o'ziga 20 cm<sup>3</sup> eritilmagan (zichligi 1,19) xlorid kislota o'lchab solinadi. Kolba ichiga termometr kiritiladi va kolba taxminin 80 °C gacha qizdirilgan suv hammomida o'rnatiladi. 2-3 minut davomida eritma harorati 67-70 °C gacha yetkaziladi va shu haroratda 5 min saqlanadi.

Kolbadagi eritma tezda xona haroratigacha sovutiladi, 2-3 tomchi metiloranj tomiziladi va va 25 % li ishqor eritmasi bilan pushti-sariq rang paydo bo'lguncha neytrallanadi. Shundan keyin eritmaning hajmi distillangan suv bilan kolbaning chizig'igacha yetkaziladi.

Tayyorlangan standart eritmaning 1 sm<sup>3</sup> hajmida 0,002 g (2 mg) invert qandi (redutsiyalovchi qand mavjud).

Kalibrlash grafigini tuzish. Oltita 250 sm<sup>3</sup> hajmli konussimon kolbalarga pipetka bilan 25 sm<sup>3</sup> ishqoriy ferri-sianid eritmasi 7,0; 7,5; 8,0; 8,5; 9,0; 9,5 sm<sup>3</sup> dan invert qandi standart eritmasi quyiladi. Byuretkadan kolbalarga mos tarzda 3,0; 2,5; 2,0; 1,5; 1,0; 0,5 sm<sup>3</sup> distillangan suv quyilgandan keyin har bir kolbada suyuqlikning hajmi 35 sm<sup>3</sup> ni tashkil qiladi.

Har bir kolbadagi suyuqlik qayna-guncha qizdiriladi va 1 minut (qum soat bo'yicha) qaynatiladi. Keyin tezgina xona haroratigacha sovutiladi va kyuvetaga quyib, KFK-2 fotoelektrokolorimetrida yorug'lik o'tkazish maksimumi 440 nm bo'lgan № 4 ko'k filtr bilan optik

zichligi o‘lchanadi. Kyuvetani tanlashda shunga e’tibor berish lozimki,  $8.5 \text{ sm}^3$  standart eritma bilan qaynatilgan suyuqlikning optik zichligi 0,3-0,6 oralig‘ida bo‘lishi maqsadga muvosiq hisoblanadi. Har bir eritmada optik zichligini aniqlash 3 marotabadan amalga oshiriladi va natija sifatida ularning o‘rtacha arifmetik qiymati qabul qilinadi. Olingan natijalar bo‘yicha kalibrash grafigi tuziladi (1-rasm).

### **Karameldagi redutsivalovchi moddalar miqdorini aniqlash.**

O‘lchan-maning massasi quyidagi formula orqali hisoblanadi

$$M = \frac{a \cdot O}{\Pi} \quad (4)$$

bu yerda M – tekshirish uchun olingan o‘lchanmaning massasi, g;

a – tekshirish uchun olingan o‘lchanmaning suvdagi eritmasi tarkibidagi qandlarning optimal konsentratsiyasi (fotoelektrokolori-metr usuli uchun a = 0,2 g); ·

O – eritma tayyorlangan kolbaning hajmi,  $\text{sm}^3$ ;

$\Pi$  – analiz uchun olingan mahsulot tarkibidagi redutsiyalovchi qandlar yoki umumiyligining qandlarning taxminiy miqdori.

Formula asosida hisoblangan o‘lchanma  $\pm 0,001$  g aniqlikda o‘lchanib stakanchaga solinadi. Agar o‘lchanmaning massasi hisoblash natijasida 5 g dan ortiq chiqsa, u paytda o‘lchov  $\pm 0,01$  g aniqlik bilan bajariladi. Olingan o‘lchanmaning iliq suvdagi eritmasi tayyorlanadi.

Agar o‘lchanma suvda qoldiqsiz erisa, tayyorlangan eritma stakanchada tezda sovutilib, o‘lchov kolbasiga solinadi. Bunda kolbaning hajmi  $100-500 \text{ sm}^3$  ga teng bo‘lishi kerak. Kolbadagi eritma hajmi distillangan suv bilan kolbaning chizig‘igacha yetkaziladi va yaxshi aralashtiriladi. Olingan eritma tiniq bo‘lishi kerak. Konussimon kolbagaga qizil qon tuzining ishqoriy eritmasidan  $25,0 \text{ sm}^3$ , mahsulot eritmasidan  $8,0 \text{ sm}^3$  aralashma qaynaguncha qizdirib, 1 min qaynatiladi va tezda sovutiladi.

Sovugan eritmadan asbobning kyuvetasiga qo'yib, КФК-2 fotoelektrokolorimetrida yorug'lik to'lqin uzunligi 440 nm bo'lgan №4 yorug'lik filtri bilan optik zichligi o'lchanadi.

Redutsiyalovchi qandlarning miqdori quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$X = \frac{\alpha \cdot V_1 \cdot 100 \cdot K}{g \cdot V_2}, \quad (5)$$

bu yerda: X - redutsiyalovchi moddalarning miqdori, %;


a - darajalash grafigi orqali topilgan invert qandning miqdori, mg;

$V_1$  - aniqlanayotgan mahsulotdan suvli eritma tayyorlashda ishlatalgan kolbaning hajmi,  $\text{sm}^3$ ;

$V_2$  - aniqlash uchun olingan mahsulot suvli eritmasining hajmi,  $\text{sm}^3$ ;

g - mahsulot o'lchanmasining massasi, mg;

K - saxarozaning qisman oksidlanishini inobatga oluvchi turatish koeffitsenti (karamel va karamel massasi uchun  $K = 0,95$ ).



darajalash grafigi orqali topilgan invert qandning

miqdori (a)

mg

Redutsiyalovchi moddalarning miqdori (X)

%

Barcha variantlar asosida tayyorlangan karamelning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'rsatkichlari umumiy jadvalga kiritiladi va taqqoslanib xulosa chiqariladi.

### Karamel ishlab chiqarish usullari va rejimlarining karamel xossalariiga ta'siri

7-jadval

Karamel massasini tayyorlash usuli	Qaynatish ning oxirgi arorati, °C	Karamel sifat ko'rsatkichlarining tavsiyi				
		Karamel massasi-ning yoyiluv chanligi	Namligi, %	Redutsiyalovchi moddalarni miqdori, %	Rangi	Yopish-qoqligi
Patokada						
Invert qiyomida						
Kislotali usulda						

Xulosa

### Talabanining mustaqil ishi

I-laboratoriya ishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida talaba ma'ruzalar matnidan «Karamel qiyomi va karamel massasin tayyorlash» mavzularini va uslubiy qo'rsatmalardagi ushbu tajriba ishiga tegishli «Asosiy nazariy tushunchalar» bo'limini o'zlashtirishi, laboratoriya qaydnomasini rasmiylashtirishi; quyida keltirilgan savollardan foydalananib nazariy qismni o'zlashtirish darajasini tekshirishi kerak.

## **Mustaqil tayyorlash uchun savollar**

1. «Karamel» so‘zi ta’rifini keltiring.
2. Karamel mahsulotlari tasnifini keltiring.
3. Karamel massasini olish nimaga asoslangan?
3. Karamel qiyomini tayyorlashning qanaqa usullari mavjud?
4. Karamel massasini olish mohiyati nimadan iborat va u qaysi jihozzlarda tayyorlanadi?
5. Karamel massasining gigroskopligi va rangi qaysi omillar bilan bog‘liq?
6. Karamel qiyomi, karamel massasi va tayyor keramel qaysi ko‘rsatkichlar bo‘yicha organoleptik baholanadi?
7. Karamel qiyomi, karamel massasi va tayyor karamel qaysi fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholanadi?
8. Patoka va invert qiyomida tayyorlangan karamelning kimyoviy tarkibini keltiring.
9. Patokada karamel tayyorlash uslubini qisqacha qilib aytib bering.
10. Invert qiyomida karamel tayyorlash uslubini qisqacha qilib aytib bering.
11. Kislotali usulda karamel tayyorlash uslubini qisqacha qilib aytib bering.
12. Karamel qiyomidagi, karamel massasidagi va karameldagi quruq moddalar miqdori qanday aniqlanadi?
13. Redutsiyalovchi moddalarning fotokalorimetrik usulda aniqlash nimaga

asoslangan?

14. Redutsiyalovchi moddalar miqdorini fotokalorimetrik usulda aniqlashning qisqacha mazmunini keltiring.

### Laboratoriya ishga oid diagnostik testlar

1. Quyida qayd etilgan qiyomlardan qaysi birini karamel qiyomi deb atash mumkin emas?

- A) shakar-patokali;
- B) shakar-invert;
- C) shakar-sutli;
- D) shakar-patoka-invert;

2. Quyida qayd etilgan eritmalaridan qaysi birini qiyom deb atash mumkin?

- A) shakar konsentratsiyasi 20 % dan ortiq;
- B) shakar konsentratsiyasi 30 % dan ortiq;
- C) shakar konsentratsiyasi 30 % dan kam;
- D) shakar konsentratsiyasi 40 % dan ortiq;

3. Qaysi javobda invert qiyomidagi qandlar to‘g‘ri aytib o‘tilgan?

- A) saxaroza, glyukoza, fruktoza;
- B) glyukoza, maltoza, saxaroza;
- C) saxaroza, fruktoza, maltoza;
- D) saxaroza, fruktoza, laktosa;

4. Qaysi qandning shirinligi saxaroza shirinligiga nisbatan 120 % ni tashkil etadi?

- A) laktosa;
- B) maltoza;
- C) glyukoza;
- D) invert qand.

**5. Qaysi qandning shirinligi saxaroza shirinligiga nisbatan 15 % ni tashkil etadi?**

- A) laktoza;
- B) maltoza;
- C) glyukoza;
- D) fruktoza;

**6. Qaysi qandning shirinligi saxaroza shirinligiga nisbatan 35% ni tashkil qiladi?**

- A) laktoza;
- B) maltoza;
- C) glyukoza;
- D) fruktoza;

**7. Qaysi javobda karamel ishlab chiqarishda qo'llaniladigan antikristalizator nomi to'g'ri keltirilgan?**

- A) kraxmal va patoka;
- B) patoka va invert qiyomi;
- C) shakar va patoka;
- D) kraxmal va shakar.

**8. Quyida qayd etilgan qaysi turdag'i patoka karamel ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan eng yuqori qovushqoqlikka ega?**

- A) kam qandlantirilgan;
- B) karamel uchun oliy navli;
- C) yuqori qandlantirilgan;
- D) karamel uchun l-navli.

**9. Quyida keltirilgan patoka turlaridan qaysi birini karamel tayyorlashda emas, balki konserva ishlab chiqarishga qo'llash tavsiya etiladi?**

- A) kam qandlantirilgan;
- B) karamel uchun oliy navli;
- C) yuqori qandlantirilgan;

D) karamel uchun 1-navli.

**10. Karamelning odatdagি retsepturasida shakar va patokaning nishbati qanday bo‘lishi kerak?**

A) 100:4;

B) 100:25;

C) 100:50;

D) 100:100.

## 2-LABORATORIYA ISHI

### JELELI MARMELAD TAYYORLASH VA SIFATINI ANIQLASH

#### **Ishdan maqsad**

Laboratoriya sharoitida jeleli marmelad tayyorlashni o'rganish va sifatini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Talabalar tajriba ishini bajarish natijasida jeleli marmeladni agar, agaroid, pektin va jelatindan foydalanib tayyorlash retsepturalarini hisoblash, shu retsepturalar asosida jeleli marmelad tayyorlash va mahsulotning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.

#### **Ishning mazmuni**

1. Turli jelelovchi moddalardan foydalanib marmelad tayyorlash.
2. Yarim tayyor mahsulotlar va marmeladning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash.
3. Turli jelelovchi moddalardan foydalanib tayyorlangan marmeladning xossalari va sifatini taqqoslash va xulosa chiqarish.

*Kerakli xom ashyolar, jihozlar va kimyoviy reaktivlar:*

- xom ashyolar: shakar, patoka, agar, agaroid, pektin, jelatin, limon kislota, essensiya, oziqaviy bo'yoq, gazeta qog'oz, ichimlik suvi;
- jihozlar va idishlar: refraktometr URL, namlikni aniqlash VCh asbobi, elektr plita, texnik va torzion tarozi, marmeladga shakl beruvchli qoliplar, termometrlar, lineyka, alyumin idishlar, byukslar, shisha tayoqchalar, kimyoviy stakanlar, o'lchov kolbalar va silindrilar, konussimon kolbalar, uchi egilgan byuretka, pipetkalar, chinni idishlar, hovonchalar, shpatellar;
- kimyoviy reaktivlar: eritilmagan xlorid kislota (zichligi 1,19), quruq natriy gidrooksid va uning 25-30 % li va  $0,1 \text{ mol/dm}^3$  eritmalar, kaliy-natriy tartrat –  $\text{KNaC}_4\text{O}_8 \cdot 4 \text{ H}_2\text{O}$  va qayta kristallangan mis sulfat eritmalar, 1 % li fenolftalein va ko'k metilen eritmalar,

kimyoviy toza saxaroza, distillangan suv.

## ASOSIY NAZARIY TUSHUNCHALAR

Marmelad deb, meva-rezavor pyuresidan yoki jele hosil qiluvchi moddalarning suvdagi eritmasidan, shakar va boshka komponentlardan tayyorlangan, jelesimon strukturali qandolat mahsulotiga aytildi.

Marmelad tayyorlash texnologiyasi ham jele hosil qiluvchi asosga qarab ikki turga bo'linadi: meva-rezavorli va jeleli.

Meva-rezavorli marmeladda meva-rezavor (olma, olxo'ri, o'rlik va boshqalar) pyuresida mavjud bo'lgan pektin - jele hosil qiluvchi bo'lib hisoblanadi. Jeleli marmelad ishlab chiqarishda esa jele hosil qiluv-chi sisatida agar, agaroid, pektin va o'simlik xom ashyolaridan ajratib olingan boshqa jele hosil qiluvchilar qo'llaniladi.

Jeleli marmelad ta'm beruvchi va xushbo'y moddalar qo'shib qaynatib quyultirilgan shakar-patoka-agar qiyomidan tayyorlanadi. Jele hosil qiluvchi modda sisatida agardan tashqari agaroid yoki pektin ham qo'llanilishi mumkin. Keyingi yillarda jele hosil qiluvchi sisatida jelatindan ham foydalanimoqda. Retseptura aralashmasiga oziqaviy kislotaclar, meva-rezavor pripaslari, sintetik xushbo'y moddalar va bo'yoqlar kiritiladi. Jeleli massa ko'proq patoka qo'shib (shakar massasiga nisbatan 50 % gacha) tayyorlanadi, aks holda jeleli marmelad shakarlanishi sababli xiraroq bo'ladi.

Jeleli marmelad uchun massa quyidagicha tayyorlanadi. Quruq agar yoki agaroid bo'ktirish va yuvish uchun vannaga ivitiladi. Doka qop-chalarga joylangan yorma ko'rinishdagi agar vannaga botiriladi. Agar-ning sisatiga qarab uni ivitish 3 soat va ortiqcha vaqt davom etadi. Agaroid 1 soatga yaqin vaqtida ivitiladi va yuviladi. Ivitish jarayonida bo'kish sodir bo'ladi, hamda bo'yovchi va hid beruvchi moddalar ajratiladi.

Ivitilgan agar yoki agaroid qaynatish qozoniga solinadi va suvda

eritiladi; keyin bunga shakar va patoka qo'shiladi (patoka qaynash jarayonining oxirida yoki qaynatilgandan keyin solinadi). Agar eriguncha shakarni solish mumkin emas, chunki shakarli eritmalar agarning eruvchanligi birdaniga pasayadi. Agar-shakar eritmasi filtrlanadi va qaynatish apparatlarida yo quruq moddalar miqdori 73-74 % bo'lguncha qaynatiladi.

Qaynatilgan qiyom haroratlantiruvchi mashinaga o'tkaziladi, uzlusiz aralashtirish tufayli 50-56 °C haroratgacha sovutiladi. Sovutish oxirida retsepturaga ko'ra eritilgan bo'yoqlar, limon kislotasi, essensiya, pyure va pripaslar solinadi. Barcha qo'shimchalar yaxshi aralashtirilgandan keyin massa quyuvchi mashinaning voronkasiga uzatiladi.

Jelevi marmelad agaroidda tayyorlanganda texnologik jarayonlar agaroid xossalari bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga ega. Agaroid qiyomini tayyorlash uchun dastlab shakar eritiladi, keyin eritmaga ivitilgan agaroid qo'shiladi. Agaroidning gidrolizini oldini olish va uning jele hosil qilish qobiliyatini saqlab qolish uchun qiyom massasiga nisbatan 0,5 % miqdorda modifikator tuzlar – dinatriyfosfat yoki natriy laktati solinadi. Qaynatilgan qiyomdagagi quruq moddalar miqdori (agarli qiyomdagidek) 73-74 % miqdorda bo'lishi kerak: agaroid-shakar-patoka qiyomining jele hosil qilish harorati- 60 °C ga yaqindir.

### **Ishni bajarish tartibi**

Har bir talaba o'qituvchining topshirig'iga binoan qo'yidagi variantlardan biri bo'yicha ishni bajaradi:

- variant 1 – agardan foydalanib jelevi marmelad tayyorlash;
- variant 2-agaroiddan foydalanib jelevi marmelad tayyorlash;
- variant 3-pektindan foydalanib jelevi marmelad tayyorlash;
- variant 4-jelatindan foydalanib jelevi marmelad tayyorlash.

Jelevi marmeladning tasdiqlangan retsepturasi asosida laboratoriya

sharoitida tayyorlanadigan marmelad uchun reseptura qaytadan hisoblanadi.

1-variant bo'yicha agaridan marmelad tayyorlash resepturasi jeleli massa uchun sarflanadigan 100 g shakarga nisbatan hisoblanadi (8-jadval).

8-jadval

Xom ashyolar	Quruq moddalarning miqdori, %	1 t marmelad ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		100 g shakardan marmelad tayyorlash uchun uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
Shakar jeleli massa uchun	99,85	525,6	524,8	100	99,85
sirtiga sepish uchun	99,85	86,6	86,5		
Patoka	78,00	262,7	204,9		
Agar	85,00	10,5	8,9		
Limon kislota	91,2	11,8	11,6		
Essensiyasi	-	1,6	-		
Bo'yooq	-	0,5	-		
Jami		899,3	836,7		
Mahsulotning chiqishi	98,5	1000,0	820,0		

Hisoblash yo'li bilan aniqlanadi

2-variant bo'yicha agaroiddan marmelad tayyorlash resepturasi jeleli massa uchun sarflanadigan 100 g shakarga nisbatan hisoblanadi (9-jadval).

9-jadval

Xom ashyolar	Quruq moddalarning miqdori, %	1 t marmelad ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		100 g shakardan marmelad tayyorlash uchun uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
Shakar jeleli massa uchun	99,85	510,7	509,9	100	99,85
sirtiga sepish uchun	99,85	86,6	86,5		
Patoka	78,00	255,4	199,2		
Agaroid	85,00	27,0	23,0		
Limon kislota	91,2	12,8	11,7		
Natriy laktat	40,0	15,0	6,0		
Essensiyasi	-	0,4	-		
Bo'yоq	-	0,5	-		
Jami		908,4	836,3		
Mahsulotning chiqishi	98,5	1000,0	820,0		

Hisoblash yo'li bilan aniqlanadi

3-variant bo'yicha pektindan marmelad tayyorlash retsepturasi jeleli massa uchun sarflanadigan 100 g shakarga nisbatan hisoblanadi (10-jadval).

10-jadval

Xom ashyolar	Quruqmodda-larning miqdori, %	1 t marmelad ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		100 g shakardan marmelad tayyorlash uchun uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	Quruq moddalarda
Shakar jeleli massa uchun	99,85	594,5	593,6	100	99,85
sirtiga sepish uchun	99,85	86,6	86,5		
Patoka	78,00	169,7	132,4		
Pektin (situsli)	92,0	13,0	12,0		
Limon kislota	91,2	8,6	7,8		
Natriy laktat	40,0	10,0	4,0		
Essensiyasi	-	0,4	-		
Bo'yоq	-	0,6	-		
Jami		883,4	836,3		
Mahsulotning chiqishi	98,5	1000,0	820,0		

Hisoblash yo'li bilan aniqlanadi

4-variant bo'yicha jelatinidan marmelad tayyorlash retsepturası jeleli massa uchun sarflanadiyan 100 g shakarga nisbatan hisoblanadi (11-jadval).

11-jadval

Xom ashyolar	Qurug' moddalarning miqdori, %	1 t marmelad ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg	100 g shakardan marmelad tayyorlash uchun uchun xom ashyolar sarfi, g		
		asl holda	qurug' moddalarda	asl holda	qurug' moddalarda
Shakar					
jeleli massa uchun	99,85	594,5	549,7	100	99,85
sirtiga sepish uchun	99,85	86,6	86,5		
Patoka	78,00	169,7	132,4		
Jelatin	86,00	65,0	55,9		
Limon kislota	91,2	8,6	7,8		
Natriy laktat	40,0	10,0	4,0		
Essensiyasi	-	0,4	-		
Bo'yoyq	-	0,6	-		
Jami		883,4	836,3		
Mahsulotning chiqishi	98,5	1000,0	820,0		

Retsepturaga asoslanib har bir variant uchun barcha kerakli xom ashyolar o‘lchab olinadi, hamda idish va laboratoriya jihozlari tanlanadi.

Marmelad variantda ko‘rsatilgan tayyorlash uslubiga aniq rioya qilinib tayyorlanadi.

Tayyor marmeladning organoleptik ko‘rsatkichlari, quruq va redutsiyalovchi moddalar miqdori aniqlanadi. Barcha natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

Barcha variantlar asosida tayyorlangan marmeladlarning organoleptik va fizik-ximiyaviy sifat ko‘rsatkichlari umumiy jadvalga kiritiladi va taqqoslanadi.

Ish jeleli marmeladning turli jele hosil qiluvchilarni qo‘llab tayyorlashning mahsulot sifatiga to‘g‘risidagi xulosa bilan yakunlanadi.

### **Turli jelelovchilardan soydalanib jeleli marmelad tayyorlash**

*Agardan jeleli marmelad tayyorlash.* Doka xaltachalarda solingan plastinkasimon agar 2-3 soat, kukunsimon agar 1 soat davomida oqadigansov uq vodoprovod suvida yuviladi. Bunda agar bo‘kadi va rangli, yoqimsiz hidli moddalardan tozalanadi. Bo‘kkagan agar aluminiy idishga o‘tkaziladi va issiq suvda aralashdirib turgan holda eritiladi. Agar to‘liq eriganidan keyin shakar solinadi va eritiladi, qiyom qaynagandan keyin patoka solinadi. Qaynatish 107-108 °C haroratda amalga oshirilib, qaynatish oxirida agar-shakar-patoka qiyomidagi quruq moddalarning miqdori 72-73 % ni tashkil qilishi kerak. Tayyor marmelad massasi tezda 60-65°C haroratgacha Sovutiladi, kislota, essensiya va bo‘yuq qo‘shiladi, aralashdiriladi va sirlangan sopol qoliplarga quyiladi. Jelelash 12-15 °C haroratda 1,5 soat davomida amalga oshiriladi. Bundan keyin mahsulot qoliplardan chiqariladi va yuzasiga shakar sepiladi.

Tayyor marmeladning organoleptik ko‘rsatkichlari baholanadi va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

*Agaroidda jeleli marmelad tayyorlash.* Dastlab agaroid ivitiladi.

Buning uchun agaroid o'lchanmasi doka xaltachaga solinadi va sovuq suvli idishga 1-1,5 soat solib qo'yiladi. Bo'ktirishdan keyin dokadagi agaroid sovuq suv bilan yuviladi. Odatta agaroid bo'kkanida hajmi 8-9 marta ortib. buni agaroid-shakar-patoka qiyomini qaynatishga sarflanadigan suvni hisoblashda e'tiborga olish kerak. Suvning umumiy miqdori shakar massasining 70 % ni tashkil qilishi kerak.

Aluminiy idishiga suv quyiladi, qizdiriladi, shakar solib aralashtirib turib eritiladi. Shakar to'liq eriganidan va eritma qaynaganidan keyin bo'kkan agaroid solinib aralashtirib eritiladi, bundan keyin esa patoka va natriy laktatning retsepturada ko'rsatilgan miqdori solinadi. Qiyom quruq moddalari massasi 75-76 % bo'lganicha qaynatiladi. Massaga 75 °C gacha sovutilgandan keyin kislota, essensiya va bo'yoq qo'shiladi va aralashtiriladi. Harorati 70-72 °C bo'lgan tayyor marmelad massasi sirlangan sopol qoliplarga quyiladi. Jelelash xona haroratida 20-30 minut davomida amalga oshirilib, shundan keyin marmelad qoliplardan bo'shatiladi.

Tayyor marmeladning organoleptik ko'rsatkichlari baholanadi va fizik-kimyoiy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

*Pektinda jeleli marmelad tayyorlash.* Stakanga retsepturada ko'rsatilgan miqdordagi pektin solinib, ustidan pektin massasiga nisbatan ikki marta ko'proq shakar solinadi (shakarning bu miqdori keyinchalik ishchi retsepturadan kelib chiqib hisoblangan miqdordan olib tashlanadi). Pektin quruq holida shakar bilan aralashtiriladi. Aluminiy idishga pektin massasiga nisbatan 25 marta ko'p suv solinib, suvgaga pektin va shakar aralashmasi oz-ozdan qo'shib aralashtiriladi. Bundan keyin 4 soat davomida tinch holatda qoldiriladi, yoki 1 soat davomida aralashtirib turgan holda bo'ktiriladi. Bo'ktirish tugaganidan keyin aluminiy idishga hisoblangan miqdordagi shakarning qolgan qismi va biroz suv solinadi va aralashma uzlusiz aralashtirgan holda qaynatishga qo'yiladi. Shakar to'liq eriganidan keyin natriy laktatning retsepturada ko'rsatilgan miqdori

qo'shiladi va quruq moddalar miqdori 68-70 % bo'lgunicha qaynatiladi. Qaynatish tugaganidan keyin massa 75-80 °C gacha sovutiladi, unga kislota, essensiya va bo'yoq qo'shiladi va aralashtiriladi. Tayyor marmelad massasi chinni qoliplarga quyiladi. Xona haroratida jelelash davomiyligi 25-30 minutni tashkil qiladi. Jele hosil bo'lish tugaganidan keyin tayyor marmelad qoliplardan chiqariladi, bir qismi sifatini aniqlash uchun olib qolinadi, qolgan qismi yuzasiga shakar sepilib, termostatda 50-55 °C haroratda 6 soat davomida quritiladi.

Tayyor marmeladning organoleptik ko'rsatkichlari baholanadi va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

*Jelatindan jeleli marmelad tayyorlash.* Stakanga retsepturada ko'rsatilgan miqdordagi jelatin solinib ustidan sovuq suv quyiladi. Jelatin va suvning nisbati 1:6 ni tashkil qiladi. Jelatinning bo'kishi 1,5-2 soat davom etadi. Keyin jelatin suv hammomida 60 °C gacha qizdirilib eritiladi va aluminiy idishga o'tkaziladi. Jelatin to'liq eriganidan keyin unga shakar solinadi va qaynatilgandan keyin patoka qo'shiladi. Qiym quruq moddalarini miqdori 76 % bo'lgunicha qaynatiladi, keyin 75-76 °C gacha sovutiladi, jele massasiga kislota, essensiya va bo'yoq qo'shiladi va aralashtirib qoliplarga yoki kraxmalga quyiladi. Jele massasini 7 °C haroratda jelelanishi 30-40 minut, xona haroratida 40-60 minut davom etadi. Keyin marmelad kraxmaldan tozalanadi, organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

### **Jeleli marmeladning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash**

*Marmelad sifatini organoleptik baholash.* Marmelad sifatini organoleptik baholashda uning ta'mi va rangi, siniqidagi ko'rinishi, konsistensiyasi, shakli va tashqi ko'rinishi sirtining holatiga e'tibor beriladi.

Standart talablariga binoan jelcli marmeladning ta'mi, hidi va rangi aniq ifodalangan, nomiga xos, begona ta'm va hidlarsiz bo'lishi;

siniqdagi ko‘rinishi agarda tayyorlangan marmelad uchun tiniq shishasimon, boshqa jelelovchilarda tayyorlangan marmeladniki – biroz xiraroq bo‘lishi mumkin; konsisstensiyasi – agarda tayyorlangan marmeladniki pichoq bilan kesiladi, boshqa jelelovchilarda tayyorlangan marmeladniki – biroz chuziluvchan; marmeladning shakli to‘g‘ri va aniq bo‘lishi shart; jeleli marmeladning sirti – bir tekis mayda kristalli shakar bilan sepilgan bo‘lishi kerak.

Laboratoriya sharoitida turli usullarda tayyorlangan karamel namunalarining organoleptik ko‘rsatkichlari aniqlanadi, olingan natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi va standart talablari bilan taqqoslanadi.

#### *Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi*

Jeleli marmelad \_\_\_\_\_ tayyorlangan

Marmeladning ta’mi \_\_\_\_\_

Marmeladning hidi \_\_\_\_\_

Rangi \_\_\_\_\_

Siniqidagi ko‘rinishi \_\_\_\_\_

Konsistensiyasi \_\_\_\_\_

Shakli \_\_\_\_\_


Sirtining holati \_\_\_\_\_

Xulosa \_\_\_\_\_


#### *Marmeladning namligini aniqlash.*

Marmeladning namligi ekspress usulda B4 asbobida (2-rasm) aniqlanadi.

Namlikni aniqlashdan oldin ro‘znama qog‘ozidan kvadrat yoki uchburchak shaklda bo‘lgan tomonlari 16 sm li paketlar tayyorlanadi va chetlaridan 1.5 sm qo‘yib bukланади (3-rasm).



**2-rasm. B4 rusumli namlikni aniqlash asbobi**



**3-rasm. B4 rusumli asbob uchun paket tayyorlash sxemasi  
a – to’rtburchak shaklda; b – uchburchak shaklda.**

Tayyorlangan paketlar dastlab  $160^{\circ}\text{C}$  haroratda quritib, 3 min davomida eksikatorda sovutiladi va massasi o’lchanadi.

Paketga 3 g miqdorda namligi aniqlanadigan marmeladadan o’lchab solinadi va ichiga bir tekis qilib yoyiladi. Paket mahsulot bilan  $160^{\circ}\text{C}$  gacha qizdirilgan B4 asbobi ichiga qo'yiladi va 3 minut davomida quritiladi. Quritilgan o’lchanma paketi bilan birgalikda eksikatorga sovutish uchun 1-2 min ga qo'yiladi, keyin uning massasi o’lchanadi va marmeladning ( $W_m$ , %) quyidagi formula buyicha xisoblanadi

$$W_m = (a - b) \cdot 100 / (a - s) \quad (6)$$

bu yerda a – marmelad o‘lchanmasi bilan paketning quritishdan oldingi massasi, g;

b - marmelad o‘lchanmasi bilan paketning quritishdan keyin ni massasi, g;

s - quritilgan kog‘oz paketning massasi, g.

### Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi

Marmelad o‘lchanmasi bilan paketning quritishdan oldingi massasi (a)	_____ g
Marmlad o‘lchanmasi bilan paketning quritishdan keyingi massasi (b)	_____ g
Quritilgan kog‘oz paketning massasi (s)	_____ g
Marmeladning namligi ( $W_m$ )	_____ %

*Marmeladning kislotaliligini aniqlash.*

Marmeladning 0,01 aniqlikda tortib olingan 5 g o‘lchanmasi 200-300  $\text{sm}^3$  hajmli konussimon kolbaga solinadi, ustidan 100  $\text{sm}^3$  issiq (60-70 °S) distillangan suv quyiladi, yaxshilab aralashtirilida va xona haroratigacha sovutiladi. Ustiga 3-4 tomchi 1 % li fenolftalein eritmasi tomiziladi va 0,1 mol/dm<sup>3</sup> natriy gidrooksid eritmasi bilan 1 minut davomida yo‘qolmaydigan pushti rangga ega bo‘lgunicha titrla-nadi. Marmeladning kislotaliligi  $K_{mar}$  (graduslarda) quyidagi formula bilan hisoblanadi

$$K_{mar} = V \cdot 100 / g \cdot 10 = 10 \cdot V / g, \quad (7)$$

bu yerda V – titrlashga sarflangan 0,1 mol/dm<sup>3</sup> natriy gidrooksid eritmasining miqdori,  $\text{sm}^3$ ;

g – o‘lchanma massasi, g.

Olingen natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi

Titrlashga sarflangan 0,1 mol/dm <sup>3</sup> natriy gidrooksid ritmasining miqdori (V)	_____ sm <sup>3</sup>
O'chanma massasi (g)	_____ g
Marmeladning kislotaliligi (K <sub>mar</sub> )	_____ grad
Xulosa _____	

### ***Marmeladda redutsiyalovchi qandlar miqdorini aniqlash.***

Redutsiyalovchi qandlar miqdorini aniqlash bilan bog'liq bir qator uslublar ishqoriy mis eritmasini qo'llashga asoslangan. Bu eritma ishqoriy segnet tuzi (vino kislotasining kaliy-natriy tuzi, yoki kaliy-natriy tartrat – KNaC<sub>4</sub>O<sub>8</sub>·4 H<sub>2</sub>O) eritmasining mis sulfat eritmasi bilan ta'sirlanish reaksiysi natijasida hosil bo'ladi.

Mis sulfat eritmasini Feling I, ishqoriy segnet tuzi eritma-sini Feling II deb nomlanish qabul qilingan.

Feling I eritmasini tayyorlash uchun mis sulfat dastlab qayta kristallanadi va undan 0,01 g aniqlikda 69,28 g o'chanma tortib olina-di, distillangan suvda eritiladi va sig'im 1000 sm<sup>3</sup> bo'lgan o'chov kolbasiga solinadi, kolbani chizig'igacha yetguncha distillangan suv qo'shiladi va yaxshilab aralashtiriladi.

Feling II eritmasini tayyorlash uchun 0,01 aniqlikda tortib olingan 346 g kaliy-natriy tartrat tuzi 600 sm<sup>3</sup> distillangan suvda eritiladi va qog'oz filtrdan foydalanim sig'im 1000 sm<sup>3</sup> bo'lgan o'chov kolbaga filtrlanadi. Alovida 100 g natriy gidrooknsidi 200 sm<sup>3</sup> distillangan suvda eritiladi va bu eritma ham o'chov kolbaga o'tkaziladi. Shundan keyin kolbadagining hajmi distillangan suv bilan chizig'igacha yetkaziladi.

Redutsiyalovchi qandlar miqdorini Leyn va Eynon tavsiya qilingan uslubi bo'yicha aniqlash. Bu uslub ishqoriy mis eritmasini invert qandi eritmasi bilan titrlash yo'li orqali redutsiyalovchi qandlar miqdorini aniqlashni ko'zda tutadi.

Feling I va Feling II eritmalarining o'zaro ta'sirlanishining birinchi

bosqichida miss gidrooksiidi hosil bo'lib cho'kmaga tushadi. Reaksiyaning ikkinchi bosqichida Cu(OH)<sub>2</sub> kaliy-natriy tartrat tuzi bilan ta'sirlanishi natijasida cho'kma eriydi va misning kompleksi hosil bo'lib, eritma to'q ko'k ranga ega bo'ladi. Bu eritmani Feling eritmasi (reaktivi) deb ham nomlanadi.

Feling eritmasiga redutsiyalovchi qandlarga ega bo'lgan eritmani qo'shish va qaynatish natijasida qizil rangli misning chala oksidi, ya'ni - mis (I) oksidi hosil bo'lib, to'q ko'k rang yo'qoladi. Reaksiya oxirini aniqlashning y yengillashtirish uchun ko'k metilen indikatoridan soydalaniлади. Redutsiyalovchi qandlar ishqoriy miss eritmasini kaytarishdan so'ng ko'k metilenni ham qaytarib rangsizlantiradi va reaksiyaning oxiri yaqqol aniqlanadi.


Redutsiyalovchi qandlar miqdorini Leyn va Eynon uslubi bilan aniqlash quyidagi bosqichlardan iborat: Feling I va Feling II eritmalarini tayyorlash; invert qandining standart eritmasini tayyorlash; 20 sm<sup>3</sup> Feling eritmasiga ekvivalent bo'lgan invert qandining standart eritmasi miqdorini aniqlash; tekshirilayotgan mahsulotning eritmasini tayyorlash; mahsulotdagi redutsiyalovchi qandlar miqdorini aniqlash.

Invert qandining standart eritmasini tayyorlash uchun eksikatorda 3 kun davomida saqlangan 1,9 g kimyoviy toza saxaroza yoki qand rafinad biroz distillangan suvda eritiladi va sig'imi 200 sm<sup>3</sup> bo'lgan o'Ichov kolbaga o'tkaziladi. Eritma tayyorlashda sarflangan suvning miqdori 100 sm<sup>3</sup> atrofida bo'lishi kerak.

O'Ichov kolbadagi eritmaga 7-8 sm<sup>3</sup> eritilmagan (zichligi 1,19) xlorid kislota quyiladi. Kolba ichiga termometr kiritiladi va kolba taxminin 80 °C gacha qizdirilgan suv hammomida o'rnatiladi. 2-3 minut davomida eritma harorati 67-70 °C gacha yetkaziladi va shu haroratda 5 min saqlanadi.

Kolbadagi eritma tezda xona haroratigacha sovutiladi, 2-3 tonichi metiloranj tomiziladi va va 25-30 % li ishqor eritmasi bilan neytrallanadi.

Shundan keyin eritmaning hajmi distillangan suv Bilan kolbaning chizig'igacha yetkaziladi. Tayyorlangan standart eritma-ning  $1 \text{ sm}^3$  hajmida  $0,01 \text{ g}$  invert qandi (redutsiyalovchi qand mavjud).



**4-rasm. Uchi egilgan (Z-simon) byuretka**

Konussimon kolbaga uchi egilgan (Z-simon) byuretkadan (4-rasm)  $8,5-9 \text{ sm}^3$  invert qandi standart eritmasi, pipetkalar yordamida  $10 \text{ sm}^3$  dan Feling I va Feling II eritmalar quyiladi. Aralashma qaynaguncha qizdiriladi.  $1 \text{ min}$  (qum soat bo'yicha) qaynatiladi va qaynatishni to'xtamasdan  $3$  tomchi ko'k metilenning  $1 \%$  li eritmasi to'miziladi va uchi egilgan byuretkadagi invert qandi standart eritmasi bilan ko'k rang yo'qolguncha titrlanadi.

Oldingi va titrlashga sarflangan invert qandi standart eritmasining umumiy miqdori  $20 \text{ sm}^3$  Feling eritmasiga mos kelishini belgilaydi. Ushbu tajriba «kuruq tajriba» deb ataladi. Uning natijasi keyingi tajribalarda hisobga olinadi.


Tekshirilayotgan mahsulotda (marmeladda) redutsiyalovchi qandlar miqdorini aniqlash. Bu tajriba mahsulot o'lchanmasini o'lchov kolbasida o'tkazib eritma tayyorlash bilan yoki eritma tayyorlanmasdan bajarilishi mumkin.

O'lchanmani o'lchov kolbasida eritmaslik, ya'ni uning eritmasini tayyorlanmaslik uslubi *nogard* moddalarning cho'ktirishini talab qilmaydigan mahsulotlar uchun qo'llaniladi. Bunday mahsulotlarga jeleli marmelad ham taaluqli. Bunda o'lchanma massasi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$g = 8/p , \quad (8)$$

bu yerda  $g$  – o'lchanma massasi,  $g$ :

r – mahsulotdagi redutsiyalovchi qandlarning taxminiy miqdori, %.



5-rasm. Torzion tarozi

Redutsiyalovchi moddalarning miqdori qanchalik katta bo'lsa, o'lchanma massasi shunchalik kichik bo'ladi. Shuning uchun o'lchanmani torzion taroziga (5-rasm) 0,001 g aniqlikda qog'ozcha bilan tortib olish ma'qul. Ushbu qog'ozcha bilan o'lchanma reaksiya o'tkaziladigan kolbaga solinishi mumkin.

Olingen o'lchanma konussimon kolbaga solinadi va ustidan pipetkalar yordamida 10  $\text{sm}^3$  dan Feling I va Feling II eritmalari quyiladi. Aralashma qaynaguncha qizdiriladi, 1 min (qum soat bo'yicha) qaynatiladi va qaynatishni to'xtamasdan 3 tomchi ko'k metilenning 1 % li eritmasi tomiziladi va uchi egilgan byuretkadagi invert qandi standart eritmasi bilan ko'k rang yo'qolguncha titrlanadi.

Marmeladdagi redutsiyalovchi qandlar-ning miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi

$$RQ = 10 \cdot (n-m) \cdot 100/g \cdot 1000 = (n-m)/g, \quad (9)$$

bu yerda n – «quruq tajriba» da 20  $\text{sm}^3$  Feling eritmasiga sarflangan invert qandi standart eritmasining miqdori,  $\text{sm}^3$ ;

m – tirlash uchun sarflangan invert qandi standart eritmasining

miqdori,  $\text{sm}^3$

g – o'lchanma massasi, g.

### Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi

«Quruq tajriba»da 20  $\text{sm}^3$  Feling eritmasiga sarflangan invert qandi standart eritmasining miqdori (n)

$\text{sm}^3$

Titrlash uchun sarflangan invert qandi standart

eritmasining miqdori (m)

\_\_\_\_\_ sm<sup>3</sup>

O‘lchanma massasi (g)

\_\_\_\_\_ g

Marmeladdagi redutsiyalovchi qandlarning miqdori (RQ)

\_\_\_\_\_ %

Barcha variantlar asosida tayyorlangan marmeladning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko‘rsatkichlari umumiy jadvalga kiritiladi va taqqoslanib xulosa chiqariladi.

12-jadval

Marmelad tayyorlashda ishlataligani jelelovchi modda	Marmelad sifat ko‘rsatkichlarining tavsifi							
	Namligi, %	Kislotaliligi, grad	Redutsiyalovchi moddalar miqdori, %	Ta’mi va hidi	Rangi	Siniqidagi ko‘rinishi	Konsistensiyasi	Shakli sirtining holati
Agar								
Agaroid								
Pektin								
Jelatin								

Xulosa \_\_\_\_\_

---

---

---

---

---

### Talabanining mustaqil ishi

2-laboratoriya ishini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida talaba ma’ruzalar matnidan «Marmelad tayyorlash» mavzusini va

uslubiy qo'rsatmalardagi ushbu tajriba ishiga tegishli «Asosiy nazariy tushunchalar» bo'limini o'zlashtirishi, laboratoriya qaydnomasini rasiniylashtirishi; quyida keltirilgan savollardan foydalanib nazariy qismni o'zlashtirish darajasini tekshirishi kerak.

### **Mustaqil tayyorlash uchun savollar**

1. Qanday mahsulot marmelad deb noimlanadi?
2. Marmelad qanday turlarga bo'linadi?
3. Marmelad ishlab chiqarishda qanday jele hosil qiluvchilardan foydalaniladi?
4. Agardan foydalanib jeleli marmelad qanday tayyorlanadi?
5. Agaroiddan foydalanib jeleli marmelad qanday tayyorlanadi?
6. Pektindan foydalanib jeleli marmelad qanday tayyorlanadi?
7. Jelatindan foydalanib jeleli marmelad qanday tayyorlanadi?
8. Pektin va agarning jele hosil qilish qobiliyati nima bilan farq qiladi?
9. Nima uchun jeleli marmelad massasiga kislotani qo'shish uni 55-60 °S gacha sovutilganidan keyin amalga oshiriladi?
10. Marmelad sifatini organoleptik usulda baholash qanday amalga oshiriladi?
11. Marmeladning namligi qanday aniqlanadi?
12. Marmeladning kislotaliligi qanday aniqlanadi?
13. Marmeladdagi redutsiyalovchi moddalar miqdorini aniqlash qaysi bosqichlardan iborat?
14. Invert qandi standart eritmasi qanday tayyorlanadi?
15. Feling reaktivining  $20 \text{ sm}^3$  miqdoriga invert qandi eritmasining mos miqdori qanday aniqlanadi?
16. Marmeladdagi redutsiyalovchi qandlarning miqdori qanday aniqlanadi?

## **Laboratoriya ishga oid diagnostik testlar**

### **1. Qaysi javobda meva-rezavor marmeladiga ta’rif to‘g‘ri berilgan?**

A) shakar, meva-rezavor pyuresidan, ko‘pik va jele hosil qiluvchilardan tayyorlangan ko‘piksimon strukturali mahsulot;

B) shakar, meva-rezavor pyuresidan va boshqa xom ashyolardan tayyor-

lanadigan jelesimon strukturali mahsulot;

C) jele hosil qiluvchining suvdagi shakarli eritmasi va boshqa xom ashyolardan tayyorlanadigan jelesimon strukturali mahsulot;

D) shakar, donakli mevalarning pyuresi va boshqa xom ashyolardan tay-

yorlanadigan jele strukturali mahsulot.

### **2. «Butun yoki qirkilgan, sulfat kislotasi eritmasiga botirilgan meva-rezavorlar» ta’risi qaysi bir meva-rezavor yarim tayyor mahsulotiga ta’luqli?**

A) pulpaga;

B) pyurega;

C) qaynatmaga;

D) pripasga.

### **3. Qaysi jele hosil qiluvchini kungaboqar qalpog‘idan yoki g‘o‘zapoya chang‘alo-g‘idan olish mumkin?**

A) pektinni;

B) furselaranni;

C) jelatinni;

D) agaroidni.

### **4. Qaysi marmeladga marmelad quyuvchi mashinada shakl beriladi?**

A) uch katlamli;

B) pat;

C) «Apelsin va limon bo‘lakchalari»

D) qolipli.

**5. Qaysi marmeladni tayyorlash uchun ikki rangli jeleli po'stloq qo'lla-niladi?**

- A) uch qatlamlili jeleli;
- B) pat;
- C) «Apelsin va limon bo'lakchalarisi»;
- D) qolipli meva-rezavorli.

**6. Jeleli marmelad tayyorlashda qaysi jele hosil qiluvchi xom ashyo yaxshiroq xususiyatga ega?**

- A) jelelovchi kraxmal;
- B) furselaron;
- C) jelatin;
- D) agar.

**7. «Toza meva va rezavorlarni qirqichdan o'tkazib termik ishlov berilgan, zinch yopiladigan idishga qadoqlangan» degan ta'rif qaysi bir meva-rezavor yarim tayyor mahsulotiga ta'luqli?**

- A) pulpaga;
- B) pyurega;
- C) qaynatmaga;
- D) sterilizatsiyalangan pyurega.

**8. Qaysi jele hosil qiluvchi faqatgana shakar va kislota mavjudligidagina jele hosil qiladi?**

- A) pektin;
- B) furselaran;
- C) jelatin;
- D) agaroid;

### **3-LABORATORIYA ISHI**

## **POMADALI KONFET KORPUSLARINI TAYYORLASH VA SIFATINI ANIQLASH**

#### **Ishdan maqsad**

Laboratoriya sharoitida turli pomadali massalari va konfet korpuslari tayyorlashni o'rganish va sifatini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Talabalar tajriba ishini bajarish natijasida qandli, sutli, qaymoqli, krem-bryuleli pomadalarni, va konfet korpuslarini tayyorlash, ularning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.

#### **Ishning mazmuni**

1. Turli pomada massalarini tayyorlash va konfet shaklini berish.
2. Pomadalarning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash.
3. Turli pomada massalari xossalari va sifatini taqqloslash va xulosa chiqarish.

Kerakli xom ashyolar, jihozlar va kimyoviy reaktivlar:

- xom ashyolar: shakar, patoka, quyultirilgan sut, sariyog', vanilin kraxmal, ichimlik suvi;
- jihozlar va idishlar: refraktometr URL, elektr plita; torzion va texnik tarozi, qo'l bilan ishlataladigan gidropress termometrlar, lineyka, konfet korpusi shakliga ega shtamp; taxta lotokcha va kurakcha; asbestos simto'r, alyumin idishlar va kostryulyalar, byukslar, shisha tayoqchalar, kimyoviy stakanlar, o'chov kolbalar va silindrlar, konussimon kolbalar, pipetkalar, chinni idishlar, hovonchalar, shpatellar;
- kimyoviy reaktivlar: eritilmagan xlorid kislota (zichligi 1,19) quruq natriy yoki kaliy gidrookisi va uning 25 % li critmasi, metiloranj 1

% li eritmasi, kaliy ferritsianid – qizil qon tuzi ( $K_3Fe(CN)_6$ ), eritmasi, 1 mol/dm<sup>3</sup> rux sulfat eritmasi, natriy yoki kaliy gidroksidning 1 mol/dm<sup>3</sup> eritmasi, ko'k metilen 1 % li eritmasi, kimyoviy toza saxaroza, distillangan suv.

## ASOSIY NAZARIY TUSHUNCHALAR

Konfet ishlab chiqarish texnologiyasi konfet massalarini tayyorlash, ularga konfet korpuslari shaklini berish va korpuslarni sirlashdan (sirlangan konfetlar ishlab chiqarishda) iborat.

Konfet massalarining asosiy turlariga pomadali, mevali, yong'oqli, quvlangan konfet massalari kiradi. Pomadali massalardan tayyorlangan konfetlar ko'proq tarqalgan. Ularni ishlab chiqarish uchun asosi pomada deb ataladigan massa tayyorlanadi.

Pomada deb pomada qiyomini qaynatish, sovutish va kuvlash bilan hosil qilinadigan bir jinsli mayin kristalli massaga aytildi.

Tarkibiga kiruvchi asosiy xom ashylar xiliga va ishlov berilish usuliga qarab pomada oddiy, sutli va krem-bryule turlarga bo'linadi. Oddiy pomadaning tarkibiy qismlari bo'lib shakar, patoka va suv hisoblanadi. Sutli pomadada suv o'rniqa sut ishlataladi, krem-bryule pomadasi tarkibiga sekin qaynatilgan sut kiradi.

Pomadada shakar ikki fazada - suyuq va quyuq fazalarda mavjud. Qandning suv-patoka yoki sut-patoka erituvchisidagi to'yingan eritmasi suyuq faza hisoblanadi, qattiq faza esa - mayda o'lchamlari 10...20 mkm bo'lgan saxaroza kristallaridan iborat.

Pomadali konfet massasining ta'mi nafaqt pomadaga qo'shilgan mahsulotlardan, balki kristallar o'lchami bilan ham belgilinadi. Mahsulotga shakl berish usulini aniqlovchi ko'rsatgich - pomadaning oquvchanligi, qattiq va suyuq fazalarning nisbatiga bog'liq. Pomada massasiga nisbatan 40-50 % suyuq fazada o'lchamlari 20 mkm dan katta bo'lgan saxaroza kristallariga bo'lishi eng muvosiq hisoblanadi.

Pomada sifatiga ko'pchilik omillar ta'sir qilib, ularning asosiyalariga retseptura, pomada va uning suyuq fazasidagi redutsiyalovchi moddalarning miqdori, qiyomning namligi, kuvladanigan pomada qiyomining oxirgi harorati, kuvlashning davomiyligi va jadalligi kiradi. Bu omillardan har biri pomadaning sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Konfet massasiga shakl berish usuliga qarab pomada qiyomining retsepturasiga turli miqdorda pomada kiritiladi. Surkash usuli bilan shakl beriladigan pomada massalariga shakar massasiga nisbatan 5-12% patoka (3-8 % invert qiyomi) qo'shiladi; quyish usuli bilan shakl beriladigan pomada massasiga shakar massasiga nisbatan 12-25 % patoka (8-12 % invert qiyomi) qo'shiladi. Pomada retsepturasiga shakar massasiga nisbatan 25 % dan ortiq patoka qo'shish tavsiya etilmaydi, chunki qiyom tarkibida dekstrinlar miqdorining yuqori bo'lishi hisobiga uning qovushqoqligi ortadi va saxarozaning kristallanishi sekinlashadi.

Shakar massasiga nisbatan 5% dan kam patoka qo'shilganida saxarozaning kristallanish jarayoni tezlashadi va kristallar yirik bo'ladi.

Ko'pchilik konfet navlari uchun yarim tayyor mahsulot hisoblangan pomadalarning tasdiqlangan retsepturasi mavjud. Bu retsepturalarga ko'ra qandli pomada tayyorlashda shakar massasiga nisbatan 12; 18; 25 % patoka qo'shiladi. Patoka miqdori va qiyomni tayyorlash sharoitlariga qarab suyuq fazaning hosil bo'lishi va qattiq faza kristallarining o'chamlariga ta'sir qiluvchi turli miqdordagi redutsiyalovchi moddalar mavjud bo'ladi. Ular retseptura aralashmasidagi patoka yoki invert qiyomi bilan kiritilgan va saxarozani inversiyasi natijasida hosil bo'lgan redutsiyalovchi moddalardan iborat bo'ladi.

Pomadadagi redutsiyalovchi moddalar miqdorini rostlash uchun, patoka yoki invert qiyomi bilan qo'shiladigan redutsiyalovchi moddalar miqdorini hisoblash va texnologik jarayon vaqtida ular konsentratsiyasining ortishini aniqlash kerak. Buning uchun patokadagi

(yoki invert qiyomidagi) va oxirgi mahsulotdagi (pomada qiyomi, pomada, pomada massasi) redutsiyalovchi moddalar miqdorini aniqlash kerak.

Redutsiyalovchi moddalar miqdorini kamaytirish talab qilinganida, birinchi navbatda texnologik jarayondan ular miqdorining eng ko'p ortishi sodir bo'ladi bosqichlardan voz kechish kerak. Agar u yoki bu sabablarga ko'ra buni amalga oshirib bo'lmasa, retsepturadagi patoka yoki invert qiyomining miqdorini kamaytirish kerak.

Pomadadagi redutsiyalovchi moddalar miqdori uning qo'llanilishiga bog'liq bo'ladi. Sirlanmagan konfetlar ishlab chiqarish uchun ishlataladigan pomada tarkibidagi redutsiyalovchi moddalar miqdori 6% dan, sirlangan konfetlar ishlab chiqarishda ishlataladigan pomada tarkibida 10% dan ortiq bo'lmasligi kerak. Pomadani tayyorlashda konfet massasiga shakl berish usul hisobga olish kerak.

Qo'shiladigan patoka miqdori singari pomada qiyomining namligi ham pomadada suyuq fazaning hosil bo'lishini asoslaydi. Pomada qiyomi-ning namligi qanchalik katta bo'lsa, pomadada shunchalik ko'p suyuq faza hosil bo'ladi, chunki bunda saxarozaning katta miqdori eritma holida bo'ladi. Pomadaning namligi 7 % dan kam, 14 % dan yuqori bo'lmasligi kerak. Namlik miqdori kam bo'lganida pomada qiyin eriydigan va shakl beriladigan yaxlit kristall massaga aylanadi, hamda quruq moddalar bo'yicha xom ashyoning ortiqcha sarflanishi sodir bo'ladi. Namlik miqdori yuqori bo'lganida qattiq fazaning miqdori kamayadi, bunda shakl berilgan mahsulotlarning mustahkamligi pasayadi, ular oson deformatsiyalanib, katta miqdorda chiqindilar hosil bo'ladi.

## TADQIQOT QISMI

### Ishni bajarish tartibi

Har bir talaba o'qituvchi topshirig'iga ko'ra yakka tartibda qo'yida keltirilgan variantlarning biri bo'yicha pomada va pomadali konfet korpusini tayyorlaydi:

- variant 1 – patoka miqdori shakar massasiga nisbatan 18 % bo'lgan qandli pomada;
- variant 2 – shakar va sutning nisbati 1:1,5 bo'lgan sutli pomada;
- variant 3 – qaymoqli pomada;
- variant 4 – shakar va sutning nisbati 1:1,5 bo'lgan sutli krem-bryule pomada;

Ishchi retseptura tuziladi, kerakli suv miqdori hisoblanadi, retseptura bo'yicha barcha kerakli xom ashyolar o'lchab olinadi, alohida variant bo'yicha ishni bajarish uchun kerakli barcha idishlar va laboratoriya jihozlari tanlab olinadi;

Uslubga aniq rioya qilgan holda alohida variant bo'yicha pomada tayyorlanadi. Quruq moddalar massasining qismini aniqlash uchun pomada qiyomidan namuna olinadi.

Tayyor pomada GOST talablariga ko'ra organoleptik usulda baholanadi va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Barcha kuzatishlar va aniqlashlarning natijalari laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

#### **Turli pomada massalarini tayyorlash va konfet shaklini berish**

*Qandli pomada tayyorlash.*

Tasdiqlangan retsepturasi asosida laboratoriya sharoitida 200 g shakardan tayyorlanadigan qandli pomada uchun ishchi retseptura hisoblanadi (13-jadval).

### 13-jadval

Xom ashyolar	Quruq moddalarining miqdori, %	1 t qandli pomada ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		200 g shakardan qandli pomada tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarida	asl holda	quruq moddalarida
Shakar	99,85	805,5	804,29	200,0	199,7
Patoka	78,00	144,9	113,02		
Vanilin		0,1			
Jami		950,5	917,31		
Mahsulotning chiqishi	88,0	1000,0	880,00		

Pomada tayyorlash uchun sig'imi alyumin idishga ishchi retsepturaga binoan shakar o'lchab olinadi va ustidan shakarning massasiga nisbatan 30 % suv solinib, issiq elektroplitaga qo'yiladi. Shakar kristallari to'liq eriganidan keyin hisoblangan miqdordagi patoka solinadi va pomada qiyomi aralashtirib turgan holda 110-112 °C haroratgacha qaynatiladi. Idishning ichki sirti kristallardan ho'l doka bilan tozalanib turiladi. Qiyomdan 1-2 tomchi olinadi va refraktometrda quruq moddalarining miqdori aniqlanadi. Agar quruq moddalarining miqdori 87 % ga yetgan bo'lsa, qaynatish to'xtatiladi, qiyom 65-70°C gacha sovutiladi. Pomadani kuvalash qo'l yordamida amalga oshiriladi. Buning uchun qiyom katta katta chinni hovonchaga solinadi va yog'och kurakcha bilan pomada hosil bo'lguncha kuvalanadi. Quvlangan pomadadan fizik-kimyoviy xossalarni aniqlash uchun namuna olinadi. Qolgan qismi qatlam qilib surkaladi va tinidirishdan keyin pichoq bilan alohida konfet korpuslariga kesiladi. Kraxmalga quyish usulida shakl berish uchun kraxmal dastlab 7 % namlikkacha quritiladi, yog'och lotokka solinadi va yuzasi lineyka bilan tekislaniib, maxsus shtamp bilan bir necha qator qolipchalar (uyachalar) qilinadi. Chinni hovonachadagi pomada 70 °C haroratgacha elektroplitada qizdiriladi va kraxmaldan

tayyorlangan qoliplarga quyiladi. Tindirilgandan keyin konfet korpuslarining sifati aniqlanadi.

### *Sutli pomada tayyorlash.*

Tasdiqlangan retsepturasi asosida laboratoriya sharoitida 200 g shakardan tayyorlanadigan sutli pomada uchun ishchi retseptura hisoblanadi (14-jadval).

**14-jadval**

Xom ashyolar	Quruq modda-larning miqdori, %	1 t sutli pomada ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		200 g shakardan sutli pomada tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq modda-larda	asl holda	quruq moddalar-da
Shakar	99,85	534,00	533,20	200,0	199,7
Patoka	78,00	66,31	51,72		
Quyultirilgan sut	74,00	442,00	327,08		
Vanilin	-	0,10	-		
Jami	-	1042,41	912,00		
Mahsulotning chiqishi	88,0	1000,0	880,00		

Hisoblash  
yo‘li bilan  
aniqlanadi

Ochiq rangli sutli pomada tayyorlash uchun alyumin idishga shakarning ishchi retsepturaga hisoblangan miqdori va shakar massasiga nisbatan 30 % miqdorda ichimlik suvi solinib, plitaga qizdirishga qo‘yiladi.

Shakar to‘liq eriganidan keyin hisoblangan miqdordagi quyultirilgan sut va patoka solinadi va qiyom aralashirgan holda 110-112 °C haroratgacha qaynatiladi. Qiyomdan 1-2 tomchi olinadi va refraktometrda quruq moddalarning miqdori aniqlanadi. Agar quruq moddalarning miqdori 87 % ga yetgan bo‘lsa, qaynatish to‘xtatiladi, qiyom 65-70 °C gacha sovutiladi.

Pomadani kuvlash qo‘l yordamida amalga oshiriladi. Buning uchun

qiyom katta katta chinni hovonchaga solinadi va yog'och kurakcha bilan pomada hosil bo'lgunicha kuvlanadi. Quvlangan pomadadan fizik-kimyoviy xossalari aniqlash uchun namuna olinadi. Qolgan qismi qatlam qilib surkaladi va tinidirishdan keyin pichoq bilan alohida konfet korpuslariga kesiladi. Kraxmalga quyish usulida shakl berish uchun kraxmal dastlab 7 % namlikkacha quritiladi, yog'och lotokka solinadi va yuzasi lineyka bilan tekislanib, maxsus shtamp bilan bir necha qator qolipchalar (uyachalar) qilinadi. Chinni hovonachadagi pomada 70 °C haroratgacha elektroplitada qizdiriladi va kraxmaldan tayyorlangan qoliplarga quyiladi. Tindirilgandan keyin konfet korpuslarining sifati aniqlanadi.

### *Qaymoqli pomada tayyorlash.*

Qaymoqli pomadaning sutli pomadadan farqi shundaki, qaymoqli pomada tayyorlashda ko'proq miqdorda sut mahsulotlari va qo'shimcha sifatda anchagina sariyog' ishlataladi. Shuning uchun bu pomada yaxshi ifodalangan qaymoqli mazaga ega.

Tasdiqlangan retsepturasi asosida laboratoriya sharoitida 200 g shakardan tayyorlanadigan qaymoqli pomada uchun ishchi retseptura hisoblanadi (15-jadval).

**15-jadval**

Xom ashyolar	Quruq modda-larning miqdori, %	1 t qaymoqli pomada ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		200 g shakardan qaymoqli pomada tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
Shakar	99,85	424,40	423,76	200,0	199,7
Patoka	78,00	40,95	31,94		
Quyultirilgan sut	74,00	524,18	387,89		
Sariyog'	84,00	95,54	80,26		
Vanilin	-	0,10	-		
Jami	-	1085,17	924,45		
Hisoblash yo'li bilan aniqlanadi					

Mahsulotning chiqishi	88,0	1000,0	880,00	
--------------------------	------	--------	--------	--

Ochiq rangli sutli pomada tayyorlash uchun alyumin idishga shakarning ishchi retsepturaga hisoblangan miqdori va shakar massasiga nisbatan 30 % miqdorda ichimlik suvi solinib, plitaga qizdirishga qo‘yiladi.

Shakar to‘liq eriganidan keyin hisoblangan miqdordagi quyultirilgan sut va patoka solinadi va qiyom aralashirgan holda 110-112 °C haroratgacha qaynatiladi. Qiyomdan 1-2 tomchi olinadi va refraktometrda quruq moddalarning miqdori aniqlanadi. Agar quruq moddalarning miqdori 87 % ga yetgan bo‘lsa, qaynatish to‘xtatiladi, qiyom 65-70°C gacha sovutiladi.

Pomadani kuvlash qo‘l yordamida amalgalashiriladi. Buning uchun qiyom katta katta chinni hovonchaga solinadi va yog‘och kurakcha bilan pomada hosil bo‘lgunicha kuvlanadi. Quvlangan pomadadan fizik-kimyoiy xossalarni aniqlash uchun namuna olinadi. Qolgan qismi qatlam qilib surkaladi va tinidirishdan keyin pichoq bilan alohida konfet korpuslariga kesiladi. Kraxmalga quyish usulida shakl berish uchun kraxmal dastlab 7 % namlikkacha quritiladi, yog‘och lotokka solinadi va yuzasi lineyka bilan tekislanib, maxsus shtamp bilan bir necha qator qolipchalar (uyachalar) qilinadi. Chinni hovonachadagi pomada 70 °C haroratgacha elektroplitada qizdiriladi va kraxmaldan tayyorlangan qoliplarga quyiladi. Tindirilgandan keyin konfet korpuslarining sisati aniqlanadi.

#### *Krem-bryulili pomada tayyorlash.*

Tasdiqlangan retsepturasi asosida laboratoriya sharoitida 200 g shakardan tayyorlanadigan krem-bryuleli pomada uchun ishchi retseptura hisoblanadi (16-jadval).

## 16-jadval

Xom ashyolar	Quruq modda-larning miqdori, %	1 t krem-bryule ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		200 g shakardan krem-bryule pomada tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
Shakar	99,85	542,09	541,28	200,0	199,7
Patoka	78,00	58,90	45,94		
Quyultirilgan sut	74,00	441,20	326,49		
Vanilin	-	0,10	-		
Jami	-	1042,29	913,71		
Mahsulotning chiqishi	88,0	1000,0	880,00		

Hisoblash  
yo'li bilan  
aniqlanadi

Krem-bryule pomadasi to‘q jigarrang, o‘ziga xos ta’m va hidga ega. Krem-bryule pomada tayyorlash uchun alyumin idishga shakarning ishchi retsepturaga hisoblangan miqdori va shakar massasiga nisbatan 30 % miqdorda ichimlik suvi solinib, plitaga qizdirishga qo‘yiladi.

Shakar to‘liq eriganidan keyin hisoblangan miqdordagi quyultirilgan sut va patoka solinadi va qiyom aralashtirgan holda 108-109 °C haroratgacha qaynatiladi.

Idish qiyom bilan 108-110 °C haroratga ega termostatga joylatirib 1-1,5 soat saqlanadi. Bunda redutsiyalovchi qandlar va sutdag'i oqsillarning parchalanish moddalari orasidaga melanoidinlar hosil-lanish reaksiysi natijasida to‘q rangli va maxsus hid va ta’mga ega moddalar hosil bo‘lishi kuzatiladi. Natijada qiyom to‘q jigarrang, o‘ziga xos ta’m va hidga ega bo‘ladi.

Qiyomning qaynatilishi 11-112 °C haroratgacha davom ettiriladi. Qiyomdan 1-2 tomchi olinadi va refraktometrda quruq moddalarning miqdori aniqlanadi. Agar quruq moddalarning miqdori 87 % ga yetgan

bo'lsa, qaynatish to'xtatiladi, qiyom 65-70°C gacha sovutiladi.

Pomadani kuvlash qo'l yordamida amalga oshiriladi. Buning uchun qiyom katta katta chinni hovonchaga solinadi va yog'och kurakcha bilan pomada hosil bo'lgunicha kuvlanadi. Quvlangan pomadadan fizik-kimyoviy xossalari aniqlash uchun namuna olinadi. Qolgan qismi qatlam qilib surkaladi va tinidirishdan keyin pichoq bilan alohida konfet korpuslariga kesiladi. Kraxmalga quyish usulida shakl berish uchun kraxmal dastlab 7 % namlikkacha quritiladi, yog'och lotokka solinadi va yuzasi fineyka bilan tekislanib, maxsus shtamp bilan bir necha qator qolipchalar (uyachalar) qilinadi. Chinni hovonachadagi pomada 70 °C haroratgacha elektroplitada qizdiriladi va kraxmaldan tayyorlangan qoliplarga quyiladi. Tindirilgandan keyin konfet korpuslarining sifati aniqlanadi.

### **Pomadali konfetlarning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash**

*Pomadali konfetlar sifatini organoleptik baholash.* Konfetlarning sifatini organoleptik baholashda ularning ta'mi va hidi, shakli va tashqi ko'rinishi, strukturasiga e'tibor beriladi.

Standart talablariga binoan konfetlarning ta'mi va hidi aniq ifodalangan, nomiga xos, begona ta'm va hidlarsiz bo'lishi; konfetlarning shakli to'g'ri va aniq, deformatsiyalanmagan bo'lishi; tashqi ko'rinishi bo'yicha sirti quruq, yopishmaydigan, pomadali korpuslarlar sirtiga yirik kristallarning oq dog'lar ko'rinishida to'dalari bo'lmasligi; konsistensiyasi yarim qattiq, og'izda y engil eriydigan, nafis; pomada konfetlarning strukturasi mayin kristalli bo'lishi lozim.

Laboratoriya sharoitida tayyorlangan pomadali konfet korpuslari namunalarining organoleptik ko'rsatkichlari aniqlanadi, olingan natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi va standart talablari bilan taqqoslanadi.

## Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi

Pomadali konfetning turi \_\_\_\_\_  
Konfetning ta'mi \_\_\_\_\_  
Konfetning hidi \_\_\_\_\_  
Shakli \_\_\_\_\_  
Tashqi ko'rinishi \_\_\_\_\_  
Konsistensiyasi \_\_\_\_\_  
Strukturasi \_\_\_\_\_  
Sirtining holati \_\_\_\_\_  
Xulosa \_\_\_\_\_

### *Pomadali konfet korpusi namligini aniqlash.*

Pomadanining namligini aniqlash uchun refraktometrik usulda uning 50 % li eritmasida quruq moddalarning miqdori aniqlanadi. Tajriba laboratoriya ishida namlikni refraktometrik usulda aniqlash uslubiga binoan, harorat, patoka va invert qiyomi uchun tuzatishlar kiritish bilan amalga oshiriladi.

Olingen natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

## **Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi**

Pomadali konfetning turi

Pomada o'lchanmasi massasi	_____ g
Eritmaning massasi	_____ g
Refraktometrning ko'rsatishi	_____ %
Dastlabki quruq moddalarning miqdori	_____ %
Refraktometr prizmasining harorati	_____ °C
Harorat uchun tuzatish	_____ %
Quruq moddalar miqdori uchun tuzatish	_____ %
Tuzatishlarni hisobga olgan holda quruq moddalar miqdori	_____ %
Pomadaning namligi	_____ %

**Pomadada qattiq va suyuq fazalarning nisbatini aniqlash.**

Ushbu tekshirish bilvosita usulda amalga oshiriladi. Buning uchun 30-50 g pomada dastlab yaxshilab filtr qog'oziga, keyin filtrlash matosiga o'taladi va qo'l bilan ishlaydigan gidravlik pressining silindriga joylashtiriladi. Presslash 7,5-8 MPa bosim ostida amalga oshiriladi. Bunda filtrlash matosidan pomada suyuq fazasining oqib chiqishi sodir bo'ladi. Suyuq fazaning 1-2 tomchisi refraktometr prizmasiga o'tkazib uning namligi aniqlanadi.

Suyuq fazaning namligi va pomadaning namligidan kelib chiqqan holda, quyidagi formula bilan pomada suyuq fazasining miqdori aniqlanadi.

$$S_f = W_p \cdot 100 / W_{s,f}, \quad (10)$$

bu yerda  $S_f$  – suyuq fazaning miqdori, %;

$W_p$  – pomadaning namligi, %;

$W_{s,f}$  – suyuq fazaning namligi.

Qattiq fazaning miqdori 100 dan suyuq faza miqdorini ayirish ( $100 - S_f$ ) yo'li bilan topiladi. Bu qiymatlar asosida pomadada suyuq va qattiq fazalarning nisbati aniqlanadi.

**Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi**

Pomadali konfetning turi

Pomadaning namligi ( $W_p$ ) \_\_\_\_\_ %

Suyuq fazaning namligi ( $W_{s,f}$ ) \_\_\_\_\_ %

Suyuq fazaning miqdori ( $S_f$ ) \_\_\_\_\_ %

Suyuq fazaning miqdori ( $Q_f$ ) \_\_\_\_\_ %

Pomadada suyuq va qattiq fazalarning nisbati

Xulosa

### *Pomada massasida redutsiyalovchi qandlar miqdorini aniqlash.*

Redutsiyalovchi qandlar miqdorini aniqlash bilan bog'liq bir qator uslublar ishqoriy ferritsianid eritmasini qo'llashga asoslangan. Bunda aniq o'lchangan ortiqcha qismiga ega ishqoriy ferritsianid eritmasiga tekshirilayotgan mahsulotning suvli eritmasi yoki mahsulotning o'lchammasi qo'shiladi. Qaynatish paytida mahsulotdagi redutsiyalovchi moddalar ferritsianid bilan reaksiyaga qatnashib okisanadi, ferritsianid ( $K_3Fe(CN)_6$ ) bo'lsa ferrotsianigacha ( $K_4Fe(CN)_6$ ) qaytari-ladi. Ferritsianidning qolgan ortiqcha qismi invert standart eritmasi bilan titrlanadi. Indikator sisatida 1 % li ko'k metilen eritmasi ishlataladi. Titrlash vaqtida redutsiyalovchi qand eritmasining bir tomchi ortiqcha qo'shilishi darhol ko'k rangni yo'qolishiga olib keladi. Bunda ko'k metilen rangsiz leykobirikma holatiga o'tadi.

Ushbu uslubda reaksiya oxirini aniqroq kuzatish imkoniyati mayjud.

Redutsiyalovchi moddalar miqdorini aniqlash quyidagi bosqichlaridan iborat: kerakli reaktivlarni tayyorlash; «quruq» tajribani bajarish; mahsulotdagi redutsiyalovchi moddalar miqdorini aniqlash.

Ishqoriy qizil qon (kaliy ferritsianid) tuzi eritmasi quvida-gicha tayyorlanadi. 8 g kaliy ferritsianid ( $K_3Fe(CN)_6$ ) tortib olinadi va biroz distillangan suvda eritiladi. 28 g KON yoki 30 g NaOH kam miqdordagi suvda eritiladi. Ikki eritma  $1000 \text{ sm}^3$  hajmli o'lchov kolbaga solinadi distillangan suv bilan chizig'igacha yetkaziladi va yaxshilab aralashtiriladi. Tayyorlangan eritmani to'q rangli shisha idishida yoki qorong'ida kamida 1 kecha-kunduz saqlangandan keyin ishlatish mumkin.

Invert qandi asosiy standart eritmasi quvida-gicha tayyorlanadi. Analitik tarozida 0.001 g aniqlikda 7,6 g kimyoviy toza saxaroza yoki mayin maydalangan qand-rasfinad tortib olinadi va eksikatorda quruq kalsiy xlorid ustida quritish uchun 3 kecha-kunduz saqlanadi. Keyin 250

$\text{sm}^3$  gacha distillangan suvda eritib  $500 \text{ sm}^3$  hajmli o'Ichov kolbasiga quyiladi. Shu kolbani o'ziga  $20 \text{ sm}^3$  eritilmagan (zichligi 1,19) xlorid kislota o'Ichab solinadi. Kolba ichiga termometr kiritiladi va kolba taxminin  $80^\circ\text{C}$  gacha qizdirilgan suv hammomida o'rnatiladi. 2-3 minut davomida eritma harorati  $67-70^\circ\text{C}$  gacha yetkaziladi va shu haroratda 5 min saqlanadi.

Kolbadagi eritma tezda xona haroratigacha sovutiladi, 2-3 tomchi metiloranj tomiziladi va va 25 % li ishqor eritmasi bilan pushtisariq rang paydo bo'lguncha neytrallanadi. Shundan keyin eritmaning hajmi distillangan suv bilan kolbaning chizig'igacha yetkaziladi.

Tayyorlangan asosiy standart eritmaning  $1 \text{ sm}^3$  hajmida  $0,01 \text{ g}$  ( $10 \text{ mg}$ ) invert qandi (redutsiyalovchi qand mavjud).

#### Invert qandi ishchi standart eritmasi quyidagicha tayyorlanadi.

Asosiy standart eritmasining  $25 \text{ sm}^3$  miqdori  $250 \text{ sm}^3$  hajmli o'Ichov kolbaga o'tkaziladi va suyuqlikning hajmi distillangan suv bilan kolbaning chizig'igacha yetkaziladi va yaxshilab aralashtiriladi. Uning  $1 \text{ sm}^3$  hajmida  $0,0016 \text{ g}$  ( $1,6 \text{ mg}$ ) invert qandi (redutsiyalovchi qand mavjud).

«Quruq» tajribani o'tkazishdan maqsad  $\sim 25 \text{ sm}^3$  ishqoriy ferritsianid (qizil qon) eritmasini qaytaruvchi invert qandi ishchi eritmasining miqdorini aniqlashdan iborat.

Konussimon kolbaga uchi egilgan (Z-simon) byuretkadan (4-rasm)  $10,0 \text{ sm}^3$  invert qandi ishchi standart eritmasi, pipetka bilan  $25 \text{ sm}^3$  ishqoriy ferritsianid (qizil qon) eritmasi quyiladi. Aralashma 3-3,5 min davomida qaynaguncha yetkaziladi, 1 min (qum soat bo'yicha) qaynatiladi va qaynatishni to'xtamasdan 3 tomchi ko'k metilenning 1 % li eritmasi tomiziladi va uchi egilgan byuretkadagi invert qandi ishchi standart eritmasi bilan tomchilab ko'k rang yo'qolguncha titlanadi.

Oldingi ( $10 \text{ sm}^3$ ) va titrlashga sarflangan invert qandi ishchi standart eritmasining umumiy miqdori  $25 \text{ sm}^3$  ishqoriy ferritsianid (qizil

qon) eritmasini qaytaruvchi miqdor hisoblanadi. Bu natijasi qiymat keyingi tajribalarda hisobga olinadi.

### **Qandli pomadada redutsiyalovchi qandlar miqdorini aniqlash.**

Bu tajriba mahsulot o'lchanmasini o'lchov kolbaga o'tkazib eritma tayyorlash bilan yoki eritma tayyorlanmasdan bajarilishi mumkin.

O'lchanmani o'lchov kolbasida eritmaslik, ya'ni uning eritmasini tayyorlanmaslik uslubi noqand moddalarining cho'ktirishini talab qilmaydigan mahsulotlar uchun qo'llaniladi. Bunday mahsulotlarga qandli pomada taaluqli. Bunda o'lchanma massasi quyidagi formula bilan aniqlanadi

$$g = 1,6/p, \quad (11)$$

bu yerda  $g$  – o'lchanma massasi, g;

$r$  – mahsulotdagi redutsiyalovchi qandlarning taxminiy eng ko'p miqdori, % (pomada uchun 3-7 %).

Redutsiyalovchi moddalar miqdori qanchalik katta bo'lsa, o'lchanma massasi shunchalik kichik bo'ladi. Shuning uchun o'lchanmani torzion taroziga (5-rasm) 0,001 g aniqlikda qog'ozcha (20x20 mm) bilan tortib olish ma'qul. Ushbu o'lchanma qog'ozcha bilan reaksiya o'tkaziladigan kolbaga solinishi mumkin.

Olingan o'lchanma  $100 \text{ sm}^3$  hajmli konussimon kolbaga solinadi va ustidan pipetkalar yordamida  $10 \text{ sm}^3$  distillangan suv, pipetka bilan o'lchangani  $25 \text{ sm}^3$  ishqoriy ferritsianid (qizil qon) eritmasi quyiladi.

Aralashma 3-3,5 min davomida qaynaguncha yetkaziladi, 1 min (qum soat bo'yicha) qaynatiladi va qaynatishni to'xtamasdan 3 tomchi ko'k metilenning 1 % li eritmasi tomiziladi va uchi egilgan byuretkadagi invert qandi ishchi standart eritmasi bilan tomchilab ko'k rang yo'qolguncha titrlanadi.

Qandli pomadadagi redutsiyalovchi qandlarning (RQ) miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi

$$RQ = 1,6 \cdot (n-m) \cdot 100 \cdot K/g, \quad (12)$$

bu yerda n – «quruq tajriba»da  $25 \text{ sm}^3$  ferritsianid eritmasiga sarflangan invert qandi ishchi standart eritmasining miqdori,  $\text{sm}^3$ ;  
 m – tirlash uchun sarflangan invert qandi ishchi standart eritmasining miqdori,  $\text{sm}^3$ ;  
 K – tuzatish koefitsienti (pomada uchun – 0,91)  
 g – o‘lchanma massasi, g.

### **Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi**

«Quruq tajriba»da  $25 \text{ sm}^3$  ferritsianid eritmasiga sarflangan invert qandi ishchi standart eritmasining miqdori (n) \_\_\_\_\_  $\text{sm}^3$   
 Tirlash uchun sarflangan invert qandi ishchi standart eritmasining miqdori (m) \_\_\_\_\_  $\text{sm}^3$   
 O‘lchanma massasi (g) \_\_\_\_\_ g  
 Qandli pomadadagi redutsiyalovchi qandlarning miqdori (RQ) \_\_\_\_\_ %

### **Boshqa nomadalarda redutsiyalovchi qandlar miqdorini aniqlash.**

Bu mahsulotlarni tarkibida oqsillar, yog‘lar va boshqa noqand moddalar mavjudligi tufayli tajriba mahsulot o‘lchanmasini o‘lchov kolbaga o‘tkazib eritma tayyorlashni talab qiladi.

Bunda o‘lchanma massasi quyidagi formula bilan aniqlanadi

$$g = a \cdot V/p, \quad (13)$$

bu yerda g – o‘lchanma massasi, g;  
 a – ushbu uslub uchun  $100 \text{ sm}^3$  eritmada qandlarning eng muvofiq miqdori, g (0,16 g);  
 V – eritma tayyorlash uchun ishlatalidigan o‘lchov kolbaning hajmi,  $\text{sm}^3$ ;  
 p – mahsulotdagi redutsiyalovchi qandlarning taxminiy miqdori, % (pomada uchun 3-7 %);

Formula (13) bilan hisoblangan dastlab hovonchaga Mayin maydalangan o‘lchanma 0,001 g aniqlikda stakanchada tortib olinadi. O‘lchanmani

massasi 5 g ortiqroq bo'lganida, u 0.01 g aniqlikda tortib olinadi.

Stakandagi o'lchanma issiq suvda eritiladi va 13-formulada o'z aksini topgan 100-500 sm<sup>3</sup> hajmli o'lchov kolbaga o'tkaziladi. Bunda o'lchov kolbadagi suyuqlikni hajmi kolbaning yarim hajmidan oshmasligi kerak. O'lchov kolba 50-60 °C haroratga ega suv hammomida, vaqt-vaqt bilan chayqaltirib, 15 min saqlanadi. Bunday muddat va ishlov berish davomida mahsulotdagi barcha qandli moddalar eritmaga o'tadi.

Noqand moddalarni cho'ktirish uchun o'lchov kolbaga 10 sm<sup>3</sup> (o'lchanma 5 g gacha bo'lganda, undan ortiq bo'lganida 15 sm<sup>3</sup>) 1 mol/dm<sup>3</sup> rux sulfat eritmasi eritmasi solinadi va yaxshilab aralashtiriladi. Keyin 10 (15) sm<sup>3</sup> natriy yoki kaliyning 1 mol/dm<sup>3</sup> gidrooksidining eritmasi solinib yana aralashtiriladi. Bundan keyin suyuqlikning hajmi kolbaning chizig'igacha yetkaziladi va yana yaxshilab aralashtiriladi. Shundan keyin eritma quruq kolbaga filtrlanadi. Filtratning birinchi tomchilari tashlanadi. Olingan filtrat barcha hollarda tiniq bo'lishi kerak.

Mahsulotda redutsiyalovchi moddalar miqdorini aniqlash uchun 100 sm<sup>3</sup> hajmli konussimon kolbaga tayyorlangan eritmadan 10 sm<sup>3</sup> solinadi va ustidan pipetka bilan o'lchang'an 25 sm<sup>3</sup> ishqoriy ferritsianid (qizil qon) eritmasi quylidi.

Aralashma 3-3,5 min davomida elektroplitka ustidagi asbest bilan aylana shaklida qoplanagan simto'rga qo'yib qaynaguncha yetkaziladi, 1 min (qum soat bo'yicha) qaynatiladi va qaynatishni to'xtamasdan 3 tomchi ko'k metilenning 1 % li eritmasi tomiziladi va uchi egilgan byuretkadagi invert qandi ishchi standart eritmasi bilan tomchilab ko'k rang yo'qolguncha titrlanadi.

Sutli, qaymoqli, krembryuleli pomadadagi redutsiyalovchi qandlarning (RQ) miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi

$$RQ = 1,6 \cdot (n-m) \cdot V_1 \cdot 100 \cdot K / V_2 \cdot g, \quad (14)$$

bu yerda n - «quruq tajriba»da 25 sm<sup>3</sup> ferritsianid eritmasiga sarf-

- langan invert qandi ishchi standart eritmasining miqdori, sm<sup>3</sup>;
- m – tirtlash uchun sarflangan invert qandi ishchi standart eritmasining miqdori, sm<sup>3</sup>;
- V<sub>1</sub> – mahsulot eritmasini tayyorlash uchun ishlatalgan kolbaning hajmi, sm<sup>3</sup>;
- V<sub>2</sub> – reaksiya o'tkazish uchun olingan mahsulot eritmasining hajmi, sm<sup>3</sup>;
- K – tuzatish koeffitsienti (pomada uchun – 0,91);
- g – o'lchanma massasi, g.
- 1,6 – 1 sm<sup>3</sup> invert qandi ishchi standart eritmasidagi invert qandining miqdori, mg.

#### **Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi**

«Quruq tajriba»da 25 sm <sup>3</sup> ferritsianid eritmasiga sarflangan invert qandi ishchi standart eritmasining miqdori (n)	_____ sm <sup>3</sup>
Titrlash uchun sarflangan invert qandi ishchi standart eritmasining miqdori (m)	_____ sm <sup>3</sup>
O'lchanma massasi (g)	_____ g
Mahsulot eritmasini tayyorlash uchun ishlatalgan kolbaning hajmi (V <sub>1</sub> )	_____ sm <sup>3</sup>
Reaksiya o'tkazish uchun olingan mahsulot eritmasining hajmi (V <sub>2</sub> )	_____ sm <sup>3</sup>
Pomadalardagi redutsiyalovchi qndlarning miqdori (RQ)	_____ %

Barcha variantlar asosida tayyorlangan marmeladning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'rsatkichlari umumiy jadvalga kiritiladi va taqqoslanib xulosa chiqariladi.

### Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi

Pomadaning turi (nomi)	Pomadaning sifatini baholash					
	Qiyomni qayna- tish oxiridagi	Qiyomni kuvlashdan oldingi ha-rorati, °S	Suyuq va qattiq fazalarining nisbati	Namligi, %	Redutsiyalovchi moddalar miqdo-ri,	Ta'mi va hidj
Qandi						
Sutli						
Qaymoqli						
Krem- bryuleli						
Xulosa						

### Talabanining mustaqil ishi

3-laboratoriya ishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida talaba ma'ruzalar matnidan «Pomada va turli konfet massalarini tayyorlash» mavzularini va uslubiy qo'rsatmalardagi ushbu tajriba ishiga tegishli «Asosiy nazariy tushunchalar» bo'limini o'zlashtirishi, laboratoriya qaydnomasini rasmiylashtirishi; quyida keltirilgan savollardan foydalanib nazariy qismni o'zlashtirish darajasini tekshirishi kerak.

#### Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Pomada massalari tayyorlash uchun asosan qaysi xom ashyolardan foydalanildi?
2. Qanay mahsulot pomada deb ataladi? Pomada massasi va pomadali konfet massasi orasidagi farq nimadan iborat?
3. Pomadaning qanday turlari mavjud?
4. Pomadaning sifati qaysi omillarga bog'liq?

5. Pomadaning organoleptik sifat ko'rsatkichlarining tavsisini keltiringi.
6. Pomadaning namligi qanday aniqlanadi?
7. Pomada suyuq fazasining miqdori qanday aniqlanadi?
8. Pomadaning qattiq fazasi miqdori, suyuq va qattiq fazalarning nisbati qanday aniqlanadi?
9. Pomada qattiq fazasi kristallarining o'chamlari qaysi omillarga bog'liq?
10. Pomadaning konsistensiyasi qaysi omillarga bog'liq?
11. Ferrotsianid usulida pomadalardagi redutsiyalovchi qandlarning miqdori qanday aniqlanadi?

### **Laboratoriya ishga oid diagnostik testlar**

#### **1.Konfetlar ko'pgina qaysi konsistensiyaga ega**

- A) yumshoq
- B) qattiq
- C) jelesimon
- D) suyuq

#### **2.Tayyorlash va ishlov berilishiga qarab konfetlar qaysi guruhlarga bo'linadi**

- A) sirlanmagan, sirlangan (sir bilan to'la yoki chala qoplangan), shokoladli masalliqli turli shakldagi va yuzasiga naqshlar tushirilgan («Assorti»), shakar kukuni sepilgan va shunga o'xshash xillarga
- B) sirlanmagan, sirlangan (sir bilan to'la yoki chala qoplangan)
- C) shokoladli masalliqli turli shakldagi va yuzasiga naqshlar tushirilgan («Assorti»)
- D) sirlanmagan, sirlangan, shakar kukuni sepilgan va shunga o'xshash xillarga

#### **3.Konfet korpuslarini tayyorlashda karab qaysi guruhlarga bo'linadi**

- A) pomadali, sutli, mevali, jeleli-mevali, jeleli, quvlangan, kreml, pralineli, marsipanli, grilyajli, likyorli, shokoladli

- B) pomadali, sutli, mevali, jeleli-mevali, jeleli, quvlangan  
C) kremlili, pralineli, marsipanli  
D) grilyajli, likyorli, shokoladli

**4.Qaysi javobda pomadali konfet korpuslarini ta'rif to'g'ri berilgan**

- A) (mayda kristalli massa), shakar va patokadan turli ta'm beruvchi va xushbo'y moddalar (sut, meva-rezavor yarim tayyor mahsulotlari va shunga o'xshashlar) qo'shib tayyorlanadi  
B) (qattiq, mo'rt massa), shakar, yong'oqlarning bo'laklari, meva-rezavor yarim tayyor mahsulotlarga ta'm beruvchi va xushbo'y komponentlarni qo'shib tayyorlanadi  
C) (suyuq yoki qisman kristallangan qiyomsimon massa), shakar-dan spirtlik ichimliklarni qo'shib yoki qo'shmay, meva-rezavor yarim tayyor mahsulotlar va boshqa ta'm beruvchi va xushbo'y moddalar qo'shib tayyorlanadi  
D) (mayin maydalangan massa). shakar, kakao mahsulotlariga sut, yong'oq, yog' va boshqa ta'm beruvchi va xushbo'y komponentlar qo'shib tayyorlanadi.

**5.Qaysi javobda sutli konfet massasi ta'rif to'g'ri berilgan**

- A) shakar, sut va patokadan tashkil topgan, sariyog', ezilgan yong'oq, meva-rezavor yarim tayyor masulotlari va shunga o'xshashlar qo'shib tayyorlangan. qisman yoki to'liq kristallangan konsistensiyaga ega bo'lgan massaga tushuniladi.  
B) jele hosil qiluvchi o'rik pyuresi asosida, ko'pincha olxo'ri va boshqa danakli mevalardan tayyorlangan pyurelar, hamda olma pyuresi qo'shib tayyorlanadi.  
C) konfet massalari shakar-agar-patoka qiyomidan hosil bo'lgan pardal bilan o'ralgan mayda bir xil taqsimlangan havo pufakchalaridan iborat ekanligi tufayli, ular ko'pixsimon strukturaga ega.  
D) filtrlangan agar eritmasi qaynatish qozoniga solinadi, shakar va patoka qo'shiladi va olingan shakar-agar-patoka qiyomi quruq moddalar miqdori

75-83 % bo'lguncha qaynatiladi.

**6.Sutli konfet massasining quruq moddalarning miqdori**

- A) 89-90 %,
- B) 80-82%
- C) 83-85%
- D) 85-88%

**7.Tayyorlangan sutli konfet massanining harorati**

- A) 110-115 °C
- B) 115-120°C
- C) 120-125°C
- D) 108-110°C

**8.Sutli konfet massasining redutsiyalovchi moddalari**

- A) 9-9,5 %.
- B) 10,5-11,0%.
- C) 11,5-12,0%.
- D) 12,5-13,0%.

**9.Konfet korpuslariga shakl berishning necha usul qo'llaniladi**

- A) 4
- B) 2
- C) 3
- D) 5

**10.Konfet korpuslariga shakl berishning qaysi usullar qo'llaniladi**

- A) quyish, surkash, yoyish va presslash
- B) quyish, surkash
- C) yoyish va presslash
- D) to'g'ri javob yo'q

## 4-LABORATORIYA ISHI

### KARAMELSIMON VA TIRAJLANGAN IRIS TAYYORLASH VA SIFATINI ANIQLASH

#### **Ishdan maqsad**

Laboratoriya sharoitida karamelsimon va tarijlangan iris tayyorlashni o'rganish va sifatini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Talabalar tajriba ishini bajarish natijasida karamelsimon va tirajlangan irislarning tayyorlash, ularning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.

#### **Ishning mazmuni**

1. Karamelsimon «Oltin kalitcha» iris namunasini tayyorlash.
2. Tirajlangan yarim qattiq «Era» iris namunasini tayyorlash.
3. Tirajlangan yumshoq «Yangi» iris namunasini tayyorlash.
4. Tirajlangan chuziluvchan «Qaymoqli» iris namunasini tayyorlash.
5. Irisning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash.

#### **Kerakli xom ashyolar, jihozlar va kimyoviy reaktivlar:**

- xom ashyolar: quyultirilgan sut, sariyog', patoka, shakar, qovurilgan yong'oq, vanilin, iris essensiyasi, dekstrin, jelatin, ichimlik suvi;
- jihozlar va idishlar: elektr plita; СЭЛШ-3М quritish shkafi, texnik tarozi, refraktometr УРЛ, Sokslet apparati, aluminiy idishlar, byukslar, kimyoviy stakanlar, o'lchov kolbalar va silindrlar, konussimon kolbalar, pipetkalar, chinni idishlar, hovonchalar, shpatellar;
- kimyoviy reaktivlar: xlorid kislota (zichligi 1,19), natriy gidrooksidning 25-30 % li va  $0,1 \text{ mol/dm}^3$  eritmalar, kaliy-natriy tartrat –  $\text{KNaC}_4\text{O}_8 \cdot 4 \text{ H}_2\text{O}$ , mis sulfat eritmalar, 1 % li fenolstalein va ko'k metilen eritmalar, kimyoviy toza saxaroza, distillangan suv, xloroform yoki tetraxlormetan erituvchilar.

## ASOSIY NAZARIY TUSHUNCHALAR

Iris - shakar va patokadan, sut yoki oqsilga boy mahsulotlardan (soya va shunga o'xshashlar), yog'lar, ko'pincha sariyog' va margarin qo'shib, jelatin massasi solib yoki solmasdan qaynatib quyultirish yo'li bilan tayyorlangan qandolat mahsulotidir.

Iris massasiga ta'm beruvchi qo'shimchalar sifatida ezilgan va maydalangan yong'oqlar, meva-rezavor yarim tayyor mahsulotlar, yog'li urug'lar va boshqalar qo'shiladi. Masalliqli iris ishlab chiqarish ham standart tomonidan ko'zda tutilgan.

Tayyorlash texnologiyasi va massaning strukturasiga qarab iris beshta asosiy turga bo'linadi:

- karamelsimon - massasi qattiq, amorf strukturali, quruq moddalarning miqdori kamida 94 %;
- tirajlangan yarim qattiq - amorf strukturali massada shakarning mayda kristallari bir tekis tarqalgan, quruq moddalarning miqdori kamida 94 %;
- tirajlangan yumshoq - shakar kristallari bir tekis tarqalgan yumshoq massa, quruq moddalarning miqdori kamida 91 %;
- yarim qattiq - amorf strukturali qovushqoq massa, quruq moddalarning miqdori kamida 91 %;
- tirajlangan cho'ziluvchan - jelatin qo'shilgan, shakarning mayda kristallari bir tekis tarqalgan yumshoq cho'ziluvchan massa, quruq moddalarning miqdori kamida 90 %.

Oqsil asosiga qarab iris sutli va soyalilarga bo'linadi.

Turli xil iris ishlab chiqarish texnologiyasining bir qator o'ziga xos xususiyatlari bor. Biroq barcha turdag'i irislarni ishlab chiqarish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlardan iborat: sutli aralashmani tayyorlash; iris massasini tayyorlash; shakl berish; o'rash va joylash.

Shakarni, patokani, sutni, yog'ni ishlab chiqarishga tayyorlash, ularni boshqa turdag'i qandolat mahsulotlari uchun tayyorlashdan farq

qilmaydi.

Tayyor irisning fizik-kimyoviy sifat ko'rsatkichlariga quyidagi talablar qo'yiladi.

Namligi -karamelsimon va tirajlangan yarim qattiq irisniki -6, yarim qattiq, tirajlangan yumshoq, tirajlangan cho'ziluvchan kislotaliniki - 9 % dan, tirajlangan cho'ziluvchan kislotasizniki - 10 % dan oshmasligi kerak.

Redutsiyalovchi moddalarning miqdori – karamelsimon, tirajlangan yarim qattiq, yarim qattiq, tirajlangan yumshoq, tirajlangan cho'ziluvchan kislotasiz irisda 17% dan, tirajlangan cho'ziluvchan kislotaliniki – 22 % dan oshmasligi kerak.

Yog'ning miqdori - – karamelsimon irisda 8,2 % dan, tirajlangan yarim qattiq, yarim qattiq, tirajlangan yumshoq, tirajlangan cho'ziluvchan kislotasiz irisda – 7% dan, tirajlangan cho'ziluvchan kislotaliga – 4 % dan kam bo'lmasligi kerak.

Kislotaliligi - tirajlangan cho'ziluvchan kislotali irisda – 11 gradusdan kam bo'lmasligi lozim.

## TADQIQOT QISMI

### Ishni bajarish tartibi

Talabalar guruhchalarga bo'linib o'qituvchi topshirig'iga binoan qo'yida keltirilgan variantlarning biri bo'yicha ishni bajaradilar:

- variant 1 – karamelsimon «Oltin kalitcha» iris namunasini tayyorlash;
- variant 2 – tirajlangan yarim qattiq «Era» iris namunasini tayyorlash;
- variant 3 – tirajlangan yumshoq «Yangi» iris namunasini tayyorlash;
- variant 4 – tirajlangan cho'ziluvchan «Qaymoqli» iris namunasini tayyorlash.

Ishchi retseptura tuziladi, retseptura bo'yicha barcha kerakli xom

ashyolar o'lcab olinadi, alohida variant bo'yicha ishni bajarish uchun kerakli barcha idishlar va laboratoriya jihozlari tanlab olinadi;

Uslubga aniq riosa qilgan holda alohida variant bo'yicha mahsulot tayyorlanadi.

Tayyorlangan mahsulotlar GOST 6478-89 talablariga ko'ra organoleptik usulda baholanadi va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Barcha kuzatishlar va aniqlashlarning natijalari laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

### Iris namunalarini tayyorlash

Karamelsimon «Oltin kalitcha» iris namunasini tayyorlash.

Karamelsimon «Oltin kalitcha» iris namunasi uchun tasdiqlangan retseptura asosida laboratoriya sharoitida 300 g iris tayyorlash uchun ishchi retseptura hisoblanadi (18-jadval).

**18-jadval**

Xom ashyolar	Quruq moddalarning miqdori, %	1 t «Oltin kalitcha» iris ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		300 g «Oltin kalitcha» iris tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
<b>Yarim tayyor mahsulotlardan olinadigan irisning retsepturasi:</b>					
		1 t uchun		300 g uchun	
Sutli aralashma	78,0	1156,2	901,8	346,9	270,6
Sariyog'	84,0	45,1	37,9	13,5	11,4
Essensiya	-	1,0	-	0,3	-
Jami	-	1202,3	939,7	360,7	282,0
Chiqishi	93,5	1000,0	935	300,0	280,5
<b>Yarim tayyor mahsulot retsepturasi – sutli aralashma</b>					
		1156,2 kg uchun		346,9 g uchun	
Quyutirilgan sut	74,0	449,5	332,6		
Shakar	99,85	347,1	346,6	Hisoblash	

holda iris massasiga nisbatan 0,5 % miqdorda shakar kukuni solinadi va yaxshilab aralashtiriladi. Bunda iris massasida saxaroza kritallarining uzaklari, keyinchalik ulardan shakar kristallari bosil bo'lib, mayin kristallangan, ya'ni tirajlangan iris olinadi.

Tayyorlangan massa idishdan dastlab yuzasi o'simlik moyi bilan surtilgan marmar tosh ustiga quyiladi va vanilin qo'shiladi. Massa-ning 55-60 °C sovutish jarayonida qatlam o'raladi va yaxshigina eziladi. Bunda vanilin va boshqa qo'shimchalarining birtekis taqsimlanishi ta'minlanadi.

**Irisga shakl berish.** Laboratoriya sharoitida sovutilgan plastik iris massasi qalinligi 20-25 mm bo'lgan tekis qatlam shaklida yoyiladi va pichoq bilan alohida to'rtburchak shakl berib kesiladi yoki bovliq shakli beriladi va u qaychi bilan to'rtburchak qilib kesiladi.

Tayyor irisning chiqishini aniqlash uchun u tarozida tortiladi.

Bunda qo'shilgan iris qoldiqlari yoki shakar kukunining massasi hisobga olinadi.

Irisning sisati organoleptik usulda baholanadi va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

#### *Tirajlangan yumshoq «Yangi» iris namunasini tayyorlash.*

Tirajlangan yumshoq «Yangi» iris namunasi uchun tasdiqlangan retseptura asosida laboratoriya sharoitida 300 g iris tayyorlash uchun ishchi retseptura hisoblanadi (20-jadval).

20-jadval

Xom ashyolar	Quruq moddalarning miqdori, %	1 t «Yangi» iris ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		300 g «Yangi» iris tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
Yarim tayyor mahsulotlardan olinadigan irisning retsepturasi:					
Sutli aralashma	78,0	1145,2	893,2	343,6	268,0
Sariyog*	84,0	45,1	37,9	13,5	11,4

Shakar kukuni	99,85	8,6	8,6	2,6	2,6
Essensiya	-	1,0	-	0,3	-
Jami	-	1199,9	939,7	366,2	282,0
Chiqishi	93,5	1000,0	955,0	300,0	280,5
Yarim tayyor mahsulot retsepturası – sutli aralashma					
	1145,2 kg uchun			343,6 g uchun	
Quyultirilgan sut	74,0	450,7	333,5	Hisoblash yo'li bilan aniqlanadi	
Shakar	99,85	270,4	270,0		
Patoka	78,0	234,3	182,8		
Jami	-	955,4	786,3		
Chiqishi	78,0	1145,2	893,2	343,6	268,0

**Sutli aralashma tayyorlash.** Aluminiy idishga ishchi retsepturaga ko'rsatilgan shakar miqdori solinadi va ustidan shakar massasiga nisbatan 30 % suv qo'shiladi. Idish qizdirilgan elektr plitkasiga qo'yiladi va aralashtirib turib shakar to'liq eritiladi.

Keyin retseptura bo'yicha tarozida tortib olingan quyultirilgan sut va patoka solinadi va aralashtirildi.

**Iris massasini tayyorlash.** Sutli aralashma aralashtirib turgan holda qaynatiladi va harorati 120 °C gacha yetkaziladi. Shunda retsep-turada ko'rsatilgan sariyog' miqdori qo'shiladi va aralashtirib turib quyultirish massaning harorati 122 °C gacha yetguncha davom ettiriladi. Shundan keyin idish elektr plitkasidan tushiriladi va iris massasiga iris massasiga nisbatan retsepturada ko'rsatilgan miqdorda shakar kukuni solinadi va yaxshilab aralashtiriladi. Bunda iris massasida saxaroza kritallarining uzaklari, keyinchalik ulardan shakar kristallari hosil bo'lib, mayin kristallangan, ya'ni tirajlangan iris olinadi.

Tayyorlangan massa idishdan dastlab yuzasi o'simlik moyi bilan surtilgan marmar tosh ustiga quyiladi va vanilin qo'shiladi. Massa-ning 55-60 °C sovutish jarayonida qatlam o'raladi va yaxshigina eziladi. Bunda vanilin va boshqa qo'shimchalarning birtekis taqsimlanishi ta'minlanadi.

**Irisga shakl berish.** Laboratoriya sharoitida sovutilgan plastik iris

massasi qalnligi 20-25 mm bo'lgan tekis qatlama shaklida yoyiladi va pichoq bilan alohida to'rtburchak shakl berib kesiladi yoki bovliq shakli beriladi va u qaychi bilan to'rtburchak qilib kesiladi.

Tayyor irisning chiqishini aniqlash uchun u tarozida tortiladi.

Irisning sisati organoleptik usulda baholanadi va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

*Tirajlangan cho'ziluvchan «Qaymoqli» iris namunasini tayyorlash.* Tirajlangan cho'ziluvchan «Qaymoqli» iris namunasi uchun tasdiqlangan retseptura asosida laboratoriya sharoitida 300 g iris tayyorlash uchun ishchi retseptura hisoblanadi (21-jadval).

*Jelatin massasini tayyorlash.* Buning uchun retsepturada ko'rsatilgan jelatinga ikki qism suv qo'shiladi va 2 soat davomida bo'kish uchun qoldiriladi. Keyin 60 °C haroratda aralashtirib turgan holda jelatin eritiladi. Eritmaga shu haroratni saqlab turgan holda dekstrin, glitserin va patoka qo'shiladi va yaxshilab aralashtiriladi.

*Sutli aralashma tayyorlash.* Aluminiy idishga ishchi retsepturaga ko'rsatilgan shakar miqdori solinadi va ustidan shakar massasiga nisbatan 30 % suv qo'shiladi. Idish qizdirilgan elektr plitkasiga qo'yiladi va aralashtirib turib shakar to'liq eritiladi.

Keyin retseptura bo'yicha tarozida tortib olingan quyultirilgan sut va patoka solinadi va aralashtirildi.

### 21-jadval

Xom ashyolar	Quruq moddalarining miqdori, %	1 t «Qaymoqli» iris ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		300 g «Qaymoqli» iris tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
Yarim tayyor mahsulotlardan olinadigan irisning retsepturasi:					

	1 t uchun		300 g uchun	
	Sutli aralashma	Sariyog*		
Sariyog*	78,0	1145,2	893,2	343,6
Shakar kukuni	84,0	45,1	37,9	13,5
Essensiya	99,85	8,6	8,6	2,6
	-	1,0	-	0,3

Jami	-	1199,9	939,7	366,2	282,0
Chiqishi	93,5	1000,0	955,0	300,0	280,5
Yarim tayyor mahsulot retsepturasi – sutli aralashma 1145,2 kg uchun 343,6 g uchun					
Quvultirilgan sut	74,0	450,7	333,5		
Shakar	99,85	270,4	270,0		
Patoka	78,0	234,3	182,8		
Jami	-	955,4	786,3		
Chiqishi	78,0	1145,2	893,2	343,6	268,0

*Iris massasini tayyorlash.* Sutli aralashma aralashtirib turgan holda qaynatiladi va harorati 120 °C gacha yetkaziladi. Shunda retsepturada ko'rsatilgan sariyog' miqdori qo'shiladi va aralashtirib turib quyultirish massaniing harorati 126 °C gacha yetguncha davom ettiriladi.

Tayyorlangan massa idishdan dastlab yuzasi o'simlik moyi bilan surtilgan marmar tosh ustiga quyiladi va vanilin qo'shiladi. Massanining 55-60 °C sovutish jarayonida qatlam o'raladi va yaxshigina eziladi. Bunda vanilin va boshqa qo'shimchalarining birtekis taqsimlanishi ta'minlanadi.

*Irisga shakl berish.* Laboratoriya sharoitida sovutilgan plastik iris massasiga bovliq shakli beriladi va u qaychi bilan to'rtburchak qilib kesiladi.

Tayyor irisning chiqishini aniqlash uchun u tarozida tortiladi.

Irisning sifati organoleptik usulda baholanadi va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

#### **Irisning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'rsatkichlarini aniqlash**

*Irisning organoleptik sifat ko'rsatkichlarini baholash.* Irisni organoleptik baholashdan uning rangi, ta'mi va hidi, konsistensiyasi, strukturasi va tashqi ko'rinishi (yuzasi, shakli)ga e'tibor beriladi.

Rangi och jigaridan to'q jigarigacha, tirajlangan iris uchun turlicha (oq, to'q-sariq, jigari va boshqalar).

Irisning ta'mi va hidi - aniq ifodalangan, har bir nomlanishdag'i iris

uchun mos, tirajlangan kislotali cho'ziluvchan irisning ta'mi nordon bo'lishi kerak. Irisning konsistensiyasi - karamelsimon iris uchun qattiq, tirajlangan yarim qattiq iris uchun - yarim qattiq, tirajlangan yumshoq iris uchun - yumshoq, yarim qattiq iris uchun yarim qattiq qovushqoq, tirajlangan cho'zuluvchan iris uchun - yumshoq, cho'ziluvchan bo'lishi kerak. Hamma turdag'i irislarda massa bir tekis, zich bo'lishi kerak. Irisning strukturasi - karamelsimon va yarim qattiq iris uchun amorf; tirajlangan yarim qattiq va cho'ziluvchan iris uchun amorf, shakarning mayda kristallari bir xil taqsimlangan; tirajlangan yumshoq iris uchun - mayda kristalli, shakar kristallari bir tekis taqsimlangan bo'lishi lozim. Irisning yuzasi - quruq, yopishmaydigan, aniq rasmli bo'lishi lozim. Irisning shakli turlicha (to'g'riburchakli, rombsimon va boshqalar), qalinligi 5 mm dan 14 mm gacha bo'lishi mumkin.

### Baholash natijalari laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

#### Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi

Mahsulotning nomi \_\_\_\_\_

Ta'mi \_\_\_\_\_

Hidi \_\_\_\_\_

Rangi \_\_\_\_\_

Shakli \_\_\_\_\_

Yuzasining holati \_\_\_\_\_

Konsistensiyasi \_\_\_\_\_

Strukturasi \_\_\_\_\_

Xulosa \_\_\_\_\_

**Irisning namligini aniqlash.** Irisning namligi tezlashtirilgan usulda quritish yo'li bilan aniqlanadi. Buning uchun ichiga dastlab yuvilgan va quritilgan qum, shisha tayoqcha solingan byuks 0,001 g aniqlikda tarozida tortib olinadi.

Byuksga shu aniqlikda olingan 2-3 g halvoning o'lchanmasi

solinadi. Bunda qumning miqdori o'chanmadan 6-8 marta ko'proq bo'lishi ma'qul. Agar mahsulot qovushqoq bo'lsa va qum bilan qo'shganda yaxshi aralashmasa, byuksga 0,5-1 ml distillangan suv solinadi va suv hammomida shisha tayoqcha bilan quriguncha aralashtiriladi.

Mahsulot o'chanmasi CЭШ-3М rusumli quritish shkaflarida (7-rasm)  $130 \pm 2^{\circ}\text{C}$  haroratda 50 min quritiladi. Byuks quritish jarayoni tugagandan keyin og'zi yopiq holatda 30 min mobaynida eksikatorga qo'yiladi. Keyin og'zi zichlab yopiladi va massasi o'chanadi.

Foizlarda ifodalangan mahsulotning namligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$W_h = (a - v) \cdot 100 / m , \quad (15)$$

bu yerda  $a$  – byuksning o'chanma bilan quritilguncha massasi, g;

$v$  – byuksning o'chanma bilan quritishdan keyingi massasi, g;

$m$  – mahsulot o'chanmasining massasi, g.

Olingen natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

### Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi

Byuksning (qum, shisha tayoqcha va o'chanma bilan)

quritishdan oldingi massasi ( $a$ ) \_\_\_\_\_ g

Byuksning (qum, shisha tayoqcha va o'chanma bilan)

quritishdan keyingi massasi ( $v$ ) \_\_\_\_\_ g

Mahsulot o'chanmasining massasi( $m$ ) \_\_\_\_\_ g

Mahsulotning namligi ( $W_h$ ) \_\_\_\_\_ %

Xulosa \_\_\_\_\_

### Irisda redutsiyalovchi qandlar miqdorini aniqlash.

Tajriba Leyn va Eynon tavsiya qilingan uslubga binoan bajari-ladi. Bu uslub ishqoriy mis eritmasini invert qandi eritmasi bilan titrash yo'li orqali redutsiyalovchi qandlar miqdorini aniqlashni ko'zda tutadi. Uslubning to'liq mazmuni 2-laboratoriya ishida keltirilgan. Bu uslubga roya qilingan holda irisda redutsiyalovchi qandlarning miqdori

aniqlanadi. Irisdag'i redutsiyalovchi qandlarning miqdori 9-formula bilan hisoblanadi.

Olingen natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi

«Quruq tajriba»da  $20 \text{ sm}^3$  Feling eritmasiga sarflangan

invert qandi standart eritmasining miqdori (n) \_\_\_\_\_  $\text{sm}^3$

Titrlash uchun sarflangan invert qandi standart

ritmasining miqdori (m) \_\_\_\_\_  $\text{sm}^3$

O'lchanma massasi (g) \_\_\_\_\_ g


Marmeladagi redutsiyalovchi qandlarning  
miqdori (RQ) \_\_\_\_\_ %

### *Irisda yog' miqdorini aniqlash.*

Qandolat mahsulotlarida yog' miqdorini aniqlash uchun ulardan yog'ni ajratash uchun organik erituvchilar qo'llaniladi. Bunda na faqat yog'lar-ning o'zi, balki erituvchiga eruvchi boshqa moddalar ham ajraladi (yog' kislotalari, organik kislotalar va boshqalar). Shuning uchun ajaritalgan moddalar «ho'l yog'» deb nomланади.

Tajriba natijalarining aniqroq-ligini oshirish uchun qaynash harorati pastroq bo'lgan erituvchilar qo'llanilishi tavsiya qilinidi. Bu erituvchilarda boshqa moddalar kamroq yukki umumanerimaydi. Erituvchi sifatida xloroform va tetraxlormetanni qo'llash maqsadga muvofiq. Ularning qaynat harorati mos tarzda  $61.2$  va  $71.5^\circ\text{C}$

ni tashkil qiladi.



6-rasm. Soxhlet aparati

1-qabul kolbasti, 2-ekstraktor, 3-sovtigich, 4-ekstraktorming naychasi, 5-tadqiq qilinayotgan mahsulot solingen patron.  
6-sifon.

mos tarzda  $61.2$  va  $71.5^\circ\text{C}$

ni tashkil qiladi.

*Sokslet apparatida ekstraksiya yo‘li bilan yog‘ miqdorini aniqlash.*

Sokslet apparata qabul kolbasi 1, ekstraktor 2 va sovutgich 3 dan iborat (6-rasm).

Qizdirish jarayonida erituvchining bug‘i kolba 1 dan erkin holda naycha 4 orqali sovutgichga o‘tadi. Sovutgichda u kondensatsiyalanada va erituvchining topchilari ekstraktorda joylaygan va ichiga mahsulot solingan patronga tushadi. Estraktorda to‘plangan erituvchi patrondagi mahsulotning yog‘ini eritib oladi. Yog‘ni eritib olgan erituvchining sathi sifon 6 ning qayrilgan joyidan oshganda u sifon orqali qabul kolbasiga birdaniga o‘tadi.

Erituvchi yana bug‘lanadi va bu jarayon ko‘p marotaba takrorlanadi. Ajratib olingen yog‘ qabul kolbasida to‘planadi.

Tadqiq qilinayotgan mahsulotning o‘lchanmasi joylashgan patron filtr qog‘ozidan quyidagicha tayyorlanadi.

To‘rtburchak shakldagi filtr qog‘ozi mos o‘lchamga ega naychaga 3-4 marotaba shunday o‘raladiki, qog‘oz naychaning uchidan uning diametriga teng masofada chiqib tursin.

Qog‘ozning bu qismini egilgandan va naycha bilan bosgandan keyin patronning tubi hosil bo‘ladi. Patron naychadan olinadi va uning ichiga mahsulot o‘lchanmasi solinadi. Patronning balandligi sifonning balandligidan 10-15 mm pastroq bo‘lishi kerak.

Tajribani bajariy uchun reaktiv sifatida 1,19 nisbiy zinchlikka ega xlorid kislotasi va erituvchi sifatida xloroform yoki tetraxlormetan qo‘llaniladi.

Mahsulotning o‘lchanmasi 0,01 g aniqlida kimyoviy stakanda tarozida tortib olinadi. O‘lchanma tarkibida 1-2 g yog‘ mavjud bo‘lishini nazarda tutib uning massasini (5-10 g) hisoblash kerak. O‘lchanma solingan stakanga 15-20 sm<sup>3</sup> distillangan suv, 20 sm<sup>3</sup> xlorid kislota quyiladi va shishi tayoqcha bilan aralashtiriladi. Stakan soat shishasi bilan yopiladi va qaynatayotgan suv hammomida 5 minut qo‘yiladi. Soat

shishasi distillangan suv bilan stakan ustida chayqaladi.

Voronka ichida filtr qog'ozni taxlanadi, filtr distillangan suv bilan namlanadi. stakan ichidagi narsa filtrga o'tkaziladi va kamida 4 marotaba issiq distillangan suv bilan yuviladi. Filtr doimo suv bilan bo'lishi kerak, shuning uchun yuviladigan suv tamom bo'lishi bilan navbatdagi suv miqdori qo'yiladi. Yuvilgan filtr voronkadan olinadi, byuksaga qo'yiladi va doimiy massagacha quritiladi.

O'lchanma bilan quritilgan filtr patronga solinadi, patronning tubida mavjud teshikchalar dastlab paxta bilan yopiladi. Patron ekstraktorga jaoylanadi. Qabul kolbasi dastlab quritiladi va 0,01 ganiqlikda tarozida tortiladi. Dastlab erituvchi bilan quritish uchun qo'llangan byuksa chayqalib kolbaga solinadi va kolba erituvchi bilan to'ldiriladi. Erituvchining miqdori ekstraktoring sifoni qayrilgan joyigacha bo'lgan 10't karrali hajmidan 1,5 marotaba ko'proq bo'lishi kerak.

Kolba ekstraktor va sovutgich bilan zinch birkitiladi va suv hammomigi joylanadi. Suv hammomini qizdirish uchun yupiq elektr plitkadan foydalanish tavsiya etiladi. Ekstraksiyalash o'lchanmani kislota bilan ishlov berilganda kamida 3,5 soat, ishlov bermaganda 5 soat davom etadi.

Ekstraksiyaning oxirini aniqlash uchun ekstraktordan 1-2 sm<sup>3</sup> suyuqlik soat shishasiga yoki filtr qog'oziga o'tkaziladi va bug'lanadi. Agar shisha tiniq bo'lsa, yoki filtr qog'ozda dog' qolmasa, u holda ekstraksiyani tugatish mumkin. Aks holda ekstraksiya davom ettiriladi.

Ekstraksiyani tugatdan keyin kolba ekstraktor va sovutgichdan ajraladi. Ichidagi erituvchi gorizontal sovutgichdan foydalanib haydalanidi. Shundan keyin kolba qaynatayotgan suv hammomiga qo'yiladi va erituvchining qoldig'i haydaladi. Sovutilgan kolba 0,01 g aniqqlikda tarozida tortiladi.

Tadqiq qilinayotgan mahsulotdagi yog'ning miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi

$$X = (a-b) \cdot 100/g, \quad (16)$$

bu yerda X – tadqiq qilinayotgan mahsulotdagi yog‘ miqdori, %;  
 a – ichida yog‘ mavjud bo‘lgan qabul kolbaning massasi, g;  
 b – yog‘siz qabul kolbaning massasi, g;  
 g - o‘lchanmaning massasi, g.

Olingen natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

### **Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi**

Mahsulotning nomi \_\_\_\_\_

Ichida yog‘ mavjud bo‘lgan qabul kolbaning massasi (a) \_\_\_\_\_ g

Yog‘siz qabul kolbaning massasi (b) \_\_\_\_\_ g

O‘lchanmaning massasi (g) \_\_\_\_\_ g

Tadqiq qilinayotgan mahsulotdagi yog‘ miqdori (X) \_\_\_\_\_ %.

Xulosa \_\_\_\_\_

Barcha variantlar asosida tayyorlangan irislarning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko‘rsatkichlari umumiy jadvalga kiritiladi va GOST 6478-89 bilan taqqoslanib umumiy xulosa chiqariladi.

### **Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi**

**22-jadval**

Irisning nomi	Milliy halvo sifatini baholash						
	Shakli, rangi va tashqi ko‘rinishi	Konsis- tensiysi	Struk- turasi	Ta’mi va hidi	Nam- ligi, %	Redutsiy- alovchi moddala- ring miqdo- ri, %	Yog‘- ning miq- dori, %
«Oltin kalitcha»							
«Era»							
«Yangi»							
«Qaymoqli»							
Xulosa							

## **Talabanining mustaqil ishi**

4-laboratoriya ishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida talaba ma'ruzalar matnidan «Iris ishlab chiqarish» mavzusini va uslubiy qo'rsatmalardagi ushbu tajriba ishiga tegishli «Asosiy nazariy tushunchalar» bo'limini o'zlashtirishi, laboratoriya qaydnomasini rasmiylashtirishi; quyida keltirilgan savollardan foydalanib nazariy qismni o'zlashtirish darajasini tekshirishi kerak.

### **Mustaqil tayyorlash uchun savollar**

1. Qanday qandolat mahsuloti iris deb nomlanadi?
2. Iris qaysi alomatlarga ko'ra guruhlarga bo'linadi?
3. Iris qanday guruhlarga bo'linadi?
4. Iris tayyorlashda uning rangining to'qlanishi qanday tushunti-riladi?
5. Iris tayyorlashda sutning kislotaliligi qanday ahamiyatga ega?
6. Iris tayyorlash qaysi bosqichlardan iborat?
7. Karamelsimon iris tayyorlash qanday amalga oshiriladi?
8. Tirajlangan iris karamelsimon irisdan qanday farqlanadi va bunga qanday erishiladi?
9. Tirajlangan yarim qattiq iris qanday tayyorlanadi?
10. Tirajlangan yumshoq iris qanday tayyorlanadi?
11. Tirajlangan cho'ziluvchan iris qanday tayyorlanadi?
12. Irisning organoleptik sifat ko'rsatkichlari qanday baholanadi?
13. Irisning namligi qanday aniqlanadi?
14. Irisdagi redutsiyalovchi moddalarining miqdori qanday aniqlanadi?
15. Irisdagi yog' miqdori qanday aniqlanadi.

### **Laboratoriya ishga oid diagnostik testlar**

1.Irisning qaysi turi quruq moddalarining ko'pligi bilan farq qiladi?

- A) tirajlangan chuziluvchan
- B) tirajlangan yarim qattiq

C) karamelsimon

D) tirajlarga yumshoq

**2.Iris tayyorlashda sutning qaysi sifat ko'rsatkichi muhim ahamiyatga ega?**

A) kislotaliligi

B) quruq moddalar miqdori

C) laktoza miqdori

D) zichligi

**3.Irisning qaysi turini tayyorlashda shu iris chiqindisidan 7% gacha yoki 0,5% gacha shakar talqoni qo'shiladi?**

A) tirajlangan

B) karamelsimon

C) yarim qattiq

D) barcha nomlagan turlar uchun

**4.Kuyidagi xom ashylardan qaysi biri iris retsepturasida albatta bo'lishi kerak?**

A) oqsilli xom ashylolar

B) patoka

C) shaker

D) yog'lar

**5.Iris ishlab chiqarish texnologik jarayonining qaysi bosqichida melanoidinlar hosil bo'lish reaksiyasi jadallahshadi?**

A) iris massasini qaynatishda

B) xom ashyni ishlab chiqarishga tayyorlashda

C) shakar va sut aralashmasining quytirishda

D) retseptura aralashmasini tayyorlashda

**6.Tayyorlash texnologiyasi va massaning strukturasiga qarab iris beshta asosiy tipga bo'linadi:**

A) 5

B) 2

C) 4

D) 3

**7.Karamelsimon va tirajlangan yarim qattiq, o'ralgan irisni yaroqlilik muddati**

A) 6 oy

B) 5 oy

C) 2 oy

D) 4 oy

# **5-LABORATORIYA ISHI**

## **MAYDA KRISTALLI STRUKTURAGA EGA MILLIY HALVOLAR TAYYORLASH VA SIFATINI ANIQLASH**

### **Ishdan maqsad**

Laboratoriya sharoitida mayda kristalli va tołasimon strukturaga ega turli milliy halvolar tayyorlashni o'rganish va sifatini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Talabalar tajriba ishini bajarish natijasida mayda kristalli strukturaga «Lavz», «Donagi» «Sobuni» va tołasimon strukturaga ega «Buxorcha teri» halvolarini tayyorlash, ularning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.

### **Ishning mazmuni**

1. Mayda kristalli strukturaga ega «Lavz», «Donagi» «Sobuni» milliy halvolarni tayyorlash.
2. Tolasimon strukturaga ega «Buxorcha teri», Buxorcha pashmak» va «Buxoro» halvolarini tayyorlash.
3. Milliy halvolarning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkich-larini aniqlash.

Kerakli xom ashyolar, jihozlar va kimyoviy reaktivlar:

- xom ashyolar: shakar, bug'doy uni, qo'y yog'i, usimlik moyi, yong'oq, limon kislota, ichimlik suvi;
- jihozlar va idishlar: refraktometr УРЛ, elektr plita; torzion va texnik tarozi, marmar tosh, pichoq, asbestosli simto'r, alyumin idishlar va kostryulyalar, byukslar, shisha tayoqchalar, kimyoviy stakanlar, o'lchov kolbalar va silindrler, konussimon kolbalar, pipetkalar, chinni idishlar, hovonchalar, shpatellar;
- kimyoviy reaktivlar: eritilmagan xlорid kislota (zichligi 1,19) quruq natriy yoki kaliy gidrookisi va uning 25 % li eritmasi, metiloranj 1 % li eritmasi, kaliy ferritsianid – qizil qon tuzi ( $K_3Fe(CN)_6$ ).

eritmasi, 1 mol/dm<sup>3</sup> rux sulfat eritmasi, natriy yoki kaliy gidroksidning 1 mol/dm<sup>3</sup> eritmasi, ko'k metilen 1 % li eritmasi, kimyoviy toza saxaroza, distillangan suv.

## ASOSIY NAZARIY TUSHUNCHALAR

Sharq shirinliklari ko'pchiligi MDH ning barcha mintaqalarida, xususan O'rta Osiyo va Kavkazorti respublikalarida ishlab chiqariladi. Ularning ayrimlari azaldan O'zbekistonda ishlab chiqarilmoqda. Shuning uchun ularni o'zbek xalqining milliy qandolat mahsulotlari deb atash mumkin.

Bu mahsulotlardan nabot, parvarda, qandolat, "Obidandon", "Burama qalamcha", "Rang-barang", "Buxorcha", "Akkoli", "Xiloli" va boshqalar karamelsimon milliy qandolat mahsulotlarni tashkil qiladi.

Konfetsimon milliy qandolat mahsulotlariga "Lavz", "Sobuni", "Bodom'i", "Donagi", "Mayizli", "Kunjutli", "Rusta", "Teri", "Buxorcha teri", "Buxorcha pashmak", "Obinabot", "Unli-obinabot" halvolarni kiritish mumkin.

Milliy shirinliklarga nishallo, halvoitar, ferini va shular kabi boshqa quyuq qovushqoq mahsulotlar ham kiradi.

O'zbek milliy qandolat mahsulotlari texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar Bux muhandislik-texnologiya institutining «Oziq-ovqat texnologiyasi» kafedrasida amalga oshirilmoqda.

Sharq xalqlari orasida «Halvo» so'zi keng tarqalgan. Aslida bu so'z «shirin mahsulot» yoki «shirinlik» ma'nosini bildiradi. Haqiqatan ham «halvo» deb atalgan mahsulotga turli guruh qandolat mahsulotlariga xos bo'lgan xususiyatlarni kuzatish mumkin. Masalan «Lavz», «Sobuni» va «Donagi» halvolar mayda kristalli tuzilishi bilan pomadaga o'shaydi, «Buxorcha teri» va «Buxorcha pashmak», halvolari un-yog\* aralashmasi bilan, «Buxoro» halvosi qovurilgan va

mayin ezilgan yong‘oq massasi bilan qoplangan karamel massasining ingichka tolalaridan iborat, «Mayizli», «Obinabot», «Rusta», «Teri», «Unli-obinavvot» halvolari og‘ir quvlangan, «Bodom» halvosi yengil quvlangan massalardan tayyorlanadi. Shuning uchun milliy halvoning tuzilishi, ta’mi, konsistensiyasi, retsepturasini o‘ziga xos xususiyatlarga tayanib uni alohida qandolat mahsulotlari guruhiga ajratish mumkin.

«**Lavz**» halvosi bir qatlamlı bo‘yalgan yoki bo‘yalmagan, bir necha qatlamlı, turli ranglarda bo‘yalgan to‘g‘riburchak shakldagi halvo. Shakar-invert qiyomi va bug‘doy unini bo‘yoq qo‘shib aralashtirish yo‘li bilan tayyorlanadi. 1 kg da kamida 20 dona mahsulot mavjud. Namligi 10,0 +- 3,0 %

«**Donagi**» halvo - to‘g‘ri to‘rtburak yoki romb shakldagi mahsulotdir. Shakar-invert qiyomiga bug‘doy uni, qovurilgan va maydalangan o‘rik donagi mag‘zini qo‘shib tayyorlanadi. 1 kg da kamida 50 dona mahsulot mavjud. Namligi 8+-3,0%.

«**Sobuni**» halvo - to‘g‘riburchak yoki romb, yoki turli shakllarga ega mahsulotdir. Shakar qiyomiga yog‘-un aralashmasini qo‘shib, qorish natijasida tayyorlanadi. 1 kg da kamida 40 don mahsulot mavjud. Namligi 10,0+- 3,0%

«**Buxorcha teri**» halvo - to‘g‘riburchak-oval shakldagi mahsulotdir. Cho‘zilgan karamel massasi va yog‘-un aralashmasini cho‘zish va aralashtirish yo‘li bilan tayyorlanadi. 1 bo‘lak halvoning massasi 100 g dan 400 g gacha. Namligi 5,0+-2,0 %.

«**Buxorcha pashmak**» halvo - mayin tolasimon to‘rburchak yoki turli shakldagi mahsulotdir. Cho‘zilgan karamel massasiga un-yog‘ aralashmasiini cho‘zish jarayonida qo‘shib aralashtirish yo‘li bilan tayyorlanadi. 1 kg da kamida 100 dona mahsulot bo‘lishi kerak. Namligi 2,0+-1,0%.

«**Buxoro**» halvo mayin tolasimon to‘rburchak yoki turli shakldagi

mahsulotdir. Cho‘zilgan karamel massasiga qovurilgan va mayin ezilgan yong‘oq yoki yog‘li urug‘lar mag‘zini cho‘zish jarayonida qo‘sib aralashtirish yo‘li bilan tayyorlanadi. Namligi 2,0+-1,0%.

## TADQIQOT QISMI

### Ishni bajarish tartibi

Har bir talaba o‘qituvchi topshirig‘iga ko‘ra yakka tartibda qo‘yida keltirilgan variantlarning biri bo‘yicha ishni bajaradi:

- variant 1 – «Lavz» milliy halvo tayyorlash;
- variant 2 – «Donagi» milliy halvo tayyorlash;
- variant 3 – «Sobuni» milliy halvo tayyorlash;
- variant 4 – «Buxorcha teri» milliy halvo tayyorlash;
- variant 5 - «Buxorcha pashmak» milliy halvo tayyorlash;
- variant 6 – «Buxoro» milliy halvo tayyorlash;

Ishehi retseptura tuziladi, kerakli suv miqdori hisoblanadi, retseptura bo‘yicha barcha kerakli xom ashyolar o‘lchab olinadi, alohida variant bo‘yicha ishni bajarish uchun kerakli barcha idishlar va laboratoriya jihozlari tanlab olinadi;

Uslubga aniq rioya qilgan holda alohida variant bo‘yicha halvo tayyorlanadi. Quruq moddalar miqdorini aniqlash uchun qiyomdan namuna olinadi.

Tayyorlangan halvolar O‘zbekiston Davlat standarti O‘zDSt 438-2000, texnik shartlari O‘z TSh 8-110-97 va korxona standarti KSt 8.00392827-005:2001 talablariga ko‘ra organoleptik usulda baholanadi va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

Barcha kuzatishlar va aniqlashlarning natijalari laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

### Turli milliy halvolarni tayyorlash

#### «Lavz» halvo tayyorlash.

Tasdiqlangan retsepturasi asosida laboratoriya sharoitida 200 g

shakardan tayyorlanadigan «Lavz» halvo uchun ishchi retseptura hisoblanadi (23-jadval).

**23-jadval**

Xom ashyolar	Quruq modda-larning miqdori, %	I t «Lavz» halvo ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		200 g shakardan «Lavz» halvo tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
Shakar	99,85	802,7	801,5	200,0	199,7
I-navli bug'doy uni	85,5	154,4	132,0		
Limon kislota	91,2	0,1	0,1		
Bo'yuq	-	0,4	-		
Jami	-	957,6	933,6		
Mahsulotning chiqishi	90,0	1000,0	900,00		

«Lavz» milliy halvoni tayyorlash quyidagi bosqichlardan iborat: shakar qiyomini tayyorlash; qiyomni sovutish va halvo massasini qorish; halvo massasini yoyish (surkash); halvo massasini tindirish va kesish.

*Shakar qiyomini tayyorlash.* Alyumin idishga shakar massasiga nisbatan 25-30 % miqdorida suv quyiladi va qizdiriladi, ustiga shakar solinib, aralashtirib turgan holda shakar eritiladi va qaynaguncha yetkaziladi. Qaynatayotgan shakar qiyomiga retseptura bo'yicha limon kislota eritma holida qo'shiladi va qiyom harorati 112-114 °C gacha yetguncha qaynatiladi. Keyin alyumin idish elektr qizdirgich ustidan olinadi.

*Halvo massasini qorish.* Olingan qiyom 70 °C haroratgacha sovutiladi, kerak bo'lgan holda bo'yoq qo'shiladi va kurakeha bilan mayda kristalllar hosil bo'lguncha kuylanadi. Kuvlash jarayonida sekinlik bilan un solinadi. Kuvlash to bir jinsli, un izlarisiz, massa hosil bo'lguncha davom ettiriladi. Kuvlash jadal ravishda olib borilishi

maqsadga muvosiq. Bunda mayda kristalli halvo massasi hosil bo'ldi.

**Halvo massasini yoyish.** Tayyor halvo massasi avvaldan yog'lab qo'yilgan stol yuzasiga qalinligi 1 sm qilib yoyiladi, unga kvadrat shakli beriladi va yuzasi tekislanadi.

**Halvo massasini tindirish va uni kesish.** Halvo massasi kesishga qulay konsistensiyani olgunga qadar xona haroratida tindiriladi. Keyin uni o'lchami 2x4 sm ga teng to'rtburchak shaklida bir xil kattalikda pichoq bilan kesiladi.

Tayyor halvo tarozida tortiladi va uning chiqishi aniqlanadi. Halvoning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi.

#### *«Donagi» halvo tayyorlash.*

Tasdiqlangan retsepturasi asosida laboratoriya sharoitida 200 g shakardan tayyorlanadigan «Donagi» halvo uchun ishchi retseptura hisob-lanadi (24-jadval).

**24-jadval**

Xom ashyolar	Quruq modda-larning miqdori, %	1 t «Donagi» halvo ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		200 g shakardan «Donagi» halvo tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
Shakar	99,85	708,6	707,5	200,0	199,7
I-navli bug'doy uni	85,5	121,9	104,2		
Qovurilgan yong'oq mag'zi	97,5	152,3	148,5		
Limon kislota	91,2	0,1	0,1		
Vanilin	-	0,1			
Jami	-	982,9	960,3		
Mahsulotning chiqishi	92,0	1000,0	920,00		

Hisoblash  
yo'li bilan  
aniqlanadi

**«Donagi» milliy halvoni tayyorlash quyidagi bosqichlardan iborat:**

shakar-invert qiyomini tayyorlash; qiyomni sovutish va halvo massasini qorish; halvo massasini yoyish (surkash); halvo massasini tindirish va kesish.

***Shakar-invert qiyomini tayyorlash.*** Alyumin idishga shakar massasiga nisbatan 25-30 % miqdorida suv quyiladi va qizdiriladi, ustiga shakar solinib, aralashtirib turgan holda shakar eritiladi va qaynaguncha yetkaziladi. Qaynatayotgan shakar qiyomiga retseptura bo'yicha limon kislota eritma holida qo'shiladi va qiyom harorati 110-112 °C gacha yetguncha qaynatiladi. Keyin alyumin idish elektr qizdirgich ustidan olinadi.

***Halvo massasini qorish.*** Olingan qiyom 70 °C haroratgacha sovutiladi va kurakcha bilan mayda kristallar hosil bo'lguncha kuvalanadi. Massani kuvalash jarayonida sekinlik bilan un, maydalangan va qovurilgan yong'oq mag'zi, vanilin solinadi. Kuvalash to bir jinsli, un izlarisiz, massa hosil bo'lguncha davom ettiriladi. Kuvalash jadal ravishda olib borilishi maqsadga muvofiq. Bunda mayda kristalli halvo massasi hosil bo'ladi.

***Halvo massasini yoyish.*** Tayyor halvo massasi dastlab yog'lab qo'yilgan stol yuzasiga qatlinligi 1 sm qilib yoyiladi, unga kvadrat shakli beriladi va yuzasi tekislanadi.

***Halvo massasini tindirish va uni kesish.*** Halvo massasi kesishga qulay konsistensiyani olgunga qadar xona haroratida tindiriladi. Keyin uni o'lchami 2x4 sm ga teng to'rtburchak shaklida bir xil kattalikda pichoq bilan kesiladi.

Tayyor halvo tarozida tortiladi va uning chiqishi aniqlanadi. Halvoning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi.

#### ***«Sobuni» halvo tayyorlash.***

Tasdiqlangan retsepturasi asosida laboratoriya sharoitida 200 g shakardan tayyorlanadigan «Sobuni» halvo uchun ishchi retseptura hisob-

lanadi (25-jadval).

25-jadval

Xom ashyolar	Quruq modda-larning miqdo-ri, %	1 t «Sobuni» halvo ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		200 g shakardan «Sobuni» halvo tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
Shakar	99,85	694,7	693,7	200,0	199,7
I-navli bug'doy uni	85,5	180,8	154,6		
Qo'y yog'i	99,7	85,6	85,3		
Jami	-	961,1	933,6		
Mahsulotning chiqishi	90,0	1000,0	900,00		

«Sobuni» milliy halvo tayyorlash quyidagi bosqichlardan iborat: yog'-un aralashmasini tayyorlash; shakar qiyomini tayyorlash; qiyomni sovutish va halvo massasini qorish; halvoga shakl berish.

*Yog'-un aralashmasini tayyorlash.* Alyumin idishga qo'y yog'i solinadi va elektr qizdirgich ustiga qo'yib, to'la eriguncha qizdiriladi. Keyin ustiga un solinadi va kurakcha bilan yaxshilab bir jinsli massa hosil bo'lguncha qoriladi.

### *Shakar qiyomini tayyorlash.*

Alyumin idishga shakar massasiga nisbatan 25-30 % miqdorida suv quyiladi va qizdiriladi, ustiga shakar solinib, aralashtirib turgan holda shakar eritiladi va qiyom harorati 108-110 °C gacha yetguncha qaynatiladi. Keyin alyumin idish elektr qizdirgich ustidan olinadi.

*Halvo massasini qorish.* Olingan qiyom 70 °C haroratgacha sovutiladi va kurakcha bilan mayda kristallar hosil bo'lguncha kuylanadi. Massani kuvlash jarayonida sekinlik un-yog' aralashmasi solinadi. Kuvlash to bir jinsli, un izlarisiz, massa hosil bo'lguncha davom

ettiriladi. Kuvlash jadal ravishda olib borilishi maqsadga muvofiq. Bunda mayda kristalli halvo massasi hosil bo‘ladi.

**Halvoga shakl berish.** Halvo massasi xaltachaga solinadi. Xaltachaning uchida halvoga turli shakl beruvchi moslama o‘rnatilgan. Halvoga shakl berish qo‘ndirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Xaltachani qisish paytida halvo moslamadan ma’lum qirqimga ega bo‘lgan bovliq shaklida chiqadi va dastlab yog‘langan sovutish stoli yuzasiga qo‘ndiriladi.

Halvo xona haroratigacha sovutiladi, chiqishini aniqlash uchun tarozida tortiladi.

Halvoning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

#### **«Buxorcha teri» halvo tayyorlash.**

Tasdiqlangan retsepturasi asosida laboratoriya sharoitida 200 g shakardan tayyorlanadigan «Buxorcha teri» halvo uchun ishchi retseptura hisoblanadi (26-jadval).

26-jadval

Xom ashyolar	Quruq modda-larning miqdori, %	1 t «Buxorcha teri» halvo ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		200 g shakardan «Buxorcha teri» halvo tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
Shakar	99,85	512,1	511,3	200,0	199,7
I-navli bug‘doy uni	85,5	259,5	221,9		
Tozalangan paxta moyi	100	80,0	80,0	Hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi	
Qo‘y yog‘i	99,7	163,1	162,5		
Limon kislota	91,2	0,4	0,4		
Jami		1015,1	976,1		
Mahsulotning chiqishi	94,0	1000,0	940,0		

**«Buxorcha teri» milliy halvo tayyorlash quyidagi bosqichlardan**

iborat: yog'-un aralashmasini tayyorlash; karamel massasini tayyorlash; karamel massasini sovutish va cho'zish; halvoni qorish va uni bo'laklarga bo'lish.

***Yog'-un aralashmasini tayyorlash.*** Alyumin idishga qo'y yog'i solinib eritiladi va ustiga oldindan dog'lab qo'yilgan paxta yog'i solinadi. Yog'lar yaxshi aralashtiriladi va 50-55 °S haroratgacha sovutiladi. Keyin ustiga birin-ketin un solinib, kurakcha bilan yaxshi qoriladi.

***Karamel massasini tayyorlash.*** Alyumin idishga shakar massasiga nisbatan 25-30 % miqdorida suv quyiladi va qizdiriladi, ustiga shakar solinib, aralashtirib turgan holda shakar eritiladi va qaynaguncha yetkaziladi. Qaynatayotgan shakar qiyomiga retseptura bo'yicha limon kislota critma holida qo'shiladi va qiyom harorati 130-133 °S gacha yetguncha qaynatiladi va karamel massa olinadi.

***Karamel massasini sovutish va cho'zish.*** Karamel massasi dastlab yuzasi yog'langan sovutish stoliga quyiladi, 85-90 °C haroratgacha sovutiladi, aralashtiriladi va qo'l bilan oq ipak rangga kirguncha cho'ziladi.

***Halvoni qorish*** doira shakldagi stolda amalga oshiriladi. Stol yuzasiga yog'-un aralashmasi surtiladi va unga harorati 75-80 °C bo'lgan halqa shakli berilgan karamel massasi qo'yiladi. Halqa o'rtaida 40-45 °C haroratga ega yog'-un aralashmasi qo'yiladi va karamel massaga surtiladi.

Halqaga «8» shakli beriladi va hosil bo'lgan ikkita kichik halqa ustma-ust qo'yiladi, yuzasiga yog'-un aralashmasi surtiladi. Bunda karamel massaning ikki qatlamanidan iborat kichik halqa hosil bo'ladi. Kichik halqa cho'zish va yog'-un aralashmasi bilan surtib katta halqa o'lchamiga keltiriladi. Katta halqaga yana sakkiz shakli beriladi, yog'-un aralashmasi surtiladi, ikkita kichik halqa ustma-ust qo'yiladi, yog'-un aralashmasi surtiladi va yana cho'ziladi. Bu jarayon mayin tolasimon

tuzilishdagi halvo olinguncha ko‘p marta takrorlanadi. Hosil bo‘lgan halvo yaxshilab tekislanadi va pichoq bilan har biri massasi 40-50 g ga ega bo‘laklarga kesiladi.

Tayyor halvoning chiqishini aniqlash maqsadida u tarozida tortiladi. Halvoning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

### **«Buxorcha pashmak» halvo tayyorlash.**

Tasdiqlangan retsepturasi asosida laboratoriya sharoitida 200 g shakardan tayyorlanadigan «Buxorcha pashmak» halvo uchun ishchi retseptura hisoblanadi (27-jadval).

**27-jadval**

Xom ashyolar	Quruq modda-larning miqdori, %	I t «Buxorcha pashmak» halvo ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		200 g shakardan «Buxorcha pashmak» halvo tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
Shakar	99,85	759,6	758,5	200,0	199,7
Oliy navli bug'doy uni	85,5	246,7	210,9		
Eritilgan sigir yog'i	99,0	65,5	64,8	Hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi	
Limon kislota	91,2	0,6	0,6		
Vanilin	-	0,1			
Jami		1072,5	1034,8		
Mahsulotning chiqishi	94,0	1000,0	940,0		

«Buxorcha pashmak» halvo ishlab chiqarish texnologiyasi qo‘yidagi bosqichlardan iborat: karamel massasini tayyorlash va uni cho‘zish; yog‘-un aralashmasini tayyorlash; halvoni qorish; kesish va va mahsulotga shakl berish; halvoni joylash.

**Karamel massasini tayyorlash.** Aluminiy idishga shakar massasiga nisbatan 25 % suv solinadi. Suv qizdiriladi, ustiga shakar solinib, qaynatiladi va keyin limon kislotasi eritmasi solinadi. Qiyom

quruq moddalar miqdori 98 % bo‘lguncha qaynatiladi, bunda harorat 158-160 °C ga mos keladi.

Tayyor karamel massasi yuzasiga o’simlik yog‘i surtilgan sovutish stoliga quyiladi. 80-85 °C haroratgacha sovutilgan karamel massasi 5-7 min mobaynida oq rang va ipaksimon tusga kirguncha qo‘lda cho‘ziladi.

*Yog‘-un aralashmasini tayyorlash.* Alovida idishga eritilgan sigir yog‘i (sariyog‘) solinadi va 60-65 °C gacha qizdiriladi. Unga un va vanilin qo‘sib, aralashma konsistensiyasi to bir tekis bo‘lguncha yaxshilab qoriladi.

*Halvoni qorish* davra shakldagi stollarda «Buxorcha teri» halvoni qorishday amalga oshiriladi.

*Halvoni kesish.* Halvo halkasi massasi 8-10 g bo‘laklarga kesiladi va unga yumaloq-to’rburchak shakl beriladi. 1 kg da kamida 100 dona mahsulot mavjud bo‘lishi kerak.

Tayyor halvoning chiqishini aniqlash maqsadida u tarozida tortiladi. Halvoning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

#### *«Buxoro» halvo tayyorlash.*

Tasdiqlangan retsepturasi asosida laboratoriya sharoitida 200 g shakardan tayyorlanadigan «Buxoro» halvo uchun ishechi retseptura hisoblanadi (28-jadval).

## 28-jadval

Xom ashyolar	Quruq modda-larning miqdori, %	1 t «Buxoro» halvo ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		200 g shakardan «Buxoro» halvo tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
Shakar	99,85	479,0	478,3	200,0	199,7
Quritilmagan va loza-lanmagan yeryong'oq mag'zi	94,0	600,0	564,0		Hisoblash yo'li bilan aniqlanadi
Limon kislota	91,2	0,3	0,3		
Vanilin	-	0,3	-		
Jami		1079,6	1042,6		
Mahsulotning chiqishi	98,05	1000,0	980,5		

«Buxoro» halvo ishlab chiqarish texnologiyasi qo'yidagi bosqichlardan iborat: karamel massasini tayyorlash va uni cho'zish; yeryong'oq massasini tayyorlash; halvoni qorish; kesish va mahsulotga shakl berish.

**Karamel massasini tayyorlash.** Aluminiy idishga shakar massasiga nisbatan 25-30 % suv solinadi. Suv qizdiriladi, ustiga shakar solinib, qaynatiladi va keyin limon kislotasi eritmasi solinadi. Qiym quruq moddalar miqdori 97 % bo'lguncha qaynatib quyultiriladi, bunda harorat 150-155 °C ga mos keladi.

Tayyor karamel massasi yuzasiga o'simlik yog'i surtilgan sovutish stoliga quyiladi. 80-85 °S haroratgacha sovutilgan karamel massasi 5-7 min mobaynida oq rang va ipaksimon tusga kirguncha qo'lda cho'ziladi.

**Yeryong'oq massasini tayyorlash.** Yeryong'oq mag'zi qandolatchilik pechida havoning 140-150 °C haroratida nonvoylik 1,5-2,0 soat davomida quritiladi. Mag'izning harorati 110-120 °C dan, namligi 1,3 % dan oshmasligi kerak. Qovurishdan keyin mag'izni tez

xona haroratigacha sovutish lozim.

Yeryong'oq mag'zi po'stlog'idan qo'lda tozalanadi. Tozalangan mag'iz laboratoriya tegirmonchasida mayin eziladi. Araxis massasi kremsimon rangga, birjinsli konsistensiya va xushta'mlikka ega bo'lishi kerak.

*Halvoni qorish* davra shakldagi stollarda «Buxorcha teri», «Buxorcha pashmak» halvolarini qorilganday amalga oshiriladi. Bunda yog'-un aralashmasi o'rniغا – mayin maydalangan (ezilgan) qovurilgan yeryong'oq mag'zi ishlataladi.

*Halvoni kesish.* Halvo halkasi massasi 8-10 g bo'laklarga kesiladi va unga yumaloq-to'rtburchak shakl beriladi.

Tayyor halvoning chiqishini aniqlash maqsadida u tarozida tortiladi. Halvoning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi.

### **Mayda kristalli va tolasimon milliy halvolarning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'rsatkichlarini aniqlash**

Milliy halvolarning sifatini baholashda ularning organo-leptik ko'rsatkichlari baholanadi, namligi, redutsiyalovchi qandlar, umumiy qand va yog' miqdori aniqlanadi.


#### ***Milliy halvolarning sifatini organoleptik baholash.***

Bunda ularning tashqi ko'rinishi, rangi, strukturasi, konsistensiyasi, ta'mi va hidiga e'tibor beriladi. Tashqi ko'rinishi bo'yicha mahsulot turiga va nomiga xos ranga va to'g'ri shaklda, deformatsiyalanmagan sirti tekis, quruq bo'lishi, yopishqoq va yoriq bo'lmasligi kerak. «Lavz», «Donagi», «Sobuni» halvolarning strukturasi mayda kristalli, «Buxorcha teri», «Buxorcha pashmak» va «Buxoro» halvolarniki – mayin tolasimon bo'lishi lozim. Nomlangan halvolarning konsistensiyasi yarim qattiqdan qattiqgacha, pichoq bilan kesiladigan, uvoqlanadigan bo'lishi kerak. Barcha halvolarning ta'mi va hidi o'ziga xos yoqimli, begona ta'mlarsiz va hidlarsiz bo'lishi kerak.

Milliy halvo organoleptik ko'rsatkichlarini baholash natijalari laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi va me'yoriy hujjatlar talab-lariga mos kelishi aniqlanadi.

### Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi

Milliy halvo nomi \_\_\_\_\_  
Ta'mi \_\_\_\_\_  
Hidi \_\_\_\_\_  
Shakli \_\_\_\_\_  
Tashqi ko'rinishi \_\_\_\_\_  
Konsistensiyasi \_\_\_\_\_  
Strukturasi \_\_\_\_\_  
Sirtining holati \_\_\_\_\_  
Xulosa \_\_\_\_\_



7-rasm SESH rusumli qurutish shkafsi

1-yuklash darchasi; 2-korpus; 3-qizdiruvchi element; 4-aylanadigan stol;  
5-byuks o'chanma bilan

aratlashtiriladi.

### Milliy halvo namligini aniqlash.

Halvoning namligi tezlashtirilgan usulda quritish yo'li bilan aniqlanadi. Buning uchun ichiga dastlab yuvilgan va quritilgan qum, shisha tayoqcha solingan byuks 0,001 g aniqlikda tarozida tortib olinadi. Byuksga shu aniqlikda olingan 2-3 g halvoning o'chanmasi solinadi. Runda qumning miqdori o'chanmadan o's marta ko'proq bo'lishi ma'qil. Agar mahsulot qovushiqoq bo'lsa va qum bilan qoshganda yanshi aralashmasa, byuksga 0,5-1 ml distillaqan suv solinadi va suv hammonida shisha tayoqcha bilan qurietuvka

Mahsulot o'lchanmasi CЭШ rusumli quritish shkaflarida (7-rasm) 130±2°С haroratda 50 min quritiladi. Byuks quritish jarayoni tugagandan keyin og'zi yopiq holatda 30 min mobaynida eksikatorga qo'yiladi. Keyin og'zi zichlab yopiladi va massasi o'lchanadi.

Foizlarda ifodalangan mahsulotning namligi quyidagi 15-formula orqali aniqlanadi:

Olingan natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

### **Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi**

Byuksning (qum. shisha tayoqcha va o'lchanma bilan)

quritishdan oldingi massasi (a) \_\_\_\_\_ g

Byuksning (qum. shisha tayoqcha va o'lchanma bilan)

quritishdan keyingi massasi (v) \_\_\_\_\_ g

Mahsulot o'lchanmasining massasi(m)

\_\_\_\_\_ g

Mahsulotning namligi ( $W_h$ )

\_\_\_\_\_ %

Xulosa \_\_\_\_\_

*Halvdagi umumiyl qand miqdorini ferritsianid uslubi bilan aniqlash.*

Uslubni barcha qandolat mahsulotlari tarkibida umumiyl qand miqdorini aniqlash uchun qo'llanishi mumkin. Bunda mahsulot o'lchanmasini o'levov kolbasiga eritish va qandlarni eritmaga o'tkazish, saxarozani invert qandigacha gidrolizlanish talab qilinadi. Shundan keyin eritmada umumiyl qand miqdori, ya'ni mahsulotdagi redutsiyalovchi qandlar va saxarozani gidrolizlash natijasida hosil bo'lgan invert qandining yig'indisi aniqlanadi.

Mahsulot eritmasini tayyorlash uchun o'lchanma massasi 13-formula bilan (-bet),  $a = 3,2$  g qilingan holda, hisoblanadi. Tarozida 0,001 g aniqlikda tortib olingan o'lchanmani o'levov kolbasiga eritish va noqand moddalarni cho'ktirish, uslubiy kursatmalarining 44-betiga keltirilgan uslubga binoan amalga oshiriladi.

Noqand moddalarni cho'ktirish natijasida olingen eritmadan 50 yoki  $100 \text{ sm}^3$  o'lchab olinadi. Eritma  $50 \text{ sm}^3$  olinganda  $100 \text{ sm}^3$  hajmli,  $100 \text{ sm}^3$  olinganda -  $200 \text{ sm}^3$  hajmli o'lchov kolbasiga o'tkaziladi.

Eritmadagi saxarozani gidrolizlash uchun bir tomchi metiloranj tomizib, eritmaning reaksiyasi tekshiriladi. Ishqoriy reaksiya bo'lgan holda (to'qsariq rang), pushti rang paydo bo'lguncha tomchilab  $0,5 \text{ mol/dm}^3$  xlorid kislota qo'shiladi. Shundan keyin eritmaga 4 yoki  $8 \text{ sm}^3$  (50 yoki  $100 \text{ sm}^3$  eritma olinishiga ko'ra) eritilmagan (zichligi 1,19) xlorid kislot qo'shiladi

Kolba ichiga termometr kiritiladi va kolba taxminin  $80^\circ\text{S}$  gacha qizdirilgan suv hammomida o'rnatiladi. 2-3 minut davomida eritma harorati  $67-70^\circ\text{C}$  gacha yetkaziladi va shu haroratda 5 min saqlanadi. Kolbadagi eritma tezda xona haroratigacha sovutiladi, 2-3 tomchi metiloranj tomiziladi va va 25 % li ishqor eritmasi bilan pushti rang - to'qsariq ranga o'tguncha neytrallanadi. Shundan keyin eritma hajmi distillangan suv bilan kolbaning chizig'igacha yetkaziladi va yaxshilab aralashhtiriladi.

Gidrolizdan natijasida olingen eritmada umumiy qand, ya'ni barcha redutsiyalovchi qandlarning miqdori aniqlanadi. Buning uchun oldingi tajribalarda qo'llanilgan ferrotsianid uslubidan va tayyor-langan reaktivlardan (ferrotsianid eritmasi, invert qandi asosiy va ishehi eritmalari va boshqalar) foydalanimiz.

Dastlab «quruq tajriba» o'tkazib  $25 \text{ sm}^3$  ferritsianid eritmasiga sarflanadigan invert qandi ishchi standart eritmasining miqdori (n) aniqlanadi. Shundan keyin umumiy qandning miqdori aniqlanadi.

Reaksiyani o'tkazish uchun  $100 \text{ sm}^3$  hajmli konussimon kolbag'a gidroliz natijasida olingen eritmadan pipetka bilan  $10 \text{ sm}^3$  o'lehab solinadi, ustiga  $25,0 \text{ sm}^3$  ishqoriy ferritsianid eritmasi quyiladi. Aralashma 3-3,5 min davomida elektroplitka ustidagi asbest bilan aylana shaklida qoplangan simto'rga qo'yib qaynaguncha yetkaziladi. 1 min

(qum soat bo'yicha) qaynatiladi va qaynatishni to'xtamasdan 3 tomchi ko'k metilennинг 1 % li eritmasi tomiziladi va uchi egilgan byuretkadagi invert qandi ishchi standart eritmasi bilan tomchilab ko'k rang yo'qolguncha titrlanadi.

Redutsiyalovchi moddalarga ifodalangan umumiy qandning miqdori (UQ) miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi

$$UQ = 1,6 \cdot (n-m) \cdot V_1 \cdot V_3 \cdot 100 \cdot /V_2 \cdot V_4 \cdot g, \quad (16)$$

bu yerda UQ – halvodagi umumiy qandning miqdori, %;

n – «quruq tajriba»da  $25 \text{ sm}^3$  ferritsianid eritmasiga sarflangan invert qandi ishchi standart eritmasining miqdori,  $\text{sm}^3$ ;

m – tirlash uchun sarflangan invert qandi ishchi standart eritmasining miqdori,  $\text{sm}^3$ ;

$V_1$  – mahsulot eritmasini tayyorlash uchun ishlatilgan kolbanning hajmi,  $\text{sm}^3$  ( $200-500 \text{ sm}^3$ );

$V_2$  – reaksiya o'tkazish uchun olingan mahsulot eritmasining hajmi,  $\text{sm}^3$  ( $10 \text{ sm}^3$ );

$V_3$  – gidroliz o'tkazish uchun olingan kolbaning hajmi,  $\text{sm}^3$  ( $100$  yoki  $200 \text{ sm}^3$ );

$V_4$  – gidroliz o'tkazish uchun olingan eritmaning hajmi ( $50$  yoki  $100 \text{ sm}^3$ );

g – halvo o'lchanmasining massasi, g.

$1,6 - 1 \text{ sm}^3$  invert qandi ishchi standart eritmasidagi invert qandining miqdori, mg.

Olingan natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi

«Quruq tajriba»da  $25 \text{ sm}^3$  ferritsianid eritmasiga sarflangan invert qandi ishchi standart eritmasining miqdori (n) \_\_\_\_\_  $\text{sm}^3$

Tirlash uchun sarflangan invert qandi ishchi standart eritmasining miqdori (m) \_\_\_\_\_  $\text{sm}^3$

O'chanma massasi (g)	8
Mahsulot eritmasini tayyorlash uchun ishlatalilgan kolbaning hajmi ( $V_1$ )	sm³
Reaksiya o'tkazish uchun olingan mahsulot eritmasining hajmi ( $V_2$ )	sm³
Gidroliz o'tkazish uchun olingan kolbaning hajmi ( $V_3$ )	sm³
Gidroliz o'tkazish uchun olingan eritmaning hajmi ( $V_4$ )	sm³
Halvodagi umumiy qandning miqdori (UQ)	%
Xulosa	

Barcha variantlar asosida tayyorlangan halvolarning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'rsatkichlari umumiy jadvalga kiritildi. Ame'yoriy hujjatlar bilan taqoslanib umumiy xulosa chiqariladi.

#### Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi

Milliy halvoning nomi	Milliy halvo sifatini baholash					
	Shakli va tashqi ko'rinishi	Strukturasi	Konsistensiyasi	Ta'mi va hidi	Namligi, %	Umumiy qandning miqdori, %
«Lavz»						
«Donagi»						
«Sobuni»						
«Buxorcha teri»						
«Buxorcha pashmak						
«Buxoro»						
Xulosa						

## **Talabanining mustaqil ishi**

5-laboratoriya ishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida talaba ma'ruzalar matnidan «Sharq va milliy qandolat mahsulotlari texnologiyasi» mavzusini va uslubiy qo'rsatmalardagi ushbu tajriba ishiga tegishli «Asosiy nazariy tushunchalar» bo'limini o'zlashtirishi, laboratoriya qaydnomasini rasmiylashtirishi; quyida keltirilgan savollardan foydalaniib nazariy qismni o'zlashtirish darajasini tekshirishi kerak.

### **Mustaqil tayyorlash uchun savollar**

1. «Sharq shirinliklari» iborasi nimani anglatadi.
2. Karamelsimon sharq shirinliklari guruhiga qaysi mahsulotlar kiradi?
3. Unli sharq shirinliklari guruhiga qaysi mahsulotlar kiradi?
4. Yumshoq konfetsimon sharq shirinliklari guruhiga qaysi mahsulotlar kiradi?
5. O'zbek milliy qandolat mahsulotlariga qaysi mahsulotlar kiradi?
6. Mayda kristalli milliy qandolat mahsulotlari qaday xossalarga ega va qanday nomlarda ishlab chiqarildi?
7. Tolasimon milliy qandolat mahsulotlari qaday xossalarga ega va qanday nomlarda ishlab chiqarildi?
8. «Lavz» halvoning tavsisi va ishlab chiqarish texnologiyasini yoritib bering.
9. «Donagi» halvoning tavsisi va ishlab chiqarish texnologiyasini yoritib bering.
10. «Sobuni» halvoning tavsisi va ishlab chiqarish texnologiyasini yoritib bering.
11. «Buxorcha teri» halvoning tavsisi va ishlab chiqarish texnologiyasini yoritib bering.
12. «Buxorcha pashmak» halvoning tavsisi va ishlab chiqarish texnologiyasini yoritib bering.

13. «Buxoro» halvoning tavsifi va ishlab chiqarish texnologiyasini yoritib bering.
14. Milliy halvoning sifati qaysi organoleptik ko'rsatkichlari bo'yicha baholanadi?
15. Milliy halvoning namligi qanday aniqlanadi?
16. Milliy halvodagi umumiy qandlar miqdorini aniqlash qaysi bosqichladan iborat?
17. Umumiy qand miqdorini aniqlashda mahsulotning eritmasi va noqand moddalarning cho'ktirishi qanday amalga oshiriladi?
18. Umumiy qand miqdorini ferritsianid uslubida aniqlash qanday amalga oshiriladi?

#### **Laboratoriya ishga oid diagnostik testlar**

- 1.Qaysi sharq shirinligi mayin tolasimon tuzilishga va yumshoq konsistensiyaga ega?
  - A) «Buxorcha teri» halvo
  - B) «Sobuni» halvo
  - C) «Donagi» halvo
  - D) «Mayizli» halvo
- 2.Qaysi milliy karamel oq rangli va yuzasida turli rangli chiziqlar bo'lib, shareha yoki yostiqcha shakliga ega?
  - A) «Rang-barang»
  - B) «Obidandon»
  - C) «Burama qalamcha»
  - D) «Buxorcha»
- 3.Osilda quvlangan karamel massasidan qaysi sharq shirinligi tayyorlanadi?
  - A) «Rusta» halvosi
  - B) «Buxorcha teri» halvosi
  - C) «Donagi» halvosi

D) «Teri» halvosi

**4.Qaysi sharq shirinligi to‘g‘ri burchakli shaklga ega va turli ranglarga bo‘yalgan qatlamlardan iborat bo‘lishi mumkin?**

A) «Lavz» halvo»

B) «Donagi» halvosi

C) «Sobuni halvo»

D) «Donagi» halvosi

**5.Qaysi sharq shirinligi yong‘oq qo‘shilgan sutli pomadali massadan iborat?**

A) yong‘oqli sherbet

B) yong‘oqli kozinak

C) roxat lukum

D) yong‘oqli nuga.

**6.Qaysi milliy shirinligi tayyorlashda qo‘y yog‘idan tayyorlangan yog‘-un aralashmasi qo‘llaniladi?**

A) «Sobuni» halvosi

B) «Lavz» halvasi

C) «Donagi» halvosi

D) «Rusta» halvosi

## 6- LABORATORIYA ISHI

### QUVLANGAN MILLIY HALVOLAR TAYYORLASH VA SIFATINI ANIQLASH

#### Ishdan maqsad

Laboratoriya sharoitida quvlangan milliy halvolar va shirinliklar tayyorlashni o'rganish va sifatini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Talabalar tajriba ishini bajarish natijasida quvlangan «Rusta», «Mayizli», «Unli obinabot», «Nishallo» milliy halvo va shirinliklarini tayyorlash, ularning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.

#### Ishning mazmuni

1. «Nishallo» milliy shirinligini tayyorlash.
2. Quvlangan «Rusta», «Mayizli», «Unli obinabot» milliy halvo-larni tayyorlash.
3. Milliy halvolar va shirinliklarning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash.

Kerakli xom ashyolar, jihozlar va kimyoviy reaktivlar:

- xom ashyolar: shakar, patoka, yong'oq mag'zi, mayiz, bix (sovunak ildizi), kunjut, qo'y yog'i, usimlik moyi, yong'oq, limon kislota, nabot ishlab chiqarishning qoldiq qiyomi, ichimlik suvi;
- jihozlar va idishlar: refraktometr УРЛ, elektr plita; torzion va texnik tarozi, marmar tosh, pichoq, asbestli simto'r, alyumin idishlar va kostryulyalar, byukslar, shisha tayoqchalar, kimyoviy stakanlar, o'lchov kolbalar va silindrilar, konussimon kolbalar, pipetkalar, chinni idishlar, hovonchalar, shpatellar;
- kimyoviy reaktivlar: eritilmagan xlorid kislota (zichligi 1,19) quruq natriy yoki kaliy gidrookisi va uning 25 % li eritmasi, metiloranj 1 % li eritmasi, kaliy ferritsianid – qizil qon tuzi ( $K_3Fe(CN)_6$ ), eritmasi, 1 mol/dm<sup>3</sup> rux sulfat eritmasi, natriy yoki kaliy

gidroksidning 1 mol/dm<sup>3</sup> eritmasi, ko'k metilen 1 % li eritmasi, kimyoviy toza saxaroza, distillangan suv.

### ASOSIY NAZARIY TUSHUNChALAR

Quvlangan qandolat mahsulotlari ko'pik strukturasiga ega bo'ladi va bu ularning mazasini va oziqaviy qiymatini belgilaydi. Ko'pik hosil bo'lishi muhim amaliy ahamiyatga ega.

Dispers muhit suyuqlik, dispers fazasi gaz bo'lgan yuqori konsentratsiyali dispers sistemalar ko'piklar deb ataladi. Ko'piklardiagi gaz pufakchalari katta o'chammlarga, ko'pyoq shakliga ega bo'ladi va bir biridan dispersion muhitning juda yupqa qatlamlari bilan ajratilgan bo'ladi. Ko'piklarni hosil qilish uchun disperslash usullaridan - jadal aralashtirish, ya'ni kuvalashdan foydalaniлади. Turg'un ko'piklarni faqat stabilizatorlar - ko'pik hosil qiluvchilar yordamida olish mumkin. Qandolatchilik sanoatida ko'pik hosil qiluvchi sisatida asosan toza, muzlatilgan, hamda quritilgan ko'rinishdagi tuxum oqi qo'llaniladi. Mayda g'ovakli quvlangan konfet massalarini olish uchun 1-3 % tuxum oqi yetarli, ammo ularni tayyorlashda bundan qo'p miqdorda tuxum oqidan ham foydalaniши mumkin.

Quvlangan qandolat massalarini ikkita asosiy xilga bo'lish mumkin: y'Engil quvlangan massalar (nishallo, susle va shunga o'xshashlar) va og'ir quvlangan massalar (nuga, milliy halvolar).

Yengil quvlangan massalardan tayyorlangan qandolat mahsulotlari katta namlikka (20 % atrosida) ega bo'lganligi tufayli tezda o'z ko'piksimon strukturasi va shaklini yo'qotib qo'yishi mumkin. Shuning uchun ularning tayyorlashda jelelovchi moddalar, asosan agar qo'llaniladi. Jele hosil bo'lishi natijasida y'Engil quvlangan massalarning strukturasi ancha mustahkamlanadi. Yengil quvlangan massadan tayyorlangan milliy shirinlik «Nishallo» bundan istisno, uni tayyorlashda jelelovchi moddalar ishlatilmaydi.

«Nishallo» - oq rangli, quyuq konsistensiya va ko'piksimon

strukturaga ega milliy shirinligi bo'lib, shakar-invert qiyomini ko'pik hosil qiluvchining (tuxum oqi) ko'pigi bilan kuvlash natijasida tayyorlanadi.

Og'ir quvlangan massalarning namligi pastroq (10 % atrofida) bo'lganligi tufayli, ular yuqori qovushqoqlikka ega va o'z ko'piksimon strukturasi va shaklini saqlay oladi. Shuning uchun ham og'ir quvlangan massalarni tayyorlashda jelelovchi moddalar ishlatilmaydi.

Og'ir quvlangan massalardan «Mayizli», «Obinabot», «Rusta», «Teri», «Unli-obinabot» xalvalari tayyorlanadi.

«Mayizli» halvo - to'g'riburchak yoki romb shakldagi mahsulotdir. Tuxum oqiga quvlangan karamel massasiga mayiz (kishmish) qo'shib aralashtirish yo'li bilan tayyorlanadi. 1 kg da kamida 50 dona mahsulot mavjud. Namligi 9,0±2,0%.

«Obinabot» halvo - ko'pik hosil qiluvchi moddalarni qo'llab karamel massasini kuvlash va unga o'simlik yog'ini qo'shib tayyorlangan mahsulotdir. Namligi 10+-2,0%.

«Rusta» halvo - aylana yoki to'g'riburchak shakldagi mahsulotdir. Tuxum oqiga quvlangan karamel massasiga yong'oqning qovurilgan mag'zini qo'shib aralashtirish yo'li bilan tayyorlanadi. Namligi 10+-2,0%.

«Teri» halvo - to'g'riburchak-oval shakldagi mahsulotdir. Tuxum oqiga quvlangan karamel massasi va yog'-un aralashmasini cho'zish va aralashtirish yo'li bilan tayyorlanadi. 1 bo'lak halvoning massasi 100 g dan 400 g gacha. Namligi 5,0+-2,0 %.

«Unli – obinabot» yog' o'tkazmaydigan idishlarga qadoqlangan halvo. Tuxum oqiga quvlangan karamel qiyomiga yog'-un aralashmasi va qovurilgan kunjut qo'shib, aralashtirish yo'li bilan tayyorlanadi. Namligi 10,0+-2,0%.

## TADQIQOT QISMI

**Ishni bajarish tartibi** Talabalar 2-3 kishidan iborat guruhchalarga bo‘linib, o‘qituvchi topshirig‘iga binoan qo‘yida keltirilgan variantlarning biri bo‘yicha ishni bajaradilar:

- variant 1 – «Nishallo» milliy shirinligini tayyorlash;
- variant 2 – «Rusta» milliy halvo tayyorlash;
- variant 3 – «Mayizli» milliy halvo tayyorlash;
- variant 4 – «Unli-obinabot» milliy halvo tayyorlash;

Ishchi retseptura tuziladi, kerakli suv miqdori hisoblanadi, retseptura bo‘yicha barcha kerakli xom ashyolar o‘lchab olinadi, alohida variant bo‘yicha ishni bajarish uchun kerakli barcha idishlar va laboratoriya jihozlari tanlab olinadi;

Uslubga aniq rioya qilgan holda alohida variant bo‘yicha halvo tayyorlanadi. Quruq moddalar miqdorini aniqlash uchun qiyomdan namuna olinadi.

Tayyorlangan halvolar O‘zbekiston Davlat standarti O‘zDSt 438-2000, texnik shartlari O‘z TSh 8-74-94 talablariga ko‘ra organoleptik usulda baholanadi va fizik-kiymoviy ko‘rsatkichlari aniqланади.

Barcha kuzatishlar va aniqlashlarning natijalari laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

### Turli milliy halvolarni tayyorlash

*«Nishallo» milliy shirinligini tayyorlash.*

Tasdiqlangan retsepturasi asosida laboratoriya sharoitida 500 g shakardan tayyorlanadigan «Nishallo» shirinligi uchun uchun ishchi retseptura hisoblanadi (30-jadval).

### 30-jadval

Xom ashyolar	Quruq modda-larning miqdori, %	1 t «Nishallo» shirinligi ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		500 g shakardan «Nishallo» shirinligi tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
Shakar	99,85	830,2	829,0	500,0	499,3
Tuxum oqi	12,0	101,7	12,2		
Limon kislota	91,2	1,0	0,9		
Jami	-	932,9	842,1		
Mahsulotning chiqishi	80,0	1000,0	800,0		

Hisoblash  
yo‘li bilan  
aniqlanadi

«Nishallo» milliy shirinligini tayyorlash quyidagi bosqichlar-dan iborat: shakar-invert qiyomini tayyorlash; ko‘piksimon massani tayyorlash; qiyomni ko‘piksimon massa bilan kuvlash.

*Shakar-invert qiyomini tayyorlash.* Alyumin idishga shakar massasiga nisbatan 30 % miqdorida suv quyladi va qizdiriladi, ustiga shakar solinib, aralashtirib turgan holda shakar eritiladi va qaynaguncha yetkaziladi. Qaynatayotgan shakar qiyomiga retseptura bo‘yicha limon kislota eritma holida qo‘shiladi va qiyom harorati 110-112 °S gacha yetguncha qaynatiladi. Keyin alyumin idish elektr qizdirgich ustidan olinadi.

*Ko‘piksimon massa tayyorlash.* Sirlangan yoki plastmassa toza idishga retseptura bo‘yicha o‘lchab olingan va sovutilgan tuxum oqi solinadi. Chilcho‘p yoki shunga o‘xhash kupirtiruvchi moslama bilan avval past tezlikda, keyin katta tezlikda tuxum oqi kuvlanadi. Kuvlash to barqaror ko‘pik hosil bo‘lguncha davom ettiriladi.

*Qiyomni ko‘piksimon massa bilan kuvlash.* Oldin tayyorlangan va 55-60 °S gacha sovutilgan qiyom kupiksimon massaga yupqagina oqizadi

va kuvlash to bir jinsli, yaxshi ko'pchitgan massa hosil bo'lguncha davom ettiriladi.

Xona haroratigacha sovutilgan Nishallo shirinligining chiqishini aniqlash maqsadida u tarozida tortiladi, sifati organoleptik usulda baholanadi va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

### *«Mayizli» milliy halvo tayyorlash.*

Tasdiqlangan retsepturasi asosida laboratoriya sharoitida 500 g shakardan tayyorlanadigan «Mayizli» halvo uchun ishchi retseptura hisob-lanadi (26-jadval).

«Mayizli» halvo ishlab chiqarish texnologiyasi karamel massasini tayyorlash, uni tuxum oqi bilan kuvlash, halvoni qorish, shakl berish bosqichlaridan iborat.

**31-jadval**

Xom ashyolar	Quruq modda-larning miqdori, %	1 t «Mayizli» halvo ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		500 g shakardan «Mayizli» halvo tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
Shakar	99,85	757,0	755,9	500,0	499,3
Mayiz (kishmish)	82,0	213,7	175,2		
Tuxum oqi	12,0	60,8	7,3		
Shakar kukuni	99,85	20,1	20,1		
Limon kislota	91,2	0,4	0,4		
Vanilin	-	0,1	-		
Jami	-	1033,0	958,9		
Mahsulotning chiqishi	91,0	1000,0	910,0		

*Karamel massasini tayyorlash.* Alyumin idishga shakar, shakar massasiga nisbatan 25% suv solinadi. Aralashma qaynaguncha qizdiriladi va limon kislotasi eritmasi qo'shiladi.

Qiyom quruq moddalar miqdori 95 % bo'lguncha qaynatiladi,

bunda harorat 142-145 ° C ga mos keladi. Tayyor karamel massasi 95-100 ° C haroratgacha sovutiladi.

### ***Tuxum oqida quvlangan karamel massasini kuvlash.***

Toza idishga retseptura bo'yicha o'lchab olingen va sovutilgan tuxum oqi solinadi. Chilcho'p yoki shunga o'xshash kupirtiruvchi moslama bilan avval past tezlikda, keyin katta tezlikda tuxum oqi kuvlanadi. Kuvlash to barqaror ko'pik hosil bo'lguncha davom ettiriladi va unga vanilin qo'shiladi. Oldin tayyorlangan va 95-100 ° C gacha sovutilgan karamel massasi kupiksimon massaga yupqagina oqizadi va kuvlash to bir jinsli, yaxshi ko'pchitgan massa hosil bo'lguncha davom ettiriladi.

***Halvoni qorish.*** Quvlangan karamel massasiga mayiz (kishmish) solinadi va kishmishni butun massa bo'ylab bir tekis tarqalguncha aralashma yaxshilab qorilib halvo massasi tayyorlanadi.

***Halvoga shakl berish.*** Tayyor halvo massasi yuzasiga shakar kukuni sepilgan stol ustiga olinadi, qalinligi 1,0-1,5 sm qatlamda surkaladi. Tindirish natijasida massa konsistensiyasi kesish uchun muvosiq holga ega bo'lgandan keyin uni yuzasiga shakar kukuni sepiladi. Qatlam to'g'riburchak shaklli qilib qirqiladi. Qirqim yuzasiga ham shakar talqoni sepiladi.

Tayyor halvoning chiqishini aniqlash maqsadida u tarozida tortiladi. Halvoning sifati organoleptik usulda baholanadi va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

### ***«Rusta» milliy halvo tayyorlash.***

Tasdiqlangan retsepturasi asosida laboratoriya sharoitida 500 g shakardan tayyorlanadigan «Rusta» halvo uchun ishchi retseptura hisoblanadi (32-jadval).

## 32-jadval

Xom ashyolar	Quruq modda-larning miqdori, %	1 t «Rusta» halvo ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		500 g shakardan «Rusta» halvo tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
Shakar	99,85	794,5	793,3	500,0	499,3
Qovurilgan yong'oz mag'zi		151,2	147,4		
Tuxum oqi	12,0	60,8	7,3		
Limon kislota	91,2	0,4	0,4		
Vanilin	-	0,1	-		
Jami	-	1007,0	948,4		
Mahsulotning chiqishi	90,0	1000,0	900,0		

«Rusta» halvo ishlab chiqarish texnologiyasi karamel massasini tayyorlash, tuxum oqiga quvlangan karamel massasini tayyorlash, halvoni qorish, shakl berish va joylash bosqichlaridan iborat.

**Karamel massasini tayyorlash.** Alyumin idishga shakar, shakar massasiga nisbatan 25% suv solinadi. Aralashma qaynaguncha qizdiriladi va limon kislotasi eritmasi qo'shiladi.

Qiyom quruq moddalar miqdori 93 % bo'lguncha qaynatiladi, bunda harorat 130-132 °C ga mos keladi. Tayyor karamel massasi 95-100 °C haroratgacha sovutiladi.

#### **Tuxum ogida quvlangan karamel massasini kuvlash.**

Toza idishga retseptura bo'yicha o'lchab olingan va sovutilgan tuxum oqi solinadi. Chilcho'p yoki shunga o'xshash kupirtiruvchi moslama bilan avval past tezlikda, keyin katta tezlikda tuxum oqi kuvlanadi. Kuvlash to barqaror ko'pik hosil bo'lguncha davom ettiriladi va unga vanilin qo'shiladi. Oldin tayyorlangan va 95-100 °S gacha sovutilgan karamel massasi kupiksimon massaga yupqagina oqizadi va kuvlash to bir jinsli, yaxshi ko'pchitgan massa hosil bo'lguncha davom

ettiriladi.

**Halvoni qorish.** Quvlangan karamel massasiga qovurilgan yong' oq mag'zi solinadi va yong' oqni butun massa bo'y lab bir tekis tarqalguncha aralashma yaxshilab qorilib halvo massasi tayyorlanadi.

**Halvoga shakl berish.** Tayyor halvo massasi sirti o'simlik yog'i bilan surtilgan qoliplarga solinadi va xona haroratigacha sovutiladi. Halvo sovutilgan va tindirilgandan keyin qoliplardan bo'shatiladi.

Tayyor halvoning chiqishini aniqlash maqsadida u tarozida tortiladi. Halvoning sifati organoleptik usulda baholanadi va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

#### **«Unli-obinabot» milliy halvo tayyorlash.**

Tasdiqlangan retsepturasi asosida laboratoriya sharoitida 500 g shakardan tayyorlanadigan «Unli-obinabot» halvo uchun ishehi retseptura hisob-lanadi (33-jadval).

33-jadval

Xom ashyolar	Quruq modda-larning miqdori, %	1 t «Unli-obinabot» halvo ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		500 g shakardan «Unli-obinabot» halvo tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
Nabot ishlab chiqarishdan qolgan qiyom	70,0	728,0	509,6	500,0	400,3
I-navli bug'doy uni	85,5	206,5	176,6		
Tozalangan paxta moyi	99,9	122,8	122,7		
Qo'y yog'i	99,7	82,6	82,4		
Tuxum oqi	12,0	60,8	7,3		
Qovurilgan kunjut	98,0	47,4	46,4		
Limon kislota	91,2	0,4	0,4		
Jami	-	1248,5	945,1		
Mahsulotning chiqishi	90,0	1000,0	900,0		

«Unli – obinabot» halvo ishlab chiqarish texnologiyasi karamel qiyomini tayyorlash; tuxum oqiga quvlangan karamel qiyomini tayyorlash; yog‘-un aralashmasini tayyorlash; halvoni qorish va qadoklash bosqich-laridan iborat.

*Karamel qiyomini tayyorlash.* Alyumin idishiga nabot ishlab chiqarishdan qolgan filtrlangan qiyom quyiladi, qaynaguncha qizdiriladi va limon kislotasining eritmasi qo’shiladi. Qiyom quruq moddalarning miqdori 86 % bo‘lguncha qaynatiladi, bunda 115-116 °C harorat mos keladi.

Qiyom boshqa idishga olinadi va harorati 70-75 °S bo‘lguncha sovutiladi.

*Tuxum oqida quvlangan karamel qiyomini kuylash.*

Toza idishga retseptura bo‘yicha o‘lchab olingan va sovutilgan tuxum oqi solinadi. Chilcho‘p yoki shunga o‘xshash kupirtiruvchi moslama bilan avval past tezlikda, keyin katta tezlikda tuxum oqi kuylanadi. Kuylash to barqaror ko‘pik hosil bo‘lguncha davom ettiriladi va unga vanilin qo’shiladi.

Oldin tayyorlangan va 95-100 °C gacha sovutilgan karamel qiyomi kupiksimon massaga yupqagina oqizadi va kuylash to bir jinsli, yaxshi ko‘pchinan massa hosil bo‘lguncha davom ettiriladi.

*Yog‘-un aralashmasini tayyorlash.* Alovida qozonga qizdirilgan tozalangan paxta moyi, qo‘y yog‘i solinadi va eritiladi. Yog‘ aralashmasiga birin-ketin un solinadi va qizdirish muttasil davom ettirilgan holda, massaning jigari rang va o‘ziga xos hid olguncha aralashtirish davom ettiriladi,

*Halvoni qorish.* Tuxum oqiga quvlangan karamel qiyomi mavjud bo‘lgan qozonga harorati 55-60 ° C ega yog‘-un aralashmasi va qovurilgan kunjut solinadi. Aralashma bir tekis konsistensiyaga ega bo‘lguncha qoriladi.

Tayyor halvo massasi yog‘ o‘tkazmaydigan idishga qadoqlanadi va

xona haroratigacha sovutiladi.

Tayyor halvoning chiqishini aniqlash maqsadida u tarozida tortiladi. Halvoning sisati organoleptik usulda baholanadi va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

### **Quvlangan milliy halvolarning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'rsatkichlarini aniqlash**

Milliy halvolarning sifatini baholashda ularning organo-leptik ko'rsatkichlari baholanadi, namligi, umumiy qand va yog' miqdori aniqlanadi.

#### *Milliy halvolarning sifatini organoleptik baholash.*

Bunda ularning tashqi ko'rinishi, rangi, strukturasi, konsistensiyasi, ta'mi va hidiga e'tibor beriladi. Tashqi ko'rinishi bo'yicha mahsulot turiga va nomiga xos ranga va to'g'ri shaklda, deformatsiyalanmagan, sirti quruq bo'lishi, yopishqoq bo'imasligi kerak. «Mayizli», «Rusta», «Unli-obinabot» halvolarning strukturasi mayda kristalli, «Nishallo»niki - g'ovaklangan bo'lishi lozim. Nomlangan halvolarning konsistensiyasi yarim qattiqdan qattiqgacha, biroz cho'ziluvchan, pichoq bilan kesiladigan, uvoqlanadigan, «Nishallo»niki – quyuq-cho'ziluvchan bo'lishi kerak. Barcha halvolarning ta'mi va hidi o'ziga xos yoqimli, begona ta'mlarsiz va hidlarsiz bo'lishi kerak.

Milliy halvo organoleptik ko'rsatkichlarini baholash natijalari laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi va me'yoriy hujjatlar talab-lariga mos kelishi aniqlanadi.

#### **Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi**

- Milliy halvo nomi \_\_\_\_\_  
Ta'mi \_\_\_\_\_  
Hidi \_\_\_\_\_  
Shakli \_\_\_\_\_  
Tashqi ko'rinishi \_\_\_\_\_  
Konsistensiyasi \_\_\_\_\_

Strukturasi \_\_\_\_\_

Sirtining holati \_\_\_\_\_

Xulosa \_\_\_\_\_

*Milliy halvo namligini aniqlash - 5-laboratoriya ishida keltirilgan uslubga binoan SESh rusumli quritish shkafida quritish yo'li bilan aniqlanadi. Olingan natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.*

### **Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi**

Byuksning (qum, shisha tayoqcha va o'lchanma bilan)

quritishdan oldingi massasi (a) \_\_\_\_\_ g

Byuksning (qum, shisha tayoqcha va o'lchanma bilan)

quritishdan keyingi massasi (v) \_\_\_\_\_ g

Mahsulot o'lchanmasining massasi \_\_\_\_\_ g

Mahsulotning namligi \_\_\_\_\_ %

Xulosa \_\_\_\_\_

### ***Halvodagi umumiyl qand miqdorini aniqlash.***

Halvodagi umumiyl qand miqdorini aniqlash 5-laboratoriya ishida mazmuni to'liq keltirilgan ferritsianid uslubi bilan amalga oshiriladi.

Olingan natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

### **Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi**

«Quruq tajriba»da  $25 \text{ sm}^3$  ferritsianid eritmasiga sarflangan invert qandi ishchi standart eritmasining miqdori (n) \_\_\_\_\_  $\text{sm}^3$

Titrlash uchun sarflangan invert qandi ishchi standart eritmasining miqdori (m) \_\_\_\_\_  $\text{sm}^3$

O'lchanma massasi (g) \_\_\_\_\_ g


Mahsulot eritmasini tayyorlash uchun ishlataligan kolbaning hajmi ( $V_1$ ) \_\_\_\_\_  $\text{sm}^3$

Reaksiya o'tkazish uchun olingan mahsulot eritmasining hajmi ( $V_2$ ) \_\_\_\_\_  $\text{sm}^3$

Gidroliz o'tkazish uchun olingan kolbaning hajmi ( $V_3$ )	sm <sup>3</sup>
Gidroliz o'tkazish uchun olingan eritmaning hajmi ( $V_4$ )	sm <sup>3</sup>
Halvdagi umumiyl qandning miqdori (UQ)	%
Xulosa	

*Quvlangan milliy halvolarning zichligini aniqlash.* Quvlangan halvolarning sifati sezilarli darajada ularning zichligi bilan bog'liq. Bu mahsulotlar zichligini aniqlash uslubi suyuqlikga (kerosin, ksilol, toluol, skipidar) botirilgan mahsulot o'lchanmasi tomonidan siqib chiqarilgan suyuqlik hajmini o'lchanashga asoslanagan. Bunda zichlikning qiymati o'lchanma massasini siqib chiqarilgan suyuqlikning hajmiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Zichlikni aniqlash uchun qo'llaniladigan asbob (8-rasm) balandligi 400 mm va diametri 75 mm shisha silindr 1 bo'lib, uning yuqori qismiga 25 sm<sup>3</sup> hajmli jumrakli byuretka 4 payvandlangan. Byuretkadagi sonlar pastdan yuqoriga qarab belgilangani maqsadga muvofiq bo'ladi. Silindr yuqoridan qopqoq 3 bilan yopilgan. Qopqoqning o'rtasida vint orqali kerak balandlikka o'rnatiladigan plunjер 2 joylashtigan.



8-rasm. Quvlangan mahsulotlar zichligini o'lchanash asbobi  
1-silindr, 2-plunjер,  
3-qopqoq, 4-byuretka.

Qopqoq plunjер bilan olinadi va silindriga suyuqlik shuncha quyiladiki, uning bu qismi byuretkani oqsin. Endi suyuqlik jumrak orqali byuretkaning pastpi qiramiga joylashtigan va qiymatigacha tur'hirladi.

Qopqoq plunjер bilan zihndeja shunday o'rnatiladiki, suyuqlikdagi plunjер silindriga o'rnatilda joylashtiriladi. Bunda plunjер tomonidan siqib chiqarilgan suv byuretkaga o'tadi va o'ning hajmi ( $V_2$ ) o'lchanadi. Yana qopqoq plunjер bilan olinadi va

silindrga suyuqlik shuncha quyiladiki, uning bir qismi byuretkani oqsin. Suyuqlik jumrak orqali yana byuretkanining nol qiymatigacha tushiriladi.

Silindrga tekshirilayotgan mahsulotning o'chanmasi solinadi va plunjер yordamida suyuqlikka botiriladi. Bunda plunjер yana ham silindrning o'rtasida joylashgani ma'qul. Byuretkada plunjер va o'chanma tomonidan siqib chiqilgan suyuqlikning hajmi ( $V_1$ ) o'chanba aniqlanadi.

Tekshirilayotgan mahsulotning zichligi quyidagi formula bilan hisoblanadi

$$d = m / (V_1 - V_2), \quad (17)$$

bu yerda  $d$  – tekshirilayotgan mahsulotning zichligi,  $\text{g/sm}^3$ ;

$m$  – o'chanma massasi, g;

$V_1$  – plunjер va o'chanma tomonidan siqib chiqilgan suyuqlikning hajmi,  $\text{sm}^3$ ;

$V_2$  – plunjер tomonidan siqib chiqilgan suyuqlikning hajmi,  $\text{sm}^3$ ;

Olingan natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

### Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi

O'chanma massasi ( $m$ ) \_\_\_\_\_ g

Plunjер tomonidan siqib chiqilgan suyuqlikning hajmi ( $V_2$ ) \_\_\_\_\_  $\text{sm}^3$

Plunjер va o'chanma tomonidan siqib chiqilgan suyuqlikning hajmi ( $V_1$ ) \_\_\_\_\_  $\text{sm}^3$

Tekshirilayotgan mahsulotning zichligi ( $d$ ) \_\_\_\_\_  $\text{g/sm}^3$

Xulosa \_\_\_\_\_

Barcha variantlar asosida tayyorlangan halvolarning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'satkichlari umumiyl jadvalga kiritiladi va me'yoriy hujjatlar bilan taqqoslanib umumiyl xulosa chiqariladi.

## Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi

34-jadval

Milliy halvoning nomi	Milliy halvo sifatini baholash					
	Shakli va tashqi ko‘rinishi	Strukturasi	Konsisten siyasi	Ta’mi va hidi	Nam -ligi, %	Umumiy qand miqdori, %
«Nishallo»						
«Mayizli»						
«Rusta»						
«Unli-obinabot»						
Xulosa						

### Talabanining mustaqil ishi

6-laboratoriya ishini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida talaba ma‘ruzalar matnidan «Sharq va milliy qandolat mahsulotlari texnologiyasi» mavzusini va uslubiy qo‘rsatimalardagi ushbu tajriba ishiga tegishli «Asosiy nazariy tushunchalar» bo‘limini o‘zlashtirishi, laboratoriya qaydnomasini rasmiylashtirishi; quyida keltirilgan savollardan foydalanib nazariy qismni o‘zlashtirish darajasini tekshirishi kerak.

### Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Qaysi dispers sistema ko‘pik deb ataladi?
2. Turg‘un ko‘pik olinishi qaysi omillar bilan bog‘liq?
3. Quvlangan qandolat mahsulotlari qaysi guruhlarga bo‘linadi?
4. «Nishallo» milliy shirinligi tavsiisi va ishlab chiqarish texnologiyasini yoritib bering.
5. «Mayizli» halvoning tavsiisi va ishlab chiqarish texnologiyasini yoritib bering.

6. «Rusta» halvoning tavsisi va ishlab chiqarish texnologiyasini yoritib bering.
7. «Unli-obinabot» halvoning tavsisi va ishlab chiqarish texnologiyasini yoritib bering.
8. Milliy halvoning sifati qaysi organoleptik ko'rsatkichlari bo'yicha baholanadi?
9. Milliy halvoning namligi qanday aniqlanadi?
10. Milliy halvodagi umumiy qandlar miqdorini aniqlash qaysi bosqichladan iborat?
11. Umumiy qand miqdorini aniqlashda mahsulotning eritmasi va noqand moddalarning cho'ktirishi qanday amalga oshiriladi?
12. Umumiy qand miqdorini ferritsianid uslubida aniqlash qanday amalga rshiriladi?
13. Quvlangan mahsulotlarning zichligini aniqlash nimaga asoslangan?
14. Quvlangan mahsulotlarning zichligi qanday aniqlanadi?

#### **Laboratoriya ishga oid diagnostik testlar**

1. Quvlangan masalliqlar masalliqlarning quruq moddalarning miqdori  
A) 88-90 %  
B) 91-92%  
C) 92-93%  
D) 94-95%
2. Kunjut urug'i tayyorlashning qaysi bosqichida uning toza mag'zi ajratib olinadi?  
A) kunjutni ivitishda  
B) tuzli eritmaga solishda  
C) begona narsalardan tozalashda  
D) ishqalash paytida
3. Kunjut urug'ini tayyorlashning qaysi bosqichida mag'zi

**qobig‘idan ajra- tiladi?**

- A) tuzli eritmaga solishda
- B) kunjutni ivitishda
- C) begona narsalardan tozalashda
- D) ishqalash paytida

**4.Halvo ishlab chiqarishda karamel massasi tayyorlash uchun shakar va patoka qanday nisbatlarda olinadi?**

- A) 100:200
- B) 100:3
- C) 100:25
- D) 100:50

**5.Halvo ishlab chiqarishda kuvalatish uchun sovunak ildizi qaynatmasi karamel massasiga nisbatna qancha miqdorda qo‘llaniladi?**

- A) 2 %
- B) 0,2 %
- C) 1 %
- D) 3%.

**6.Karamel massasini sovunak ildizi qaynatmasi bilan kuvalash qanday haroratlarda amalga oshiriladi?**

- A) 105-110 °S
- B) 40 °S
- C) 50-60 °S
- D) 85-90 °S

**7. Kunjut urug‘ida yog‘larning miqdori**

- A) 52-56 %
- B) 30-43%
- C) 46-48 %
- D) 55-60%

**8. Kungaboqar urug‘ida yog‘larning miqdori**

- A) 30-43%
- B) 46-48 %
- C) 55-60%
- D) 52-56 %

**9. Yeryong‘oqda yog‘larning miqdori**

- A) 46-48 %
- B) 30-43%
- C) 55-60%
- D) 52-56 %.

**10. Quvlangan qandolat mahsulotlari qaysi guruhlarga bo‘linadi?**

- A) yEngil quvlangan massalar (nishallo, susle va shunga o‘xshashlar) va og‘ir quvlangan massalar (nuga, milliy halvolar)
- B) qandli va unli
- C) to‘g‘ri javob yuq
- D) xamma javoblar to‘g‘ri

# **7-LABORATORIYA ISHI**

## **PECHENYE, PRYANIKLAR TAYYORLASH VA SIFATINI ANIQLASH**

### **Ishdan maqsad**

Laboratoriya sharoitida pechenye va pryaniklar tayyorlashni o'rganish va sifatini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Talabalar tajriba ishini bajarish natijasida qandli, cho'zma, shirmoy pechenyelar va oddiy pryaniklar tayyorlash, ularning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.

### **Ishning mazmuni**

1. Qandli pechenye namunasi tayyorlash.
2. Cho'zma pechenye namunasi tayyorlash.
3. Shirmoy pechenye namunasi tayyorlash.
4. Oddiy sirlangan pryanik namunasi tayyorlash.
5. Korjik namunasini tayyorlash.
6. Pechenye, pryanik va korjiklarning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash.

Kerakli xom ashyolar, jihozlar va kimyoviy reaktivlar:

- xom ashyolar: shakar, patoka, invert qiyomi, vanilin, essensiya, povidlo, kakao kukuni, quruq sut, oshpazlik tuzi, natriy bikarbonat, ammoniy karbonat, makkajuxori kraxmali, ichimlik suvi;
- jihozlar va idishlar: qandolatchilik elektr pechi, elektr plita; SESH-**3M** quritish shkasi, texnik tarozi, refraktometr URL, unli qandolat mahsulotlari zichligini aniqlash uchun moslama, bo'kish qobiliyatini aniqlash uchun moslama, alyumin idishlar va kostryulyalar, byukslar, kimyoviy stakanlar, o'lchov kolbalar va silindrlar, konussimon kolbalar, pipetkalar, chinni idishlar, hovonchalar, shpatellar;

- kimyoiy reaktivlar: 0,1 mol/dm<sup>3</sup> xlorid kislota eritmasi, ko'k brom timol 1 % li eritmasi, paxta filtr, parafin, distillangan suv.

## ASOSIY NAZARIY TUSHUNCHALAR

Unli qandolat mahsulotlari un bilan birgalikda ancha miqdorda shakar, yog', tuxum va boshqa shirmoy mahsulotlari qo'shib tayyorlangan qandolat mahsulotlarining katta guruhini tashkil qiladi.

Ular yuqori oziqaviy qiyomatga, yoqimli ta'mga va jozibador tashqi ko'rinishga ega.


Unli qandolat mahsulotlariga pechenye, pryaniklar, galetlar, krekerlar, kekslar, ruletlar, vaflı, tortlar va pirojniylar kiradi.

Unli qandolat mahsulotlarining eng ko'p tarqalgani pechenye hisoblanadi. Pechenye asosan oliy va birinchi navli unlardan ishlab chiqariladi. Pechenyening asosan qandli, cho'zma (oddiy) va shirmoy turlari mayjud.

*Qandli pechenye* sezilarli darajada g'ovaklikka, mo'rtlikka va bo'kuvchanlikka ega. Uni ishlab chiqarishda osonlikcha uziladigan, plastik xamir qo'llanilganligi tufayli yuzasiga murakkab rasm tushiriladi (9, a-rasm).

*Cho'zma (oddiy) pechenyega* qat-qatlilik xos bo'lib, u pastroq mo'rtlikka va bo'kuvchanlikka ega, qandli pechenyega nisbatan unda kam miqdorda qand va yog' mayjud. U qayishqoq-elastik xamirdan tayyorlanishi tufayli yuzasida oddiy yuzuvlari va sanchib teshilgan oddiy naqshlar bo'lishi mumkin (9, b-rasm).

*Shirmoy pechenyelar* tayyorlashada eng ko'p miqdorda shakar, yog' va tuxum mahsulotlari ishlatiladi. Ular xossalari jihatidan turli bo'lgan xamirdan har xil shakkarda, mayda o'lchamlarda ishlab chiqariladi. Bu pechenye ko'pincha hollarda tashqi tomonidan bezatilgan yoki masalliq bilan qat-qat qilingan holda ishlab chiqariladi (9, v-rasm).



8-rasm. Oandli (a), cho'zma (b) va shirmoy (c) pechenielar ko'rinishi

Turli xil pechenye galet va krekerlarni ishlab chiqarishda xamir asosiy dastlabki yarim tayyor mahsulot hisoblanadi. Tayyor mahsulot sisatiga xamir qorish texnologiyasi katta ta'sir qiladi.

Turli xil pechenye, galet va krekerlar uchun xamir har xil, ayrim

hollarda mutlaqo teskari xossalarga ega. Masalan, qandli pechenye va shirmoy pechenyelarining ko'pkina turlarida xamir plastik xususiyatga, beriladigan shaklini tez oladigan va yaxshi saqlaydigan bo'lishi kerak. Cho'zma (oddiy) pechenye, galet va krekerlarning xamirlari esa qayishqoq-elastik bo'ladi va mexanik ta'sir to'xtatilgandan so'ng dastlabki shaklini tez tiklaydi.

Xom ashylarni har xil nisbatlaridan foydalaniib, xamirning namligi, harorati va qorish davomiyligini o'zgartib, har bir mahsulotga xos xususuyatlarga ega bo'lgan xamirni tayyorlash mumkin.

Pryaniklar - turli xil shakldagi, ko'pincha qavariq yuzali dumaloq shakldagi, ko'p miqdorda qandli moddalar, patoka, asal va turli qo'shimchalar, shu jumladan, har xil ziravorlar qo'shib tayyorlangan unli qandolat mahsulotlaridir.

Pryaniklar azaldan rus xalqining qandolat mahsulotidir. «Pryanik» so'zi «pryanosti» (ziravor) so'zidan olingan, ammo pryaniklarni ko'p turlari barcha mintaqalarda ishlab chiqariladi

Ishlab chiqarish usuliga qarab pryaniklar ikki turga bo'linadi: qaynatma va oddiy pryaniklar. Bundan tashqari, barcha turdag'i pryaniklar masalliqli va masalliqsiz ishlab chiqariladi. Pryaniklar qo'shimchali va qo'shimchasiz shakar qiyomi, shokolad siri bilan sirlanadi yoki ularning yuzasiga shakar, yong'oq mag'izlari va boshqalar sepilidi.

Xamir va pryaniklarning xossalariiga xamirning harorati va namligi ta'sir etadi.

Agar xamirning namligi past bo'lsa, olingan pryaniklar shakl jihatidan yoyilmagan bo'ladi, xamirning namligi yuqori bo'lsa, pryaniklar shakl jihatidan yoyilib ketadi, balandligi kichik bo'ladi.

Oddiy va qaynatma pryaniklar xamiriga shakl berish va ularni pishirish jarayonlari bir-biridan farq qilmaydi.

Ko'pchilik pryaniklarning sirti shakar qiyomi bilan sirlanadi.

Quritish va sovutish jarayonida sirlangan pryaniklar sirtidagi shakar qiyomi shakarining qaytadan kristallanishi natijasida yaltiroq marmarsimon ko'rinishiga ega bo'ladi. Pryaniklar sirtidagi shakar qatlami pryaniklarning qotishini oldini oladi, bundan tashqari pryaniklar ta'mini yaxshilaydi.

## TADQIQOT QISMI

### Ishni bajarish tartibi

Talabalar o'qituvchi topshirig'iga binoan qo'yida keltirilgan variantlarning biri bo'yicha ishni bajaradilar:

- variant 1 – qandli pechenye namunasini tayyorlash;
- variant 2 – cho'zma pechenye namunasini tayyorlash;
- variant 3 – shirmoy pechenye namunasini tayyorlash;
- variant 4 – korjik namunasini tayyorlash;
- oddiy pryanik namunasini tayyorlash;

Ishchi retseptura tuziladi, kerakli suv miqdori hisoblanadi, retseptura bo'yicha barcha kerakli xom ashyolar o'lchab olinadi, alohida variant bo'yicha ishni bajarish uchun kerakli barcha idishlar va laboratoriya jihozlari tanlab olinadi;

Uslubga aniq rioya qilgan holda alohida variant bo'yicha mahsulot tayyorlanadi. Namlikni aniqlash uchun xamirdan namuna olinadi.

Tayyorlangan mahsulotlar GOST 24901-89, GOST 15810-96, KSt 8.00392827-003:2001, KSt 8.00392827-07:2004 talablariga ko'ra organoleptik usulda baholanadi va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Barcha kuzatishlar va aniqlashlarning natijalari laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

**Turli unli qandolat mahsulotlarini tayyorlash**  
***Qandli pechenye namunasini tayyorlash.***

«Shaxmatli» qandli pechenye uchun tasdiqlangan retseptura asosida laboratoriya sharoitida 200 g undan pechenye tayyorlash uchun ishchi retseptura hisoblanadi (35-jadval).

**35-jadval**

Xom ashyolar	Quruq moddalarning miqdori, %	1 t qandli pechenye ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		200 g undan qandli pechenye tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
1-navli bug'doy uni	85,5	670,2	573,0	200,0	171,0
Makkajuxori kraxmali	87,0	49,6	43,2		
Shakar kukuni	99,85	217,8	217,5		
Invert qiyomi	70,0	30,2	21,1		
Margarin	84,0	110,6	92,9		
Melanj	27,0	33,5	9,0		
Oshpazlik tuzi	96,5	4,9	4,7		
Natriy bikarbonat	50,0	5,0	2,5		
Ammoniy karbonat	-	0,9	-		
Essensiya	-	2,7	-		
Jami	-	1125,4	963,9		
Mahsulotning chiqishi	95,0	1000,0	950,0		

Hisoblash  
yo'li bilan  
aniqlanadi

Xamir qorish uchun kerakli suvning miqdori quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$C = \frac{100 \cdot KM}{100 - W} - XA \quad (18)$$

bu yerda C - xamir qorish uchun kerakli suvning miqdori,  $\text{sm}^3$ ;  
 W - xamirning namligi, % (20%).

KM- xamir qorish uchun sarflanadigan ashyodagi quruq moddalar miqdori, g.

XA - xamir qorish uchun sarflanadigan xom ashyoning (suvdan tashqari) miqdori, g.

Xamirning harorati 25°С dan oshmasligi kerak. Buning uchun xom ashyolar va suv xona haroratida (20-23 °C) bo‘lishi kerak.

Xamir emulsiyada qo‘lda qoriladi. Xamir qoriladigan idishga un va kraxmaldan tashqari barcha xom ashyolarni (suv, shakar kukuni, margarin, melanj, invert qiyomi, ichimlik sodasi, tuz, ammoniy karbonat, essensiya) solib yaxshi aralashtirish yoki kuvlash yo‘li bilan emulsiya tayyorlanadi. Emulsiya ustiga birin-ketin un va kraxmal solib xamir tayyorlanadi. Xamir qo‘lda un izlarisiz, yaxshi xamir hosil bo‘lguncha qoriladi.

Tayyor xamirning massasi o‘lchanadi. Xamirdan tekshirish uchun 50 g o‘lchab olinadi, qolganini stol ustiga olib, qalinligi 4 mm qilib yaxshilab yoyiladi va maxsus qoliqlar yordamida shakl beriladi. Shakl berilgan xamir bo‘laklari dastlab yog‘langan tunuka taxtalariga taxlanadi, elektropechda 250-280 °C haroratda 4 min mobaynida pishiriladi. Sovuganidan keyin pechenyening massasi o‘lchanadi va chiqishi aniqlanadi. Pechenyening namligi 5-6 % bo‘lishi kerak.

Tayyor pechenye chiqishini aniqlash uchun u tarozida tortiladi. Pechenyeye sifati organoleptik usulda baholanadi va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

#### *Cho‘zma pechenye namunasini tayyorlash.*

«Sport» cho‘zma pechenye uchun tasdiqlangan retseptura asosida laboratoriya sharoitida 200 g undan pechenye tayyorlash uchun ishchi retseptura hisoblanadi (36-jadval).

## 36-jadval

Xom ashyolar	Quruq modda larning miqdori, %	I t cho'zma pechenye ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		200 g undan cho'zma pechenye tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
I-navli bug'doy uni	85,5	739,9	632,6	200,0	171,0
Makkajuxori kraxmali	87,0	55,4	48,2		
Shakar kukuni	99,85	144,3	144,1		
Invert qiyomi	70,0	14,8	10,4		
Margarin	84,0	88,8	74,6		
Melanj	27,0	29,6	8,0		
Oshpazlik tuzi	96,5	5,5	5,3		
Natriy bikarbonat	50,0	7,4	3,7		
Patoka	78,0	18,5	14,4		
Jami	-	1104,2	941,3		
Mahsulotning chiqishi	93,0	1000,0	930,0		

Hisoblash  
yo'li bilan  
aniqlanadi

Xamir qorish uchun kerakli suvning miqdorini hisoblash, emulsiya tayyorlash va xamir qorish qandli pechenye tayyorlashdagidek amalga oshiriladi. Xamir namligi 27 %, harorati 36 °S bo'lishi kerak. Buning uchun xom ashyoning harorati xona haroratida, suvning harorati 40 °C, patoka yoki invert qiyomining harorati 60 °C bo'lishi kerak.

Qorilgan xamirning massasi aniqlanadi, namligini aniqlash uchun o'lchanma olinadi, qolgan qismi esa stol ustiga qo'yilib, yaxshilab yoyiladi. Xamir qatlami ko'p marotaba qatlanadi va yoyiladi. Har safar xamir qatlami 90° ga aylantiriladi. Keyin xamir qalinligi 4 mm qilib yaxshilab yoyiladi va maxsus qoliplar yordamida shakl beriladi. Shakl berilgan xamir bo'laklari dastlab yog'langan tunuka taxtalariga

taxlanadi, elektropechda 250-280 °C haroratda 4 min mobaynida pishiriladi. Sovuganidan keyin pechenyening massasi o'lchanadi va chiqishi aniqlanadi. Pechenyening namligi 6,5-7,5 % bo'lishi kerak.

Tayyor pechenye chiqishini aniqlash uchun u tarozida tortiladi. Pechenyen sifati organoleptik usulda baholanadi va fizik-kimyoiyik ko'rsatkichlari aniqlanadi.

### *Shirmoy pechenye namunasini tayyorlash.*

«Yulduz» shirmoy pechenye uchun tasdiqlangan retseptura asosida laboratoriya sharoitida 200 g pechenye tayyorlash uchun ishchi retseptura hisoblanadi (37-jadval).

Xamir qorish uchun kerakli suvning miqdorini hisoblash, emulsiya tayyorlash va xamir qorish qandli pechenye tayyorlashdagidek amalga oshiriladi.

**37-jadval**

Xom ashyolar	Quruq moddalarining miqdori, %	1 t shirmoy pechenye ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		200 g shirmoy pechenye tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g		
		asl holda	quruq moddalarida	asl holda	quruq moddalarida	
<b>Yarim tayyor mahsulotlaridan olinadigan tayyor mahsulot retsepturasi:</b>						
<b>1 t uchun</b>					<b>200 g uchun</b>	
Pechenye	95,5	673,2	642,9	138,8	132,6	
Povidlo	66,0	224,4	148,1	46,2	30,5	
Sir	80,0	123,0	98,4	25,4	20,3	
Jami	-	1020,6	889,4	210,4	183,4	
Chiqishi	87,16	1000,0	871,6	200,0	174,3	
<b>Yarim tayyor mahsulot – pechenye retsepturasi</b>						
<b>673,2 kg uchun</b>					<b>138,8 g uchun</b>	
Oliy Navli bug'doy uni	85,5	478,9	409,4	Hisoblash yo'li bilan aniqlanadi		
Margarin	84,0	82,5	69,4			
Shakar kukuni	99,85	163,7	163,4			
Melanj	27,0	33,0	8,9			
Oshpazlik tuzi	96,5	3,0	2,9			
Natriy bikarbonat	50,0	4,0	2,0			
Vanilin	-	0,1	-			

Jami	-	765,2	656,0		
Chiqishi	87,16	673,9	776,0	138,8	132,6
Yarim tayyor mahsulot – qiyom retsepturasi					
		123,0 kg uchun		25,4 g uchun	
Shakar kukuni	99,85	91,6	91,4		
Kakao kukuni	95,0	9,4	9,0		
Jami	-	101,0	100,4		
Chiqishi	78,0	123,0	98,4	25,4	20,3

Xamir namligi 18 %, harorati 25 °C dan oshmasligi kerak. Buning uchun xom ashyolar va suvning harorati xona haroratida 20-23 °C bo‘lishi kerak. Tayyor xamir birjinsli va plastik konsistensiyaga ega bo‘lishi kerak. Xamir dastlab yuzasiga un sepilgan stolga olinadi va o‘qlov yordamida 4-5 mm qalinlikdagi qatlamga yoyiladi. Xamir qatlamidan utkir kungirador uchli qoliqlar yordamida xamir bo‘lakchalari qirqib olinadi va dastlab yuzasiga yog‘ surtilgan tunuka taxtalariga taxlanadi va elektropechda 250-280 °C haroratda 8-10 min mobaynida pishiriladi.

Sovuganidan keyin pechenyening massasi o‘lchanadi va chiqishi aniqlanadi. Pechenyening namligi 4,5-5,0 % bo‘lishi kerak.

Masalliq sifatida meva-rezavorli povidlo ishlataladi. Povidlo teshikchalarining diametri 2 mm dan katta bo‘limgan to‘r orqali o‘tkaziladi. Keyin bitta pechenye yazasiga surtiladi va uning ustiga ikkinchi pechenye qo‘yiladi. Shunday qilib uch qavatli mahsulot hosil bo‘ladi.

Mahsulotni sirlash uchun maza beruvchi sifatida kakao kukuni qo‘shilgan qandli pomada qo‘llaniladi.

Pomada sovuq usulda tayyorlanadi. Buning uchun kuvlovchi moslama idishiga shakar va kakao kukuni, sirning 80 % namligini ta’minlaydigan miqdorda suv solinadi va birjinsli massa hosil bo‘lguncha kuvlanadi.

Retsepturada ko‘rsatilgan miqdordagi sir pechenye yuzasiga

yupqagina surkaladi va quritishgan yuboriladi. Tayyor pechenye chiqishini aniqlash uchun u tarozida tortiladi. Pechenyе sisati organoleptik usulda bahola-nadi va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

### *Korjik namunasini tayyorlash.*

«Pahlavon» korjigi uchun tasdiqlangan retseptura asosida laboratoriya sharoitida 200 g undan korjik tayyorlash uchun ishchi retseptura hisoblanadi (38-jadval).

**38-jadval**

Xom ashyolar	Quruq modda-larning miqdori, %	1 t korjik ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		200 g undan korjik tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g	
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda
I-navli bug'doy uni	85,5	617,0	527,5	200,0	171,0
Margarin	84,0	99,5	83,6		
Shakar	99,85	292,5	292,1		
Melani – xamirga	27,0	8,1	2,2	Hisoblash yo'li bilan aniqlanadi	
Melani – surtishga	27,0	11,9	3,2		
Asl quruq sut	96,0	5,9	5,7		
Ammoniy karbonat	-	5,3	-		
Natriy bikarbonat	50,0	2,7	1,3		
Vanillin	-	0,1	-		
Jami	-	1043,0	915,6		
Mahsulotning chiqishi	87,0	1000,0	871,6		

Xamir qorish uchun kerakli suvning miqdorini hisoblash, emulsiya tayyorlash va xamir qorish qandli pechenye tayyorlashdagidek amalga oshiriladi.

Tayyor xamir 4-5 kg massaga ega bo'laklarga bo'linadi va yuzasiga un dastlab un sepilgan ishlab chiqarish stoliga o'tkaziladi. O'qlog'i yordamida xamirga qalinigi 8-10 mm bo'lgan qatlarn shakli beriladi. Tekislangan xamir qatlidan qirralari utkir metall qolip yordamida doirasimon yoki ovalsimon xamir zuvalalari kesib olinadi. Xamir

zuvalalari yuzasi yog'langan tunuka taxtalariga teriladi. Zavalar yuzasi tuxum eritmasi bilan surtiladi va pishirishga yuboriladi.

Xamir zuvalalari elektr pechda 250-270 °C haroratlarda 8-10 min davomida pishiriladi.

Pishirilgan korjiklar tunuka taxtalardan olinadi va stollarda xona haroratigacha 20-30 min davomida sovutiladi.

Tayyor korjik chiqishini aniqlash uchun tarozida tortiladi. Korjik sifati organoleptik usulda baholanadi va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

### *Oddiy pryanik namunasini tayyorlash.*

«Dolchinli» pryanik uchun tasdiqlangan retseptura asosida laboratoriya sharoitida 200 pryanik tayyorlash uchun ishchi retseptura hisoblanadi (39-jadval).

**39-jadval**

Xom ashylar	Quruq modda-larning miqdori, %	1 t pryanik ishlab chiqarish uchun xom ashylar sarfi, kg		200 g pryanik tayyorlash uchun xom ashylar sarfi, g	
		asl holda	quruq modda-larda	asl holda	quruq moddalarda
<i>Yarim tayyor mahsulotlaridan olinadigan tayyor mahsulot retsepturasi:</i>					
		<i>1 t uchun</i>		<i>200 g uchun</i>	
Pryaniklar	87,0	891,9	776,0	187,7	163,3
Qiyom	78,0	126,2	98,4	25,4	19,8
Jami	-	1018,1	874,4	213,1	183,1
Chiqishi	87,0	1000,0	870,0	200,0	174,0
<i>Yarim tayyor mahsulot – pryanik retsepturasi</i>					
		<i>891,9 kg uchun</i>		<i>187,7 g uchun</i>	
I-navli bug'doy uni	85,5	531,3	454,2		
I-navli bug'doy uni (sepish uchun)	85,5	41,3	35,3		
Margarin	84,0	57,0	47,9		
Shakar	99,85	101,7	101,6		
Melanj	27,0	52,9	14,3		
Patoka	78,0	117,0	91,3		
Invert qiyomi	78,0	52,0	40,6		
Ammoniy karbonat	-	2,9	-		

Hisoblash  
yo'li bilan  
aniqlanadi

Natriy bikarbonat	50,0	0,9	0,4	
Dolchin	100,0	3,8	3,8	
Jami	-	960,8	789,4	
Chiqishi	87,16	891,9	776,0	
Yarim tayyor mahsulot – qiyom retsepturasi				
	126,2 kg uchun		25,4 g uchun	
Shakar	99,85	100,1	99,9	
Chiqishi	78,0	126,2	98,4	

Xamir qorish uchun kerakli suvning miqdorini hisoblash, emulsiya tayyorlash va xamir qorish qandli pechenye tayyorlashdagidek amalga oshiriladi.

Xamirning harorati 22 °C dan oshmasligi kerak. Buning uchun ishlatalidigan xom ashyolar va suvning harorati 20 °C dan oshmasligi kerak.

Tayyor xamirning massasi o'chanadi, namligini aniqlash uchun o'chanma olinadi. Qolgan xamir un sepilgan stol ustiga olinib, o'qlov bilan qalinligi 10 mm qilib yoyiladi va uchi utkir qoliplar yordanida alohida bo'lakchalarga qirqiladi. Shakl berilgan xamir bo'lakchalarini dastlab yog'langan tunuka taxtalariga taxlanadiva elektr pechida 220-240 °C haroratda 7-8 min davomida pishiriladi. Sovuganidan keyin pryaniklarning massasi o'chanadi va chiqishi aniqlanadi.

**Pryaniklarni sirlash.** Dastlab shakar qiyomi tayyorlanadi. Buning uchun alyumin idishga qiyom tayyorlash uchun sarflanadigan shakar va shakar massasiga nisbatan 28 % miqdorida suv solinadi. Aralashma shakar to'la eriganda qiyom hosil bo'ladi.

Sirlash uchun mo'jallangan idish ichiga pryaniklar solinadi, ustidan esa 85-95 °C haroratda shakar qiyomi quyiladi. Pryaniklar kurakcha bilan yaxshilab aralashtiriladi, so'ngra idishdan olinib, to'r ustiga yoyiladi va qiyomdagagi shakarning kristallanishi tusayli pryanik yuzining yaltiroq bo'lguncha quritiladi. Pryaniklarning massasi o'chanadi va chiqishi aniqlanadi.

Pryaniklar sifati organoleptik usulda baholanadi va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

### **Unli qandolat mahsulotlarining organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'rsatkichlarini aniqlash**

*Unli qandolat mahsulotlarining organoleptik sifat ko'rsatkichlarini baholash.*

Mahsulot sifatini organoleptik usulda baholashda uning shakli, sirti, rangi, siniq joyining ko'rinishi, ta'mi va hidining ie'yoriy hujjatlar talablariga mos kelishiga e'tibor beriladi.

Pechenyelarning shakli kvadratsimon, to'rburchaksimon, aylana, ovalsimon yoki turli shaklli bo'lishi mumkin, atroflari tekis yoki shakldor, ezilmagan bo'lishi kerak.

Pryaniklar va korjiklarning shakli aylana yoki ovalsimon, qavariq yoki biroz qavariqsimon bo'ladi.

Pechene, pryanik va korjiklarning sirti tekis bo'lib, ulardagi rasm aniq ifodalangan va kuymagan bo'lishi kerak,

Rangi - butun yuza bo'ylab bir tekis, yaxshi pishgan, lekin kuymagan bo'lishi kerak.

*Siniq joyining ko'rinishi* - yaxshi pishgan, g'ovaklari bir tekis tarqalgan bo'lishi kerak. Bo'shliq, qorilmagan unning izlari bo'lmasligi kerak.

*Ta'mi va hidi* - yaxshi pishirilgan pechenye, pryanik va korjiklarga xos, begona hidsiz va ta'msiz bo'lishi kerak.

Baholash natijalari laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi

#### **Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi**

Mahsulotning nomi \_\_\_\_\_

Ta'mi va hidi \_\_\_\_\_

Hidi \_\_\_\_\_

Shakli \_\_\_\_\_

Sirtining holati \_\_\_\_\_

Rangi \_\_\_\_\_

Siniq joyining ko'rinishi \_\_\_\_\_

Xulosa \_\_\_\_\_

**Pechenye, pryanik va korjiklarni namligi** - tezlashtirilgan usulda quritish yo'li bilan aniqlanadi. Tarozida 0,001 g aniqlikda toza va quritilgan ikkita byuks tortib olinadi. Byukslarga shu aniqlikda olingan 3 g dan mahsulotning o'lchanmasi solinadi. Quritish SESh rusumli quritish shkafida (6-rasm) 130 °S haroratda pechenyelar uchun – 30 min, pryaniklar va korjiklar uchun - 40 min davomida amalga oshiriladi.

Foizlarda ifodalangan mahsulotning namligi 15-formula bilan hisoblanadi.

Olingen natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

### **Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi**

Byuksning o'lchanma bilan quritishdan oldingi massasi (a)	_____ g
Byuksning o'lchanma bilan quritishdan keyingi massasi (v)	_____ g
Mahsulot o'lchanmasining massasi (m)	_____ g
Mahsulotning namligi ( $W_h$ )	_____ %
Xulosa	_____

### **Unli qandolat mahsulotlari ishqoriyligini aniqlash.**

Ishqoriylilik ko'rsatkichi mahsulot tarkibidagi ishqor miqdorini foizlarda yoki gradusda ifodalaydi.

Ishqoriylilik gradusi 100 g mahsulot tarkibida mayjud bo'lgan ishqorni neytral holatga keltirish uchun sarflanadigan 1 mol dm<sup>-3</sup> konsentratsiyali kislotaning yoki 10 g mahsulot tarkibida mayjud

bo'lgan ishqorni neytral holatga keltirish uchun sarflanadigan  $0,1$  mol/dm<sup>3</sup> konsentratsiyali kislotaning sm<sup>3</sup> dagi miqdori bilan ifodalanadi.

Ishqoriylikni aniqlash uchun mayda qilib ezilgan mahsulotdan  $25$  g olib, sig'imi  $500$  sm<sup>3</sup> bo'lgan konussimon kolbaga solinadi; ustiga  $250$  sm<sup>3</sup> distillangan suv quyilib, yaxshilab chayqaladi. Har  $10$  minutda chayqatilish va tindiri tindiriladi. Jami chayqatib, tindirish davomiyligi  $30$  minut. Shundan keyin kolba ichidagi aralashma paxta filtr orqali filtrlanadi, filtratdan  $50$  sm<sup>3</sup> olib, sig'imi  $200-250$  sm<sup>3</sup> hajmli kolbaga solinadi va ko'k bromtimol indikatori ishtirokida  $0,1$  mol/dm<sup>3</sup> kislota eritmasi bilan sariq rang hosil bo'lguncha titrlanadi. Ishqoriylik  $I_{u.m}$  (gradusda) quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$I_{u.m} = n \cdot V_2 \cdot 100 / V_1 \cdot g \cdot 10 = n \cdot 250 \cdot 100 / 50 \cdot 25 \cdot 10 = 2 \cdot n, \quad (19)$$

bu yerda  $n$  – titrlash uchun sarflangan  $0,1$  mol/dm<sup>3</sup> kislota eritmasining miqdori, sm<sup>3</sup>;

$V_2$  – titrlash uchun olingen filtratning hajmi, sm<sup>3</sup>;

$V_1$  – o'chanma ustiga quyilgan suvning hajmi sm<sup>3</sup>;

$g$  - o'chanma massasi, g.

### Laboratoriya jurnaliga yozish tartibi

Titrlash uchun sarflangan  $0,1$  mol/dm<sup>3</sup> kislota

eritmasining miqdori ( $n$ )

\_\_\_\_\_ sm<sup>3</sup>

O'chanma ustiga quyilgan suvning hajmi ( $V_2$ )

\_\_\_\_\_ sm<sup>3</sup>

Titrlash uchun olingen eritmaning hajmi ( $V_1$ )


\_\_\_\_\_ sm<sup>3</sup>

O'chanmaning massasi (g)

\_\_\_\_\_ g

Mahsulotning ishqoriyligi ( $I_{u.m}$ )

\_\_\_\_\_ grad



10-rasm. Unli qandolat mahsulotlari zichligini aniqlash uchun moslama:  
1-ilgak; 2-ramka; 3-ochib olinadigan ramka; 4-toshcha osish uchun qo'shimcha ilgak.

ta pechenye (pryanik)ning massasi maxsus moslashtirilgan texnik tarozida 0,01 g aniqlikda tortib olinadi, keyin eritilgan parafin ichiga tushiriladi (parafinning harorati qotish haroratiga yaqin bo'lishi kerak) va parafin qotgandan keyin pechenye (pryanik)ning massasi yana o'lchanadi. Masalalar orasidagi farq orqali parafin massasi aniqlanadi.

Pechenye massasini suvda o'lhash uchun, mahsulot tarozi shayiniga osiladigan maxsus moslamaga (10-rasm) joylashtiriladi. Moslama zanglan-maydigan simdan tayyorlanadi. Mahsulotning moslama bilan birga-likdagi massasi ikki marotaba tortiladi: havoda va stakanadagi 20 °C haroratga ega bo'lgan distillangan suvgaga botirliganda. Agar moslamada joylashtirgan pechenye suvgaga tushiril-gandan keyin yuzaga qalqib chiqsa, u paytda moslamaning pastki ilgaki 4 ga tarozi toshchasi ilinadi. Toshchaning massasi moslamaning havodagi massasiga qo'shiladi.

Shundan keyin mahsulot olinadi va moslamaning suvdagi massasi aniqlanadi. Qo'shimcha toshcha ishlataliganda, moslama massasi toshcha Bilan birgalikda aniqlanadi.

Mahsulotning zichligi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

*Pechenye zichligini aniqlash.*  
Pechenye zichligini aniqlash uchun uning massasi va hajmini o'lhash kerak. Mahsulot hajmini aniqlash uchun uning massasi havoda va suvda o'lchanadi. Suvni yutishini bartaraf etish uchun mahsulot dastlab parafin qatlami bilan qoplanadi. Mahsulot massasining o'zgarishiga qarab uning hajmi aniqlanadi.

Ish quyidagi tartibda bajariladi. I

$$D = \frac{a}{\frac{c - c_1}{d} - \frac{b - b_1}{d} - \frac{a_1 - a}{d_1}} = \frac{a}{V_3 - V_1 - V_2} \quad (20)$$

bu yerda:  $a$  – pechenyening havodagi massasi, g;  
 $a_1$  – parafinlangan pechenyening havodagi massasi, g;  
 $d$  – suvning  $20^{\circ}\text{C}$  dagi zichligi ( $1 \text{ g/sm}^3$ );  
 $d_1$  – parafinning zichligi ( $\text{o}'rtacha } 0,92 \text{ g /sm}^3$ );  
 $b$  – moslamaning havodagi massasi, g;  
 $b_1$  – moslamaning suvdagi massasi, g;  
 $c$  – moslamaning parafinlangan pechenye bilan birgalikda  
 havodagi massasi, g;  
 $c_1$  – moslamaning parafinlangan pechenye bilan birgalikda  
 suvdagi massasi, g;  
 $V_3$  – parafinlangan pechenyening moslama bilan birgalikdagi  
 hajmi,  $\text{sm}^3$ ;  
 $V_1$  – moslamaning hajmi,  $\text{sm}^3$ ;  
 $V_2$  – parafinning hajmi,  $\text{sm}^3$ . qandli pechenye

Pechenyе va pryaniklar zichligining qiymatiga ko'ra ularning g'ovakliligi tavsisi 40-jadvalda keltirilgan.

### Pechenyе va pryaniklar g'ovakliligining tavsisi

40–jadval

Mahsulot	G'ovaklilik holatdagi zichlik ( $\text{g/sm}^3$ )		
	yaxshi	o'rtacha	yomon
Pechenyе:			
qandli	0,60 dan yuqori emas	0,63 dan	0,64 va yuqori yuqori emas
cho'zma	0,55 dan yuqori emas	0,58 dan	0,59 va yuqori yuqori emas
Pryaniklar	0,56 dan yuqori emas	0,62 dan	0,63 va yuqori yuqori emas

## Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi

Pechenyening havodagi massasi (a)	_____ g
Parafinlangan mahsulotning havodagi massasi ( $a_1$ )	_____ g
Suvning $20^{\circ}\text{C}$ dagi zichligi (d)	l g/sm <sup>3</sup>
Moslamaning havodagi massasi (b)	_____ g
Moslamaning suvdagi massasi ( $b_1$ )	_____ g
Moslamaning parafinlangan mahsulot bilan birga havodagi massasi (c)	_____ g
Moslamaning parafinlangan mahsulot bilan birga suvdagi massasi ( $c_1$ )	_____ g
Parafinlangan mahsulotning moslama bilan birgalikdagi hajmi ( $V_2$ )	_____ sm <sup>3</sup>
Moslamaning hajmi ( $V_1$ ),	_____ sm <sup>3</sup>
Parafinning hajmi ( $V_2$ )	_____ sm <sup>3</sup>
Pechenyening zichligi (D)	_____ g/sm <sup>3</sup>
Xulosa _____	

*Unli qandolat mahsulotlarining suvni singdirish (bo'kish)  
qobiliyatini aniqlash.*

Suvni singdirish (bo'kish) qobiliyatini aniqlash uslubi unli qandolat mahsulotlarini  $20^{\circ}\text{C}$  haroratda ma'lum vaqt mobaynida suvgaga botirish natijasida massasi ortishini aniqlashga asoslangan. Foizlarga ifodalangan bo'kkun mahsulot massasining namlanmagan mahsulot massasiga nisbati uning suvni singdirish (bo'kish) qobiliyatini tavsiflaydi.

Bu ko'satkichni aniqlash uchun zanglamaydigan metalli to'rdan tayyorlangan uch bo'limli katakchalarga joylangan unli qandolat mahsulotining o'lchanmasi suvgaga botiriladi.

To'r 0,5 mm li simdan tayyorlangan bo'lib, teshikchalarining o'lchamlari 2 mm<sup>2</sup> dan ortmaydi.

Katakning har bir bo'limiga uchidan pechenye joylanadi va massasi tarozida o'lchanadi. Katak  $20^{\circ}\text{C}$  haroratlari suv solingan idishga

tushiriladi va pechenyelar 2 min, galetlar 4 min saqlanadi. Katak suvdan chiqariladi va qiya holatda 30 soniya saqlanadi. Kataknin tashqi yuzasi artgandan keyin massasi tarozida tortib aniqlanadi.

Suvni singdirish (bo'kish) qobiliyati quyidagi formula bilan hisoblanadi

$$S_{s,q} = \frac{(g_2 - g_0) \cdot 100}{(g_1 - g_0)}, \quad (21)$$

bu yerda  $g_0$  – suvda botirib olingen va tashqi yuzalari artilgan bo'sh kataknin massasi, g;

$g_1$  – namlanmagan o'lchanma joylashgan kataknin massasi, g;

$g_2$  – bo'kkан o'lchanma joylashgan kataknin massasi, g;

$S_{s,q}$  – unli qandolat mahsuloti suvni singdirish (bo'kish) qibiliyati.

Olingen natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

#### Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi

Suvda botirib olingen va tashqi yuzalari artilgan bo'sh kataknin massasi ( $g_0$ )

\_\_\_\_\_ g

Namlanmagan o'lchanma bilan kataknin massasi ( $g_1$ )

\_\_\_\_\_ g

Bo'kkан o'lchanma bilan kataknin massasi ( $g_2$ )

\_\_\_\_\_ g

Unli qandolat mahsuloti suvni singdirish (bo'kish)  
qibiliyati ( $S_{s,q}$ )

\_\_\_\_\_ %

Barcha variantlar asosida tayyorlangan unli qandolat mahsulotlarining organoleptik va fizik-ximiyaviy sifat ko'rsatkichlari umumiy jadvalga (kiritiladi va me'yoriy hujjatlar bilan taqqoslanib umumiy xulosa chiqariladi (41).

#### Talabaning mustaqil ishi

7-laboratoriya ishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida talaba ma'ruzalar matnidan «Pechenye, galet, krekerlar va pryaniklar ishlab chiqarish texnologiyasi» mavzularini va uslubiy qo'rsatmalardagi

## Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi

41-jadval

Unli qandolat mahsulotlari-ning nomi	Shakli va tashqi ko'rinishi	Strukturasi	Kon-sis-tent-siya si	Ta'mi va hidi	Nam - ligi, %	Ishqo-riy-ligi, grad	Bo'kis h qobi-lyati
Qandli pechenye «Shaxmatli»							
Cho'zma pechenye «Sport»							
Shirmoy pechenye «Yulduz»							
«Oddiy pryanik «Dolchinli»							
Korjik «Pahlavon»							

Ushbu tajriba ishiga tegishli «Asosiy nazariy tushunchalar» bo'limini o'zlashtirishi, laboratoriya qaydnomasini rasmiylashtirishi; quyida keltirilgan savollardan foydalanib nazariy qismni o'zlashtirish darajasini tekshirishi kerak.

### Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Unli qandolat mahsulotlari qanday turlarga bo'linadi?
2. Qandli pechenye tavsifini keltiring.
3. Cho'zma pechenye tavsifini keltiring.
4. Shirmoy pechenye tavsifini keltiring.
5. Pryaniklar qanday turlarga bo'linadi?
6. Laboratoriya sharoitida qandli pechenye qanday tayyorlanadi?
7. Laboratoriya sharoitida cho'zma pechenye qanday tayyorlanadi?
8. Laboratoriya sharoitida shirmoy pechenye qanday tayyorlanadi?
9. Laboratoriya sharoitida oddiy pryaniklar qanday tayyorlanadi?
10. Laboratoriya sharoitida korjiklar qanday tayyorlanadi?

- 11.Unli qandolat mahsulotlarining organoleptik sifat ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?
- 12.Unli qandolat mahsulotlarining namligi qanday aniqlanadi?
- 13.Unli qandolat mahsulotlarining ishqoriyligi qanday aniqlanadi?
- 14.Unli qandolat mahsulotlarining zichligi qanday aniqlanadi?
- 15.Unli qandolat mahsulotlarining bo'kish (namni singdirish) qobiliyati qanday aniqlanadi?

#### **Laboratoriya ishga oid diagnostik testlar**

**1.Yuzasida murakkab rasm, mo'rtlik va yaxshi bukuvchanlik qaysi mahsulotga xos?**

- A) qandli pechen'ega
- B) oddiy pechen'ega
- C) vafliga
- D) pryaniklarga

**2.Qaysi javobda qandli pechen'e uchun xamir tayerlashning asosiy parametrlari to'g'ri keltirilgan?**

- A)  $t= 25^{\circ}\text{C}$  gacha,  $W= 14,5\text{-}17,5\%$ ;
- B)  $t= 25^{\circ}\text{C}$  gacha,  $W= 22\text{-}25\%$
- C)  $t= 30\text{-}40^{\circ}\text{C}$ ,  $W= 25\text{-}26\%$  ;
- D)  $t= 30\text{-}40^{\circ}\text{C}$ ,  $W= 14,5\text{-}17,5\%$ ;

**3.Ko'pgina unli qandolat mahsulotlarining xamirini tayyorlashda xamirni etiltiruvchi sifatida asosan nima qo'llaniladi?**

- A) ichimlik sodasi va ammoniy karbonat tuzi
- B) preslangan achitqi (drojji):
- C) achitqi (drojji) suti:
- D) sut qatiq mahsulotlari:

**4.Unli qandolat mahsuloti retsepturasidagi qaysi komponent tayyor mahsulotning bo'yاليshiga ta'sir etadi?**

- A) invert qiyomi
- B) un

C) shakar;

D) kraxmal

**5. Kreker va galet tayyorlashda qaysi etiltiruvchilar qo'llaniladi?**

A) achitqi va kimyoviy etiltiruvchilar;

B) tuxum oqsili;

C) preslangan achitqi;

D) kimyoviy etiltiruvchilar;

**6. Qaysi mahsulotga murakkab rasmsiz silliq yuza qat-qatlilik xos?**

A) oddiy (cho'zma) pechen'ega

B) qandli pechen'ega

C) vafliga;

D) pryaniklarga

**7. Pryaniklar –**

A) turli xil shakldagi, ko'pincha qavariq yozali dumaloq shakldagi, ko'p miqdorda qandli moddalar, patoka, asal va turli qo'shimchalar, shu jumladan, har xil ziravorlar qo'shib tayyorlangan unli qandolat mahsulotlaridir

B) turli shakldagi, o'lchamlardagi va har xil ta'm va xushbo'ylikka, jozibador tashqi ko'rinishiga ega bo'lgan yuqori kaloriyalı unli qandolat mahsulotlaridir

C) unli qandolat mahsulotlari bo'lib, bug'doy unidan achitqi va kimyoviy yetiltiruvchilardan foydalanib ko'pincha shakarsiz va yog'siz, qayishqoq xamirdan tayyorlanadi

D) qat-qatlilik xos bo'lib, u pastroq mo'rtlikka va bo'kuvchanlikka ega, qandli pechenyega nisbatan unda kam miqdorda qand va yog' mavjud

**8. Pryaniklarni saqlash vaqtি**

A) 20-45 kun

B) 15 sutka

C) 1 oy gacha

D) 2 oy gacha

**9.Oddiy pryaniklar .....haroratda pishiriladi.**

- A) 220-240 °C
- B) 190-210 °C
- C) 250 °C ° C
- D) 180-220 °C

**10.«Yalpizli» pryaniklari .....haroratda pishiriladi.**

- A) 190-210 °C
- B) 250 °C ° C
- C) 180-220 °C
- D) 220-240 °C

**11.Shakldor pryaniklar.....haroratda**

- A) 250 °C
- B) 190-210 °C
- C) 180-220 °C
- D) 220-240 °C

**12.Qaynatma pryaniklar.....haroratda**

- A) 210-220 °C
- B) 250 °C
- C) 190-210 °C
- D) 180-220 °C

**13.Kovrijkalar .....haroratda**

- A) 180-220 °C
- B) 210-220 °C
- C) 250 °C
- D) 190-210 °C

**14.Pryaniklarni qanday qadoqlanadi**

- A) pachkalar yoki qutichalarga
- B) bochkalarga
- C) selosanga
- D) konteynerlarga

## **8-LABORATORIYA ISHI**

### **PIROJNIY VA TORT TAYYORLASH VA SIFATINI ANIQLASH**

#### **Ishdan maqsad**

Laboratoriya sharoitida pirojniy va tort tayyorlashni o'rganish va sifatini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Talabalar tajriba ishini bajarish natijasida pirojniy va tortlarning asosiy pishirilgan va bezovchi yarim tayyor mahsulotlarini tayyorlash, mahsulotlarga bezak berish, ularning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.

#### **Ishning mazmuni**

1. Qaymoqli qaynatma pirojniy namunasini tayyorlash.
2. Biskvitli «Afsona» torti namunasini tayyorlash.
3. Pirojniy va tortning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash.

Kerakli xom ashylar, jihozlar va kimyoviy reaktivlar:

- xom ashylar: oliv navli bug'doy uni, shakar, 50 % yog'lili qaymoq, tovuq tuxumi (melanj) margarin, shokolad, marmelad, bodom mag'zi, yunon yong'og'i mag'zi, eruvchan kofe, vanilin, natriy bikarbonat, ichimlik suvi;
- jihozlar va idishlar: qandolatchilik elektr pechi, qandolatchilik qoliplar va xaltachalar, kuvlovchi mashina, elektr plita; SESh-3M quritish shkafsi, texnik tarozi, refraktometr URL, Sokslet apparati, unli qandolat mahsulotlari zichligini aniqlash uchun moslama, bo'kish qobiliyatini aniqlash uchun moslama, alyumin idishlar va kostryulyalar, byukslar, kimyoviy stakanlar, o'lechov kolbalar va silindrlar, konussimon kolbalar, pipetkalar, chinni idishlar, hovonchalar, shpatellar;
- kimyoviy reaktivlar: xloroform yoki tetraxlormetan erituvchilar, kimyoviy reaktivlar: eritilmagan xlorid kislota (zichligi 1,19) quruq natriy yoki kaliy gidrookisi va uning 25 % li eritmasi, metiloranji

% li eritmasi, kaliy ferritsianid – qizil qon tuzi ( $K_3Fe(CN)_6$ ), eritmasi, 1 mol/dm<sup>3</sup> rux sulfat eritmasi, natriy yoki kaliy gidroksidning 1 mol/dm<sup>3</sup> eritmasi, ko‘k metilen 1 % li eritmasi, kimyoviy toza saxaroza, paxta, filtr qog‘oz, distillangan suv.

## ASOSIY NAZARIY TUSHUNCHALAR

Pirojnoe va tortlar - turli shakldagi, o‘lchamlardagi va har xil ta’m va xushbo‘ylikka, jozibador tashiqi ko‘rinishiga ega bo‘lgan yuqori kaloriyali unli qandolat mahsulotlaridir. Tortlar pirojnoega nisbatan o‘lchami jihatidan katta va yuzasi murakkab badiiy bezatilgan bo‘ladi. Pirojnoe esa kichik o‘lchamli va turli xil shakldagi mahsulotdir. Pirojnoe va tortlarning asosiy qismi tarkibida qo‘p miqdorda nam va yog‘ bo‘lganligi sababli kam muddatda saqlanadi.

Pirojnoe va tortlar odatda turli shakldagi har xil ishlov beri-ladigan pishirilgan yarim tayyor mahsulotlardan iborat.

Pirojnoe va tortlar asosiy pishirilgan yarim tayyor mahsulot - pishirilgan xamir mahsulotlariga ko‘ra tasniflanadi. Asosiy pishirilgan yarim tayyor mahsulotning quyidagi turlari qo‘llaniladi: biskvitli, qumoqli, bodomli-yong‘oqli, vaflili, oqsilli-quvlangan, qaynatma, uvoqli. Bezash uchun qandolat ishlab chiqarishdagi turli yarim tayyor mahsulotlar qo‘llaniladi. Asosiy bezovchi yarim tayyor mahsulotlardan biri bo‘lib turli kremlar (yog‘li, qaynatma, qaymoqli, oqsilli va boshqalar) hisoblanadi.

Kremlar ishlab chiqarishda asosiy jarayon bo‘lib sariyog‘, tuxum va boshqa mahsulotlarning shakar bilan kuvlash hisoblanadi. Bunda sariyog‘ havo bilan to‘yinadi, yEngil va plastik holatga ega bo‘ladi. Bezash uchun kremlardan tashqari, marmelad, turli xil pomadalar va qiyomlar, karamel massasidan tayyorlangan mahsulotlar (yaproqchalar, gullar, va hokazo), meva-rezavor yarim tayyor mahsulotlari, shokolad siri, hajmli va tekis shakldor shokolad va boshqalar qo‘llaniladi (10, 11 rasmlar).

Pirojnoe va tortlar yuqori to'yimlilik va organizmda yYengil hazm bo'lish qobiliyatiga ega. Buning sababi - ularni ishlab chiqarish uchun faqatgina tabiiy yuqori kaloriyalı xom ashyolar (sariyog‘, tuxum, yong‘oq mag‘izlari, kakao mahsulotlari, un shakar, sut mahsulotlari va shunga o‘xshashlar) qo‘llaniladi.

Pirojnoe va tortlarni, ayniqsa turli kremlar bilan bezatiladiganlarini ishlab chiqarishda, maxsus sanitariya qoidalariga rioxalish muhim ahamiyatga ega. Bu qoidalar korxona xududi, xom ashyolarni saqlash omborxonalarini, ishlab chiqarish binolari, jihozlar va asboblarning sanitariyasiga kuchaytirilgan talablarni qo‘yadi. Tayyor pirojnoe va tortlarni saqlash va tashish bo‘yicha alohida sanitariya talablari tasdiqlangan.



11- rasm. Turli navli pirojniylarning ko'rinishi



a



b

12-ram. Biskvitli tortlar  
a-hajmli shokolad bilan bezatilgan tort «Lira»;  
b-mahalliy qaymoq bilan bezatilgan tort «Afsona»

Turli tipdag'i pirojnoe va tortlarni ishlab chiqarish texnologiyasi quyidagi asosiy umumiy bosqichlardan iborat: asosiy pishirilgan yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlash, bezovchi yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlash va bezash. Har qaysi bosqich ko'pgina alohida ishlab chiqarish bosqichlaridan iborat.

### **TADQIQOT QISMI**

#### **Ishni bajarish tartibi**

Talabalar guruhchalarga bo'linib o'qituvchi topshirig'iga binoan qo'yida keltirilgan variantlarning biri bo'yicha ishni bajaradilar:

- variant 1 – qaymoqli qaynatma pirojnih namunasini tayyorlash;
- variant 2 – bikvitli «Afsona» tort namunasini tayyorlash;

Ishchi retseptura tuziladi, retseptura bo'yicha barcha kerakli xom ashyolar o'lchab olinadi, alohida variant bo'yicha ishni bajarish uchun kerakli barcha idishlar va laboratoriya jihozlari tanlab olinadi;

Uslubga aniq rioya qilgan holda alohida variant bo'yicha mahsulot tayyorlanadi.

Tayyorlangan mahsulotlar O'z TSh 8-67-94, KSt 64.16166108-  
169

04:2001, KSt 64.16166108-05:2003, talablariga ko'ra organoleptik usulda baholanadi va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Barcha kuzatishlar va aniqlashlarning natijalari laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

### **Pirojniy va tort namunalarini tayyorlash**

*Qaymoqli qaynatma pirojniy namunasini tayyorlash.*

Qaymoqli qaynatma pirojniy uchun tasdiqlangan retseptura asosida laboratoriya sharoitida 500 g pirojniy tayyorlash uchun ishchi retseptura hisoblanadi (42-jadval).

**42-jadval**

Xom ashyolar	Quruq moddalarining miqdori, %	1 t qaymoqli qaynatma pirojniy ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		500 g qaymoqli qaynatma pirojniy tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g		
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda	
Yarim tayyor mahsulotlardan olinadigan pirojniy retsepturasi:						
I t uchun                                    500 g uchun						
Qaynatma yarim tayyor mahsulot	65,0	370,00	240,5	194,8	126,6	
Qaymoqli krem	73,36	590,00	432,9	310,5	227,8	
Shokolad	99,0	40,00	39,6	21,1	20,9	
Jami	-	1000,0	713,0	526,4	375,3	
Chiqishi	71,3	1000,0	713,0	500,0	356,5	
Yarim tayyor mahsulot retsepturasi – qaynatma yarim tayyor mahsulot 370,0 kg uchun                                    194,8 g uchun						
Oliy navli bug'doy uni	85,5	176,1	150,5	Hisoblash yo'li bilan aniqlanadi		
Margarin	84,0	52,8	44,4			
Melanj	27,0	211,4	57,1			
Natriy bikarbonat	50,0	2,4	1,2			
Jami	-	442,7	253,2			

Chiqishi	87,16	370,0	776,0	194,8	126,6
Yarim tayyor mahsulot retsepturasi – qaymoqli krem					
	590,0 kg uchun			310,5 g uchun	
Shakar kukuni	99,85	251,2	250,8		
50 % yog‘lili qaymoq	55,0	361,29	198,70		
Jami	-	612,51	449,54		
Chiqishi	78,0	590,00	432,82	310,5	227,8

Qaymoqli qaynatma pirojnoe tayyorlash quyidagi asosiy bosqichlardan iborat: xamir tayyorlash; yarim tayyor mahsulotga xos shaklni berish; yarim tayyor mahsulotni pishirish va sovutish; yarim tayyor mahsulotni shokolad siri bilan bezash; qaymoqli krem tayyorlash, qaynatma yarim tayyor mahsulot bo‘sning‘ini krem bilan to‘ldirish; tayyor mahsulotni joylash va saqlash.

#### *Xamir tayyorlash* jarayoni ikki bosqichdan iborat:

- un, suv va margarindan qaynatma tayyorlash;
- tayyorlangan qaynatmani melanj (tuxum oqi va sarig‘ining tabiiy nisbatdagi aralashmasi) bilan qorish.

*Qaynatma tayyorlash.* Elektr plitkada sirlangan idishda suv qaynaguncha qizdiriladi va margarin qo’shib yaxshigina aralashtiriladi. Keyin asta-sekinlik bilan un qo’shib turib, idish tagidan yEngilgina ajraladigan birjinsli massa hosil bo‘lguncha aralashtirish davom ettiriladi. Hosil bo‘lgan massaning harorati 80-85 °S, namligi 65-66 % ni tashkil qiladi. Keyin massa stol yuzasiga sovutish uchun surkaladi.

*Qaynatmani melanj bilan qorish.* Qaynatma stol yuzasidan olinib qozonga solinadi va aralashtirib turgan holda uning ustiga retsepturaga ko‘rsatilgan miqdorda melanj va natriy bikarbonat qo’shiladi. Qorish davomiyligi 15-20 minutni tashkil qiladi.

Tayyor xamir yaxshi aralashtirilgan bir jinsli massa bo‘lishi kerak. Xamir namligi 65-66 % ni tashkil qiladi.

### *Yarim tayyor mahsulotga xos shaklni berish.*

Xamirga qo‘ndirish usuli bilan shakl beriladi. Buning uchun yuzasi daslab yog‘langan tunuka taxtaga qandolatchilik xaltasi yordamida yumaloq shakldor yarim tayyor mahsulot xamiri qo‘ndiriladi.

*Yarim tayyor mahsulotni pishirish va sovutish.* Yarim tayyor mahsulot shakldor xamiri taxlangan tunuka taxtalari elektr pechiga ko‘chiriladi va 220 °S haroratda 30 minut davomida pishiriladi. Pishirilgan yarim tayyor mahsulot tunuka taxtalaridan bo‘shatiladi va xona haroratigacha sovutiladi.


*Yarim tayyor mahsulotni shokolad siri bilan bezash.* Yarim tayyor mahsulot yuzasi shokolad siri bilan bezaladi va sovutiladi. Bunda uning yazasida qotgan shokolad qobig‘i hosil bo‘ladi.

*Qaymoqli krem tayyorlash.* Kuvlovchi mashina tog‘orasiga sovutilgan qaymoq quyiladi va ishchi organni past va o‘rta tezligida 20-25 minut, keyin katta tezligida 1 minut turg‘un mayda g‘ovakli massa hosil bo‘lguncha kuvlanadi. Quvlangan massa ehtiyotlik bilan shakar kukuni bilan aralashtiriladi. Tayyor krem sovutgichda 5-8 °S haroratda saqlanadi va tayyorlangan vaqtidan boshlab 3 soat vaqt davomida ishlataladi.


*Yarim tayyor mahsulot bo‘shlig‘ini krem bilan to‘ldirish.* Pishirilgan qaynatma yarim tayyor mahsulot qandolatchilik xaltachasining naychasi bilan teshiklanadi va ichidagi bo‘shliq krem bilan to‘ldiriladi.

Tayyor pirojniy chiqishini aniqlash uchun u tarozida tortiladi. Pirojmiyning sisati organoleptik usulda baholanadi va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari aniqlanadi.


Tort va pirojniylashni tayyorlash va ularni bezashda turli xil moslamalar qo‘llaniladi. Ularning ko‘rinishlari 12, 13, 14, 15-rasmarda keltirilgan.






**13-rasm. Qandolat massalariga ishlov berish uchun turli anjomlar**  
 1-dastaksiz o'g'lov; 2-dastakli temir o'g'lov; 3-taram-taram navli temir o'g'lov; 4-diskli pichoq; 5-disklari yanin joylashganpichoq; 6-katta qatlamlarni siljitim  
 uchun kapcha; 7-mahsulotlarni qadoqlash uchun kapcha;  
 8-kam miqdordagi massani aralashish uchun yog' och kapcha



**14-rasm Qandolatchilik hamirini kesish uchun oddiy va shakldor pichoqlar**



15-rasm. Qandolatchilik  
xaltsachka(s), shakl beruvchi  
mostamia (b).



16 – rasm. Uchi turli shaklga ega shakl beruvchi mostamalar

### *Biskvitli «Afsona» torti namunasini tayyorlash.*

Biskvitli «Afsona» torti uchun tasdiqlangan retseptura asosida laboratoriya sharoitida 500 g tort tayyorlash uchun ishchi retseptura hisoblanadi (43-jadval).

**43-jadval**

Xom ashyolar	Quruq modda-larning miqdori, %	1 t qaymoqli qaynatma pirojniy ishlab chiqarish uchun xom ashyolar sarfi, kg		500 g qaymoqli qaynatma pirojniy tayyorlash uchun xom ashyolar sarfi, g		
		asl holda	quruq moddalarda	asl holda	quruq moddalarda	
Yarim tayyor mahsulotlardan olinadigan tort retsepturasi:						
		1 t uchun		500 g uchun		
Biskvit	78,0	350,0	273,0	175,0	136,5	
Masalliq	67,4	300,0	202,2	150,0	101,1	
Qaymoqli krem	73,36	315,0	231,2	157,5	115,6	
Shokolad	99,0	20,0	19,8	10,0	9,9	
Marmelad	80,0	7,0	5,6	3,5	2,8	
Bodom qirindisi	96,0	8,0	7,6	4,0	3,8	
Jami	-	1000,0	739,4	526,4	369,7	
Chiqishi	73,94	1000,0	739,4	500,0	369,7	
Yarim tayyor mahsulot retsepturasi – biskvit						
350,0 kg uchun				175,0 g uchun		
Oliy navli bug'doy uni	85,5	152,52	130,41	Hisoblash yo'li bilan aniqlanadi		
Tovuq tuxumi	27,0	102,42	27,65			
Shakar	99,85	128,83	128,64			
Vanilin	-	0,13	-			
Natriy bikarbonat	50	1,53	0,76			
Jami	-	385,43	287,46			
Chiqishi	78,00	350,00	273,00	175,0	136,5	
Yarim tayyor mahsulot retsepturasi – masalliq						
300,0 kg uchun				150 g uchun		
Qaynatma krem	47,00	101,10	47,52	50,5	23,8	
Qaymoqli krem	73,36	168,59	123,68	84,3	61,8	
Yunon yong'og'i qirindisi	96,00	33,70	32,35	16,9	16,2	
Ervuchan kofe	98,00	3,44	3,37	1,7	1,7	
Jami	-	306,83	206,93	153,4	103,5	
Chiqishi	67,40	300,0	202,2	150,0	101,1	
Yarim tayyor mahsulot retsepturasi – qaynatma krem						
101,1 kg uchun				50,5 g uchun		
Margarin	84,0	7,67	6,44	Hisoblash yo'li bilan aniqlanadi		
Oliy navli bug'doy uni	85,5	15,33	13,11			
Shakar	99,85	60,62	30,58			
Vanilin	-	0,23	-			

Jami	-	53,65	50,13		
Chiqishi	47,0	101,10	47,52	50,5	23,8
Yarim tayyor mahsulot retsepturasi – qaymoqli krem 590,0 kg uchun 157,5 g uchun					
Shakar kukuni	99,85	296,13	162,87		
50 % yog'lili qaymoq	55,0	205,91	205,60		
Jami	-	502,04	368,47		
Chiqishi	78,0	483,59	354,88	157,5	115,6

Biskvitli «Afsona» tortni tayyorlash quyidagi asosiy bosqichlardan iborat: biskvit xamirini tayyorlash; asosiy biskvitli yarim tayyor mahsulotni tayyorlash; qaynatma va qaymoqli kremlarni tayyorlash; massaliqni tayyorlash; tortni bezash.

*Xamir tayyorlash.* Biskvit xamirini tayyorlash tuxum va shakar aralashmasini hajmi 2,5-3 marotaba ortguncha aralashtirish va kuvlashdan iborat.

Dastlab tuxum oqi sarig'idan ajraladi. Xamir qorish uchun mo'ljallangan idishga tuxum sarig'i va retsepturada ko'rsatilgan shakarning 1/2 qismi solinadi. Chilcho'p (kuvlagich) bilan aralashma ko'prtirilgan oq massa holatiga kelguncha kuvlanadi. Jarayonning oxirida aralashmaga vanilin va natriy bikarbonat qo'shiladi. Kuvlash davomiyligi 30-40 minutni tashkil qiladi.

Shu bilan birgalikda alohida toza idishda tuxumning oqi chilcho'p (kuvlagich) yordamida 20-30 min davomida turg'un, yaxshi ko'prtirilgan ko'pik hosil bo'lгuncha kuvlanadi.

Quvlangan tuxum sarig'iga retsepturada ko'rsatilgan un miqdori qo'shiladi va qo'moqchalarni bartaraf etib bir jinsli massa olguncha aralashtiriladi. Keyin quvlangan oqsil solinadi va qisqa muddal kuvlanadi.

Qandolatchilik tunuka taxlasiga pergament qog'ozni to'shaladi, uning yuzasiga tayyorlangan xamir tekis qatlam ko'rinishada surkaladi va pishirish uchun elektr pechida qo'yiladi.

*Asosiy yarim tayyor mahsulot* xamirni pishirish yo'li bilan olinadi. Pishirish elektr pechida 270 °S haroratda 30 min davomida amalga oshiriladi. Pishirilgan yarim tayyor mahsulot qandolatchilik tunuka taxtasida 6 soat davomidasovutiladi. Shundan keyin u qog'oz va tunuka taxtadan ajratib olinadi.

*Qaymoqli krem tayyorlash* qaymoqli qaynatma pirojnih tayyorlashdagiday amalga oshiriladi.

#### *Qaynatma krem tayyorlash.*

Sirlangan idishga aralashmaning 53-55 % namligini ta'minlash uchun hisoblangan suv miqdori solinadi, qaynatguncha qizdiriladi va margarin solinib aralshtirish yo'li bilan eritiladi. Keyin retsepturada ko'rsatilgan miqdorda un va shakarning aralashmasi solinib, 10-15 min davomida aralashtirib, quyultiriladi. Olingan qaynatma krem xona haroratigachasovutiladi.

*Masalliqni tayyorlash.* Masalliqni tayyorlash qaynatma krem, qaymoqli krem, maydalangan Yunon yong'og'i va eruvchan kofening aralashtirish yo'li bilan tayyorlanadi. Tayyorlangan masalliqsovutgichda 5-8 °S haroratda tayyorlangan vaqtidan boshlab 3 soat davomida saqlanishi mumkin.

#### *Tortni bezash.*

Biskvit kulchalari qandolatchilik taxtasidan va qog'ozdan olinadi, pichoq yoki qirg'ich bilan tozalanadi va aylana shaklli qolip yordamida kerakli o'lchamda kesib olinadi. Har bir doirasimon kulcha qalinligi bo'yicha ikkita qismga bo'linadi. Birinchi qismining yuzasiga massalliq surtiladi va uning ustiga kulchaning ikkinchi qismi qo'yiladi. Uning yuzasiga yana masalliq surtiladi va ustadiran biskvit kulchasi qo'yiladi.

Engyuqorida kulchaning yuzasi va olingan mahsulotning yonlari maxsus to'lqinsimon pichoq yordamida qaymoqli krem bilan qoplanadi. Shundan keyin uchiga turli shakl beruvchi moslama o'rnatilgan qandolatchilik xaltachasi yordamida qaymoqli krem va eritilgan

shokoladdan badiiy rasmlar bajariladi. Tortni bezashda marmelad va bodom qirindisidan ham soydalaniлади.

Tayyor tortning pirojnoe chiqishini aniqlash uchun u tarozida tortiladi. Tortning sifati organoleptik usulda baholanadi va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlanadi.

### Pirojniylar va tortning

#### organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'rsatkichlarini aniqlash

##### *Pirojnyi va tortning organoleptik sifat ko'rsatkichlarini baholash.*

Bu mahsulotlarni sifatini organoleptik usulda baholashda bezash uchun mo'ljalangan asosiy yarim tayyor mahsulot va bezalgan tayyor mahsulotlarning yuzasi, shakli, ta'mi va hidining me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelishiga e'tibor beriladi.

Qaynatma pirojniyning asosiy yarim tayyor mahsuloti gumbazsimon shaklga ega, ichiga bo'shliq mavjud bo'lishi kerak.

Pirojnyining yuzasi shokolad siri bilan bezalgan bo'lishi lozim. Shokolad sirining oqarishi, mahsulot yuzasidan ajralishiga yo'l qo'yilmaydi.

Qaynatma pirojniyining shakli o'ziga xos (uzunchoq yoki dumaloq) siniqsiz va ezilmagan bo'lishi lozim. Ta'mi va hidi shokoladli qaymoqli qaynatma shirmoy mahsulotga xos, begona ta'msiz va hidsiz bo'lishi lozim.

Biskvitli «Afsona» tortning asosiy yarim tayyor mahsuloti yaxshi g'ovaklangan yumaloq biskvit kulchalaridan iborat, ularning orasida masalliq birtekis joylashgan bo'lishi kerak.

Tortning yuzasi qaymoqli krem, shokolad, marmelad va bodom qirinmalari bilan badiiy bezalgan, yonlari krem bilan to'liq qoplangan bo'lishi lozim (11-rasm).

Tortning shakli yumaloq, o'ziga xos, to'g'ri, siniqsiz va ezilmagan bo'lishi lozim (11-rasm).

Tortning ta'mi o'ziga (ishlatilgan yarim tayyor mahsulotlarga) xos.

begona ta’msiz va hidsiz bo‘lishi kerak.

Baholash natijalari laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

### **Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi**

#### **Qaynatma pirojniyning sifat ko‘rsatkichlari**

Pishirilgan yarim tayyor mahsulotning tavsifi	Tayyor pirojniyning tavsifi		
	Yuzasi	Shakli	Ta’mi va hidi

#### **«Afsona» biskvitli tortning sifat ko‘rsatkichlari**

Pishirilgan yarim tayyor mahsulotning tavsifi	Tayyor pirojniyning tavsifi		
	Yuzasi	Shakli	Ta’mi va hidi

#### **Asosiy pishirilgan va bezovchi yarim tayyor mahsulotlar namligini aniqlash.**

Asosiy pishirilgan yarim tayyor mahsulotlarning namligi tezlash-tirilgan usulda quritish yo‘li bilan aniqlanadi. Tarozida 0,001 g aniqlikda toza va quritilgan ikkita byuks tortib olinadi. Byukslarga shu aniqlikda olingan 3 g dan mahsulotning o‘lchanmasi solinadi. Quritish SESh rusumli quritish shkasida (7-rasm) 130 °S haroratda 40 min davomida amalga oshiriladi.

Foizlarda ifodalangan mahsulotning namligi 15-formula bilan hisoblanadi.

Bezovchi yarim tayyor mahsulotlarning namligi VCh asbobida (3-rasm) aniqlanadi.

Paketga 3 g miqdorda namligi aniqlanadigan yarim tayyor mahsulotdan o'lchanma solinadi va ichiga bir tekis qilib yoyiladi. Paket mahsulot bilan 160 °S gacha qizdirilgan VCh asbobi ichiga qo'yiladi va 3 minut davomida quritiladi. Quritilgan o'lchanma paketi bilan birgalikda eksikatorga sovutish uchun 1-2 min ga qo'yiladi, keyin uning massasi o'lchanadi va namlik 6-formula bilan xisoblanadi

Olingan natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

#### *Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi*

Yarim tayyor mahsulotning nomi \_\_\_\_\_

Byuks yoki paketning o'lchanma bilan quritishdan oldingi massasi (a) \_\_\_\_\_ g

Byuks yoki paketning o'lchanma bilan quritishdan keyingi massasi (v) \_\_\_\_\_ g

Mahsulot o'lchanmasining massasi (m) \_\_\_\_\_ g

Mahsulotning namligi ( $W_h$ ) \_\_\_\_\_ %

Xulosa \_\_\_\_\_

*Asosiy pishirilgan va bezovchi yarim tayyor mahsulotlarda umumiy qand miqdonini ferritsianid uslubi bilan aniqlash.*

Umumiy qand miqdonini aniqlash 5-laboratoriya ishida mazmuni to'liq keltirilgan ferritsianid uslubi bilan amalga oshiriladi.

Olingan natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

#### *Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi*

«Quruq tajriba»da  $25 \text{ sm}^3$  ferritsianid eritmasiga sarflangan invert qandi ishchi standart eritmasining miqdori (n) \_\_\_\_\_  $\text{sm}^3$

Titrlash uchun sarflangan invert qandi ishchi standart eritmasining miqdori (m) \_\_\_\_\_  $\text{sm}^3$

O'lchanma massasi (g) \_\_\_\_\_ g

Mahsulot eritmasini tayyorlash uchun ishlatalilgan

kolbaning hajmi ( $V_1$ )	_____ sm <sup>3</sup>
Reaksiya o'tkazish uchun olingan mahsulot eritmasining hajmi ( $V_2$ )	_____ sm <sup>3</sup>
Gidroliz o'tkazish uchun olingan kolbaning hajmi ( $V_3$ )	_____ sm <sup>3</sup>
Gidroliz o'tkazish uchun olingan eritmaning hajmi ( $V_4$ )	_____ sm <sup>3</sup>
Halvodagi umumiy qandning miqdori (UQ)	_____ %
Xulosa	_____

*Asosiy pishirilgan va bezovchi yarim tayyor mahsulotlarda yog' miqdorini aniqlash.*

Yog' miqdorini aniqlash 4-laboratoriya ishini bajarishda qo'llanilgan uslubga binoan amalaga oshiriladi (57-59 betlar). Yarim tayyor mahsulotlardagi yog'ning miqdori 16-formula bilan hisoblanadi.

Olingen natijalar laboratoriya qaydnomasiga kiritiladi.

#### *Laboratoriya qaydnomasiga yozish tartibi*

Mahsulotning nomi	_____
Ichida yog' mavjud bo'lган qabul kolbaning massasi (a)	_____ g
Yog'siz qabul kolbaning massasi (b)	_____ g
O'lchanmaning massasi (g)	_____ g
Tadqiq qilinayotgan mahsulotdagi yog' miqdori (X)	_____ %.
Xulosa	_____

Tayyorlangan qaymoqli qaynatma pirojniy va «Afsona» tortning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'rsatkichlari me'yoriy hujjalarni bilan taqqoslanib umumiy xulosa chiqariladi.

Umumiy xulosa \_\_\_\_\_

---



---



---

## **Mustaqil tayyorlash uchun savollar**

1. Pirojniy qanday uziga xos xususiyatlarga ega?
2. Tortlar qanday uziga xos xususiyatlarga ega?
3. Pirojniy va tortlar qaysi guruhlarga bo'linadi?
4. Pirojniy va tortlarni tayyorlashda qanday asosiy yarim tayyor mahsulotlar qo'llaniladi?
5. Pirojniy va tortlar tayyorlash uchun qanday bezovchi yarim tayyor mahsulot-lar qo'llaniladi?
6. Biskvitli asosiy yarim tayyor mahsulot qanday xususiyatlarga ega va qanday tayyorlanadi?
7. Qumoqli asosiy yarim tayyor mahsulot qanday xususiyatlarga ega va qanday tayyorlanadi?
8. Biskvitli asosiy yarim tayyor mahsulot qanday xususiyatlarga ega va qanday tayyorlanadi?
9. Qo'p qavatli (qatlamlili) asosiy yarim tayyor mahsulot qanday xususiyatlarga ega va qanday tayyorlanadi?
10. Oqsilli-quvlangan asosiy yarim tayyor mahsulot qanday xususiyatlarga ega va qanday tayyorlanadi?
11. Bodomli-yong'oqli asosiy yarim tayyor mahsulot qanday xususiyatlarga ega va qanday tayyorlanadi?
12. Qaymoqli kremlar qanday xususiyatga ega va qanday tayyorlanadi?
13. Oqsilli-quvlangan kremlar qanday xususiyatlari tayyorlanishi?
14. Pirojniy va tortlar qanday qadoqlanadi va saqlanadi?
15. Pirojniy va tortlarni sifatiga qanday talablar qo'yiladi?

### **Laboratoriya ishga oid diagnostik testlar**

**1.Biskvitli asosiy yarim tayyor mahsulot qanday tayyorlanadi**

- A) melanj yoki tuxum shakar bilan 25-45 minut kuvlanadi, keyin un, kraxmal va essensiya solinadi va qisqa muddatda qoriladi
- B) retsepturada ko'rsatilgan undan tashqari barcha xom ashyolar solinadi
- C) retsepturasida shakar yo'q va juda juda ko'p miqdorda sariyog' mavjud
- D) retseptura tomonidan juda ko'p miqdorda tuxum yoki melanj qo'llanilishi

## **2. Bezovchi yarim tayyor mahsulot?**

- A) asosiy yarim tayyor mahsulotlarning ta'mi va hidini yaxshilish, ularning jozibador tashqi ko'rinishini ta'minlash uchun qo'llaniladi
- B) asosiy yarim tayyor mahsulotlarning ta'mi va hidini yaxshilish uchun qo'llaniladi
- C) asosiy yarim tayyor mahsulot pirojniy va tortlarning tashqi ko'rinishini ta'minlash uchun qo'llaniladi
- D) asosiy yarim tayyor mahsulot pirojniy va tortlarning ta'mi va hidini yaxshilish uchun qo'llaniladi

## **3. Bezovchi yarim tayyor mahsulotlarni bir necha guruhga bo'lish mumkin**

- A) kremlar, meva-rezavor masalliqlar, sirlar, jele, pomadalar, qiyomlar, sukatlar va shunga o'xshashlar
- B) kremlar, meva-rezavor masalliqlar
- C) sirlar, jele, pomadalar, qiyomlar
- D) sukatlar va shunga o'xshashlar

## **4. Asosiy bezovchi yarim tayyor mahsulot**

- A) kremlar
- B) sirlar
- C) jele
- D) meva-rezavor masalliqlar

## **4. Pirojniy va tortlarni bezash uchun qo'llaniladigan kremlar**

**quyidagi asosiy go'ruhlarga bo'linadi:**

- A) sariyog'li (yog'li), oqsilli-quvlangan, qaynatma
- B) sariyog'li (yog'li), oqsilli-quvlangan
- C) oqsilli-quvlangan, qaynatma
- D) sariyog'li (yog'li), qaynatma

**5. Sariyog'li (yog'li) kremning nisbiy zichligi**

- A) 0,75-0,85 g/sm<sup>3</sup>
- B) 0,85-0,90 g/sm<sup>3</sup>
- C) 0,95-1,00 g/sm<sup>3</sup>
- D) 1,05-1,10 g/sm<sup>3</sup>

**6. Oqsilli-quvlangan kremning namligi**

- A) 28-32%
- B) 16-20%
- C) 20-25%
- D) 25-30%

**7. Krem necha daqqa kuylanadi?**

- A) 10-15 daqqa ichida
- B) 5-7 daqqa ichida
- C) 7-10 daqqa ichida
- D) 20-30 daqqa ichida

**8. Pirojniy va tortlar asosiy pishirilgan yarim tayyor mahsul**

- A) biskvitli, qumoqli, bodomli-yong'oqli, vaflili, oqsilli-quvlangan, qaynatma, uvoqli.
- B) biskvitli, qumoqli, bodomli-yong'oqli, krekerli
- C) biskvitli, qumoqli, bodomli-yong'oqli, vaflili, qandli
- D) biskvitli, qumoqli, vaflili, krekerli, qandli

**9. Qaynatma kremlari tortlar uchun saqlash vaqtini**

- A) 6 soat
- B) 72 soatgacha

C) 15 sutka

D) 1 oy gacha

**10. Oqsilli-quvlangan kremlı tortlar uchun saqlash vaqtı**

A) 72 soatgacha

B) 6 soat

C) 15 sutka

D) 1 oy gacha

## 4.LABORATORIYA MASHG'ULOTLARIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARI

### 4.1.Laboratoriya mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti - 6 soat	Talabalar soni – 7-12 nafar
O'quv mashg'ulotning shakli	I-Laboratoriya ishini bajarish
Laboratoriya mashg'ulotining rejasi	<p><i>Mavzu: Karamelni patokada va invert qiyomida tayyorlash va sifatini aniqlash.</i></p> <p>1. Turli qiyom tayyorlash usullarini qo'llab karamel tayyorlash.</p> <p>2. Yarim tayyor mahsulotlar va karamelning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkich-larini aniqlash.</p> <p>3. Turli usullarda tayyorlangan karamel xossalari va sifatini taqqoslash va xulosa chiqarish.</p>
O'quv mashg'ulotining maqsadi:	Turli qiyom tayyorlash usullarini qo'llab karamel tayyorlash jarayonlari bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar sifatini aniqlash bo'yicha ko'nikma ga ega bo'lish.
<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish va mustah-kamlash</li> <li>- karamel mahsuloti tayyorlash ko'nikmalarini hosil qilish;</li> <li>- yarim tayyor va tayyor mah-sulotlar sifat ko'rsatkich-larini aniqlash ko'nikma-larini hosil qilish;</li> <li>- turli usullarni qo'llab tayyorlangan yarim tayyor va tayyor mahsulotlar sifat ko'rsatkichlarini taqqos-lash ko'nikmalarini hosil qilish;</li> <li>- xulosalar chiqarishga o'rgatish.</li> </ul>	<p>Talabalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>mavzu va ishni bajarish bo'yicha bilimlarni mustahkamlaydilar;</li> <li>- topshiriqqa binoan karamel mahsuloti tayyorlash bo'yicha ko'nikma hosil qiladilar;</li> <li>- yarim tayyor va tayyor mahsulotlarning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'rsatkichlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar;</li> <li>- turli usullarda ishlab chiqilgan yarim tayyor va tayyor mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlarini taqqoslaydilar.</li> </ul> <p>Bajariladigan tajriba ishlari natijalariga asoslanib, turli usullarda chiqilgan yarim tayyor va tayyor mahsulotlarning ishlab chiqarish jarayonlari va ularning sifati bo'yicha tegishli xulosalar chiqariladilar.</p>
O'qitish uslubi va texnikasi	Mazkur laboratoriya ishini bajarish uslublari, topshiriqlarni bajarish, «Insert usuli».

O'qitish vositalari	Laboratoriya ishlarini bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar. Asboblar blan ishlash yo'rignomalar, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Laboratoriya ishlarini bajarish uchun jihozlangan laboratoriya

### Laboratoriya mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 min)	1.1. Mavzu uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalarini ma'lum qiladi 1.2. Mashg'ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishini ma'lum qiladi	1.1. Eshitadilar, mavzuni yozib oladilar
2-bosqich. Bilimlarni faollantirish (10 min)	2.1. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning laboratoriya ishini bajarishga tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: 2.2. Talabalarni guruhlarga bo'ladı. Kutiladigan natijalarini eslatadi.	2.1. Savollarga javob beradilar.  2.1. Guruhlarga bo'linadilar. Kutiladigan natijalarini esga saqlaydilar.
3-bosqich. Asosiy (210 min)	3.1. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini namoyish qiladi. 3.2. Ishni bajarishda o'quv materiallari va me'yoriy xujjalardan foydalanish mumkinligini esla-tadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 3.3. Laboratoriya ishlari bajarilgandan keyin taqdimot boshlangani e'lon qilinadi. 3.4. Talabalar javobini sharxlaydi, xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 3.5. Talabalarga topshiriqlarini bajarishlarini ta'kidlaydi. «Insert usuli» jadvalini namoyish etadi va tushuntirib beradi. Tushunchalarga	3.1. Guruhda ishlash qoida-siga riyoja qildilar. Baholash mezonlarini inobatga oladilar.  3.2. Guruhlar topshiriqa binoan tajriba ishlarini bajaradilar. Savollar beradilar.  3.3. Bajarilgan ishlar natijalarini taqdimot etadilar. 3.4. Savollar beradilar. Aniqliklik o'zgarishlari kiritadilar 3.5. Javoblarni inobatga olib, o'zgarishlar kiritadilar

	izohlarni to'g'rileydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhsar faoliyatiga umumiy ball beradi.	
4-bosqich. Yakuniy (10 min)	<p>4.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'baltantiradi.</p> <p>4.2. Mustaqil ish uchun vazifa quyidagi topshiriqlar va savollariga javob berishni vazifa qilib beradi, baholaydi.</p>	<p>4.1. Eshitadilar, aniqlash-tiradilar.</p> <p>4.2. Vazifani yozib oladilar.</p>

## 1-ilova

### O'quv topshiriqlar

#### Guruhsar bilan ishlash qoidalari

Guruhsning har bir a'zosi:

- o'z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;

«Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutilamiz» qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

## 2-ilova

### Guruhsar uchun topshiriqlar

#### 1-guruhsar

100 g shakar va 50 g patokadan tayyorlangan qiyomni  $145^{\circ}\text{S}$  gacha qaynatish natijasida olingan karamel massasidan karamel tayyorlash va sisfatini aniqlash.

## **2-guruh**

100 g shakar va invert qiyomining hisoblangan miqdoridan tayyorlangan qiyomni 155 °S gacha qaynatish natijasida olingan karamel massasidan karamel tayyorlash va sifatini aniqlash.

## **3-guruh**

5 – 140 g shakar va 0,021 g limon kislotadan tayyorlangan qiyomni 155 °S gacha qaynatish natijasida olingan karamel massasidan karamel tayyorlash va sifatini aniqlash.

## **4-guruh**

140 g shakar va 0,021 g limon kislotadan tayyorlangan qiyomni 135 °S gacha qaynatish natijasida olingan karamel massasidan karamel tayyorlash va sifatini aniqlash.

## **3-ilova**

*1. Bitta gap bilan savolga javobni shakllantiring.*

*1. Karamel massasi turli haroratlarda qanday holatlar ega bo'ladi?*

*2. Masalliqsiz karamel ishlab chiqrish bosqichlarini ifodalovchi prinsipial sxemasini chizing.*

*3. Ushbu savollarga qisqacha javob keltiring.*

- |   |
|---|
| 1. Tasdiqlangan retseptura asosida laboratoriya sharoitida tayyorlanadigan karamel uchun retseptura qanday qaytdan hisoblanadi. |
| 2. Karamel qiyomidagi quruq moddalarning miqdori qanday aniqlanadi?   |
| 3. Organoleptik usulda karamel mahsulotining qaysi ko'rsatkichlari aniqlanadi?  |

## **4-ilova**

### **Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (ball)**

Guruh	1-topshiriq	2-topshiriq	3-topshiriq (har bir javobga 0,2 ballgacha)			Ballar yig'indisi
	(1,0)	(1,0)	1-savol	2-savol	3-savol	

### «Insert usuli»

Insert - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruba mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, talaba «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrimi ifodalaydi.

#### Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma'lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o'yantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

#### Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Makaron xamirini tayyorlash-ning usullari				
Yuqori haroratlari xamir qorish-ning afzalliklari				
Nam makaron mahsulotlari namligini aniqlash uslubi				
Nam makaron mahsulotlarini qaynatishdan keyingi namligi-ni aniqlash uslubi				

#### 4.2. Laboratoriya mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti – 6 soat	Talabalar soni – 7-12 nafar
O'quv mashg'ulotning shakli	2-Laboratoriya ishini hajarish
Laboratoriya mashg'ulotining rejasি	<p><i>Mavzu: «Jelevi marmelad tayyorlash va sifatini aniqlash»</i></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Turli jelevochi moddalardan soydalanib marmelad tayyorlash.</li> <li>2. Yarim tayyor mahsulotlar va marmeladning</li> </ol>

	<p>organoleptik va fizik-kimyoiy ko'rsatkichlarini aniqlash.</p> <p>3. Turli jelelovchi moddalardan foydalanib tayyorlangan marmeladning xossalari va sifatini taqoslash va xulosa chiqarish.</p>
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Marmelad mahsulotlari ishlab chiqarish texnologik jarayonlari bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish, turli jelelovchi moddalardan foydalanib marmelad tayyorlash va sifatini aniqlash bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish.	
<p><i>Pedagogik vazifalar</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash</li> <li>- turli jelclovchi moddalardan foydalanib marmelad tayyorlash ko'nikmala-rini</li> <li>- yarim tayyor mahsulotlar va marmelad sifat ko'rsatkichlarini aniqlash ko'nikmalari hosil qilish;</li> <li>- turli jelelovchi moddalardan foydalanib tayyorlangan marmeladning sifatini taqoslash ko'nikmalari hosil qilish;</li> <li>- xulosalar chiqarishga o'rnatish.</li> </ul>	<p><i>O'quv faoliyatining natijalari</i></p> <p>Talabalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- topshiriqqa binoan turli jelelovchi moddalardan foydalanib marmelad tayyorlash bo'yicha ko'nikma hosil qiladilar;</li> <li>- yarim tayyor mahsulotlar va marmeladning organoleptik va fizik-kimyoiy sifat ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha ko'nikma hosil qiladilar;</li> <li>- turli jelelovchi moddalardan foydalanib tayyorlangan marmeladning sifat ko'rsatkich-larini taqqoslaysidilar.</li> </ul> <p>Bajariladigan tajriba ishlari natijalariga asoslanib, turli jelelovchi moddalardan foydalanib tayyorlangan marmelad ishlab chiqarish jarayonlari va mahsulotlarni sifati bo'yicha tegishli xulosalar chiqariladilar.</p>
O'qitish uslubi va texnikasi	Mazkur laboratoriya ishini bajarish uslublari, topshiriqlarni bajarish, «Insert usuli».
O'qitish vositalari	Laboratoriya ishlarini bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar. Asboblar blan ishlash yo'riqnomalar, targatma materiallar
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishslash
O'qitish shart-sharoiti	Laboratoriya ishlarini bajarish uchun jihozlangan laboratoriya

## Laboratoriya mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, Vaqti	Faoliyat mazuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 min)	<p>1.1. Mavzu uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalarni ma'lum qiladi</p> <p>1.2. Mashg'ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishini ma'lum qiladi</p>	<p>1.1. Eshitadilar, mavzuni yozib oladilar</p>
2-bosqich. Bilimlarni faollantirish (10 min)	<p>2.1. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning laboratoriya ishini bajarishga tayyorgarlik darajasini aniqlaydi;</p> <p>2.2. Talabalarni guruhlarga bo'ladi. Kutiladigan natijalarni eslatadi.</p>	<p>2.1. Savollarga javob beradilar.</p> <p>2.2. Guruhlarga bo'linadilar. Kutiladigan natijalami esga saqlaydilar.</p>
3-bosqich. Asosiy (210 min)	<p>3.1. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini namoyish qiladi.</p> <p>3.2. Ishni bajarishda o'quv materiallari va me'yoriy xujjatlardan foydalinish mumkinligini esla-tadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi.</p> <p>3.3. Laboratoriya ishlari bajarilgandan keyin taqdimot boshlangani e'lon qilinadi.</p> <p>3.4. Talabalar javobini sharxlaydi, xulosalarga e'tibor beradi. aniqlik kiritadi.</p> <p>3.5. Talabalarga topshiriqlarni bajarishlarini ta'kidlaydi. «Insert usuli» jadvalini namoyish etadi va tushunitrib beradi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi.</p> <p>Guruhlar faoliyatiga umumiyl ball beradi.</p>	<p>3.1. Guruhda ishlash qoida-siga rioxqa qiladilar. Baholash mezonlarini inobatga oladilar.</p> <p>3.2. Guruhlarning topshiriqlarini binoan tajriba ishlarini bajaradilar. Savollar beradilar.</p> <p>3.3. Bajarilgan ishlarni natijalarini taqdimot etadilar.</p> <p>3.4. Savollar beradilar. Aniqliklik o'zgarishlari kiritadilar</p> <p>3.5. Javoblarni inobatga olib, o'zgarishlar kiritadilar</p>
4-bosqich. Yakuniy (10 min)	4.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi.	4.1. Eshitadilar, aniqlash-tiradilar.

	Faoł ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. 4.2. Mustaqil ish uchun vazifa quyidagi topshiriqlar va savollariga javob berishni vazifa qilib beradi, baholaydi.	4.2. Vazifani yozib oladilar.
--	---	-------------------------------

1-ilova

### O‘quv topshiriqlar

#### Guruuh bilan ishlash qoidalari

Guruhning har bir a’zosi:

- o‘z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo‘yicha faol, hamkorlikda va mas’uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o‘zlariga yordam kerak bo‘lganda so‘rashlari mumkin;
- yordam so‘raganlarga ko‘mak berishlari lozim;
- guruhnini baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- «Biz bir kemadamiz, birga cho‘kamiz yoki birga qutilamiz» qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

2-ilova

### Guruuhlar uchun topshiriqlar

#### 1-guruuh

Agardan foydalanib jeleli marmelad mahsuloti tayyorlash va sifatini aniqlash.

#### 2-guruuh

Agaroiddan foydalanib jeleli marmelad mahsuloti tayyorlash va sifatini aniqlash.

#### 3-guruuh

Pektindan foydalanib jeleli marmelad mahsuloti tayyorlash sifatini aniqlash.

#### 4-guruuh

Jelatindan foydalanib jeleli marmelad mahsuloti tayyorlash sifatini aniqlash va sifatini aniqlash.

### 3-illova

*1. Bitta gap bilan savolga javobni shakllantiring.*

1. Meva-rezavorli va jeleli marmelad marmelad mahsulotlarini tayyorlashda qayday xom ashyolardan foydalaniladi?

2. Meva-rezavorli marmelad ishlab chiqarish texnologik bosqichlarini ifodalovchi *prinsipial sxemasini chizing.*

3. Ushbu savollarga qisqacha javob keltiring.

1. Agar va agaroida jeleli marmelad tayyorlashning texnologik jarayonlari parametrlari qanday farqlanadi?

2. Jeleli massa va tayyor marmeladning namligi qanday usullarda aniqlanadi?

3. Marmeladda redutsiyalovchi moddalar miqdorini aniqlash uslubini mohiyatini tushuntirib bering.

### 4-illova

#### Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (ball)

Guruh	1-topshiriq	2-topshiriq	3-topshiriq (har bir javobga 0,2 ballgacha)			Ballar yig'indisi
	(1,0)	(1,0)	1-savol	2-savol	3-savol	

### 5-illova

#### «Insert usuli»

Insert - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'truza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, talaba «V: +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

#### Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) - yangi ma'lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

### Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Marmelad massasi va tayyor mahsulotning namligini aniqlash uslubi				
Marmelad kislotaliligini aniqlash uslubi				
Marmeladni organoleptik ko'r-satkichlarini baholash uslubi				
Marmeladda redutsiyalovchi mod-dalar miqdorini aniqlash uslubi				

### 4.3. Laboratoriya mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti – 6 soat	Talabalar soni – 7-12 nafar
O'quv mashg'ulotning shakli	3-Laboratoriya ishini bajarish
Laboratoriya mashg'ulotining rejasi	<p><i>Mavzu: Pomadali konfet korpuslarini tayyorlash va sifatini aniqlash</i></p> <p>1. Turli pomada massalarini tayyorlash va konfet shaklini berish.</p> <p>2. Pomadalarning organoleptik va fizik-kimyo-viy ko'r-satkichlarini aniqlash.</p> <p>3. Turli pomoda massalari xossalari va sifa-tini taqqoslash va xulosa chigarish.</p>

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Pomadali konfet massalarini tayyorlash texnologik jarayonlari bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish, turli pomoda konfet massalarini tayyorlash va sifatini aniqlash bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish.

<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash</li> <li>- turli pomadali konfet massalarini tayyorlash bo'yicha ko'nikma hosil qilish;</li> <li>- turli pomadali konfet massalari sifat ko'rsatkichlarini aniqlash ko'nikmalarini hosil qilish;</li> </ul>	<p>Talabalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- topshiriqqa binoan pomadali konfet massasini tayyorlash bo'yicha bo'yicha ko'nikma hosil qiladilar;</li> <li>- pomadali konfet massalarini organoleptik va fizik-kimyo-viy sifat ko'rsatkichlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar;</li> <li>- turli pomadali konfet massalarini sifat ko'rsatkichlarini taqqoslaidilar.</li> </ul>

- turli pomadali konfet massalari sifat ko'rsat-kichilarini taqoslash ko'nikmalarini hosil qilish; - xulosalar chiqarishga o'rnatish.	Bajariladigan tajriba ishlari natijalariga asoslanib, qo'shimchali va qo'shimchasiz makaron makaron mahsulotlari ishlab chiqarish jarayon-lari va nam mahsulotlarni sifati bo'yicha tegishli xulosalar chiqariladilar.
O'qitish uslubi va texnikasi	Mazkur laboratoriya ishini bajarish uslublari, topshiriqlarni bajarish.
O'qitish vositalari	Laboratoriya ishlarni bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar. Asboblar blan ishlash yo'riqnomalar, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Laboratoriya ishlarni bajarish uchun jihozlangan laboratoriya

### Laboratoriya mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqt	Faoliyat mazuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 min)	1.1. Mavzu uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalarni ma'lum qiladi 1.2. Mashg'ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishini ma'lum qiladi	1.1. Eshitadilar, mavzuni yozib oladilar
2-bosqich. Bilimlarni faollantirish (10 min)	2.1. Aqliy hujum usulidan foydalan-gan holda auditorianing laboratoriya ishini bajarishga tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: 2.2. Talabalarni guruhlarga bo'ladi. Kutiladigan natijalarni eslatadi.	2.1. Savollarga javob beradilar. 2.2. Guruhlarga bo'linadilar. Kutiladigan natija-larni esga saqlaydilar.
3-bosqich. Asosiy (210 min)	3.1. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini namoyish qiladi. 3.2. Ishni bajarishda o'quv mate-riallari va me'yoriy xujjalardan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 3.3. Laboratoriya ishlari bajaril-	3.1. Guruhda ishslash qoida-siga rivoja qiladilar. Baholash mezonlarini ino-batga oladilar. 3.2. Guruhlar topshiriqqa binoan tajriba ishlarni bajaradilar. Savollar beradilar. 3.3. Bajarilgan ishlar

	<p>gandan keyin taqdimot boshlangani e'lon qilinadi.</p> <p>3.4. Talabalar javobini sharxlaydi, xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi.</p> <p>3.5. Talabalarga topshiriqlarni bajarishlarini ta'kidlaydi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rileydi va savollarga javob qaytaradi.</p> <p>Guruhanlarning faoliyatiga umumiy ball beradi.</p>	<p>natiyalarini taqdimot etadilar.</p> <p>3.4. Savollar beradilar. Aniqliklik o'zgarishlari kiritadilar</p> <p>3.5. Javoblarni inobatga olib, o'zgarishlar kiritadilar</p>
<b>4-bosqich. Yakuniy (10 min)</b>	<p>4.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi.</p> <p>Fao'l ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi.</p> <p>4.2. Mustaqil ish uchun vazifa quyidagi topshiriqlar va savollariga javob berishni vazifa qilib beradi, baholaydi.</p>	<p>4.1. Eshitadilar, aniqlash-tiradilar.</p> <p>4.2. Vazifani yozib oladilar.</p>

## 1-ilova

### O'quv topshiriqlar

Guruh bilan ishslash qoidalari

Guruhnинг har bir a'zosi:

- o'z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishslashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhnинг baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- «Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutilamiz» qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

## 2-ilova

### Guruhanlarning uchun topshiriqlar

I-guruh

Patoka miqdori shakar massasiga nisbatan 18 % bo'lgan qandli pomoda tayyorlash va sifatini aniqlash.

## 2-guruh

Shakar va sutning nisbati 1:1,5 bo‘lgan sutli pomada tayyorlash va sifatini aniqlash.

## 3-guruh

Retsepturaga binoan qaymoqli pomada konfet korpuslarini tayyorlash tayyorlash va sifatini aniqlash.

## 4-guruh

Shakar va sutning nisbati 1:1,5 bo‘lgan sutli krein–bryule pomada konfet korpuslarini tayyorlash va sifatini aniqlash.

## 3-ilova

1. Bitta gap bilan savolga javobni shakllantiring.
1. Sutli konfet massalarining qanday turlari mavjud.
2. Oddiy pomada tayyorlashning bosqichlarini ifodalovchi *prinsipial sxemasini chizing.*
3. Ushbu savollarga qisqacha javob keltiring.  

1. Oddiy pomadaning sutli pomada va pomada krein bryuledan farqi nimada
  2. Pomadada redutsiyalovchi moddalar miqdorini aniqlash qanday eritmalarни qo‘llashga asoslangan
  3. Pomadada qattiq va suyuq fazalarni aniqlash qanday bajariladi?

## 4-ilova

### Baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari (ball)

Guruh	1-topshiriq	2-topshiriq	3-topshiriq (har bir javobga 0.2 ballgacha)			Ballar yig‘indisi
	(1.0)	(1.0)	1-savol	2-savol	3-savol	

#### 4.4. Laboratoriya mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti – 6 soat	Talabalar soni – 7-12 nafar
O'quv mashg'ulotning shakli	4-Laboratoriya ishini bajarish
Laboratoriya mashg'ulotining rejasি	<p><i>Mavzu:</i> «Karamelsimon va tirajlangan iris tayyorlash va sifatini aniqlash»</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Karamelsimon va tirajlangan irislar tayyorlash.</li> <li>2. Karamelsimon va tirajlangan irislarning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'satkichlarini aniqlash.</li> <li>3. Karamelsimon va tirajlangan irislarlaming sifat ko'satkichlarini o'zaro taqqoslash.</li> </ol>
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Draje va iris ishlab chiqarish texnologiyalari bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish, irislar sifatini aniqlash bo'yicha ko'nigmaga ega bo'lish.	
Pedagogik vazifalar	<p><i>O'quv faoliyatining natijalari</i></p> <p>Talabalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- topshiriqqa karamelsimon va tirajlangan turlarini tayyorlash bo'yicha ko'nikma hosil qiladilar;</li> <li>- irislarning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'satkichlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar;</li> <li>- qattiq va yumshoq irislarning organoleptik va fizik-kimyoviy sifat ko'satkichlarini taqqoslaydilar.</li> </ul> <p>Bajarilgan tajriba ishlari natijalariga asoslanib, turli iris mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari va ularning sifati bo'yicha tegishli xulosalar chiqariladilar.</p>
O'qitish uslubi va texnikasi	Mazkur laboratoriya ishini bajarish uslublari, blissos'rov, munozara
O'qitish vositalari	Laboratoriya ishlarni bajarish uchun uslubiy ko'satmalar. Asboblar blan ishlash yo'riqnomalar, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Jamoa, quruh va juftlikda ishiash
O'qitish shart-sharoiti	Laboratoriya ishlarni bajarish uchun jihozlangan laboratoriya

## Laboratoriya mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 min)	<p>1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalarini ma'lum qiladi</p> <p>1.2. Mashg'ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishini ma'lum qiladi</p>	1.1. Eshitadilar, mavzuni yozib oladilar
2-bosqich. Bilimlarni faollantirish (10 min)	<p>2.1. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning laboratoriya ishini bajarishga tayyorgarlik darajasini aniqlaydi;</p> <p>2.2. Talabalmi guruhlarga bo'ladi. Kutiladigan natijalarini eslatadi.</p>	<p>2.1. Savollarga javob beradilar.</p> <p>2.1. Guruhlarga bo'linadilar. Kutiladigan natijalarini esga saqlaydilar.</p>
3-bosqich. Asosiy (210 min)	<p>3.1. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini namoyish qiladi.</p> <p>3.2. Ishni bajarishda o'quv materiallari va me'yoriy xujjalardan foydalanish mumkinligini esla-tadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi.</p> <p>3.3. Laboratoriya ishlari bajaril-gandan keyin taqdimot boshlangani e'lon qilinadi.</p> <p>3.4. Talabalar javobini sharxlaydi, xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi.</p> <p>3.5. Talabalarga munozara savollarini namoyish etadi. Munozaraga faol qatnashishlarini ta'kidlaydi. Tushunchalarga izoh-larni to'g'rileydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiyl ball beradi.</p>	<p>3.1. Guruhda ishlash qoida-siga rioya qiladilar. Baholash mezonlarini inobtga oladilar.</p> <p>3.2. Guruhlar topshiriqqa binoan tajriba ishlarini bajaradilar. Savollar beradilar.</p> <p>3.3. Bajarilgan ishlari natijalarini taqdimot etadilar.</p> <p>3.4. Savollar beradilar. Aniqliklik o'zgarishlari kiritadilar</p> <p>3.5. Muzaraga qatnashadilar. O'z javoblarini to'ldiradilar.</p>
4-bosqich. Yakuniy (10 min)	4.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'baltantiradi.	4.1. Eshitadilar, aniqlash-tiradilar.

	4.2. Mustaqil ish uchun vazifa quyidagi topshiriqlar va savol-lariga javob berishni vazifa qilib beradi, baholaydi.	4.2. Vazifani yozib oladilar.
--	---	-------------------------------

1-ilova

### O‘quv topshiriqlar

#### Guruh bilan ishlash qoidalari

Guruhning har bir a’zosi:

- o‘z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo‘yicha faol, hamkorlikda va mas’uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o‘zlariga yordam kerak bo‘lganda so‘rashlari mumkin;
- yordam so‘raganlarga ko‘mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- «Biz bir kemadamiz, birga cho‘kamiz yoki birga qutilamiz» qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

2-ilova

### Guruhlar uchun topshiriqlar

#### 1-guruh

Karamelsimon «Oltin kalitcha» iris namunasini tayyorlash va sifatini aniqlash.

#### 2-guruh

Tirajlangan yarim qattiq «Era» iris namunasini tayyorlash va sifatini aniqlash.

#### 3-guruh

Tirajlangan yumshoq «Yangi» iris namunasini tayyorlash va sifatini aniqlash.

#### 4-guruh

Tirajlangan chuziluvchan «Qaymoqli» iris namunasini tayyorlash tayyorlash va sifatini aniqlash.

### 3-illova

- Bitta gap bilan savolga javobni shakllantiring.*
- Qaysi alomatlarga ko'ra draje turlarga bo'linadi?*
- Karamelsimon iris ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini ketma-ketligi prinsipiial sxemasini chizing.*
- Ushbu savollarga qisqacha javob keltiring.*

- |  |
|--|
| <ol style="list-style-type: none"> <li><i>Karamelsimon va tirajlangan iris tayyorlash asosan qaysi bosqichi bilan farqlanadi?</i></li> <li><i>Draje korpuslarini yaltiratish jarayoni qanday amalga oshiriladi?</i></li> <li><i>Drajeni turli ranglarga bo'yash qaysi texnologik bosqichda amalga oshiriladi?</i></li> </ol> |
|--|

### 4-illova

#### Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (ball)

Guruh	1-topshiriq	2-topshiriq	3-topshiriq (har bir javobga 0,2 ballgacha)			Ballar yig'indisi
	(1,0)	(1,0)	1-savol	2-savol	3-savol	

#### 4.5. Laboratoriya mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti – 6 soat	Talabalar soni – 7-12 nafar
O'quv mashg'ulotning shakli	5-Laboratoriya ishini bajarish
Laboratoriya mashg'ulotining rejasi	<p><i>Mavzu: Mayda kristalli strukturaga ega milliy halvolar tayyorlash va sifatini aniqlash</i></p> <ol style="list-style-type: none"> <li><i>Mayda kristalli va tolali strukturaga ega milliy halvolar tayyorlash.</i></li> <li><i>Yarim tayyor mahsulotlar va halvolarning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash.</i></li> <li><i>Mayda kristalli va tolali strukturaga ega milliy halvolarning xossalari va sifatini taqqoslash va xulosa chiqarish.</i></li> </ol>

O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'zbek milliy halvolarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlari bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish, turli milliy halvolar tayyorlash va sifatini aniqlash bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish.

<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari</i> Talabalar: <ul style="list-style-type: none"> <li>- mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish va mustah-kam�ash;</li> <li>- mayda kristalli va tola-li strukturaga ega milliy halvolar tayyorlash ko'nikmaga ega bo'lish.</li> </ul>
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	Bajariladigan tajriba ishlari natijalariga asoslanib, mayda kristalli va tolasimon milliy halvolar ishlab chiqarish texnologik jarayonlari va mahsulotlar sifati bo'yicha tegishli xulosalar chiqaradilar.
<i>O'qitish vositalari</i>	Laboratoriya ishlarni bajarish uchun uslublari, topshiriqlarni bajarish, «Insert usuli».
<i>O'qitish shakli</i>	Jamoa, guruh va justlikda ishlash
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Laboratoriya ishlarni bajarish uchun jihozlangan laboratoriya

### **Laboratoriya mashg'ulotining texnologik kartasi**

<b>Bosqichlar, Vaqti</b>	<b>Faoliyat mazuni</b>	
	<b>O'qituvchi</b>	<b>Talabalar</b>
<b>I-bosqich. Kirish (10 min)</b>	1.1. Mavzu uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalarni ma'lum qiladi 1.2. Mashg'ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishini ma'lum qiladi	1.1. Eshitadilar, mavzuni yozib oladilar

<p><b>2-bosqich. Bilimlarni faollantirish (10 min)</b></p>	<p>2.1. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning laboratoriya ishini bajarishga tayyorgarlik darajasini aniqlaydi:      2.2. Talabalmi guruhlarga bo'ldi. Kutiladigan natijalarni eslatadi.</p>	<p>2.1. Savollarga javob beradilar.      2.1. Guruhlarga bo'linadilar. Kutiladigan natijalarni esga saqlaydilar.</p>
<p><b>3-bosqich. Asosiy (210 min)</b></p>	<p>3.1. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini namoyish qiladi.      3.2. Ishni bajarishda o'quv materiallari va me'yoriy xujjalardan foydalinish mumkinligini esla-tadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi.      3.3. Laboratoriya ishlari bajarilgandan keyin taqdimot boshlangani e'lon qilinadi.      3.4. Talabalar javobini sharxlaydi, xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi.      3.5. Talabalarga topshiriqlami bajarishlarini ta'kidlaydi. «Insert usuli» jadvalini namoyish etadi va tushuntirib beradi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi.      Guruhlar faoliyatiga umumiyl ball beradi.</p>	<p>3.1. Guruhda ishlash qoida-siga riyo qiladilar. Baholash mezonlarini inobatga oladilar.      3.2. Guruhlar topshiriqqa binoan tajriba ishlarini bajaradilar. Savollar beradilar.      3.3. Bajarilgan ishlar natijalarini taqdimot etadilar.      3.4. Savollar beradilar. Aniqliklik o'zgarishlari kiritadilar      3.5. Javoblarni inobatga olib, o'zgarishlar kiritadilar</p>
<p><b>4-bosqich. Yakuniy (10 min)</b></p>	<p>4.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalmi rag'batlantiradi.      4.2. Mustaqil ish uchun vazifa quyidagi topshiriqlar va savol-lariga javob berishni vazifa qilib beradi, baholaydi.</p>	<p>4.1. Eshitadilar, aniqlash-tiradilar.      4.2. Vazifani yozib oladilar.</p>

## O‘quv topshiriqlar

### Guruuh bilan ishlash qoidalari

Guruhning har bir a’zosi:

- o‘z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo‘yicha faol, hamkorlikda va mas’uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o‘zlariga yordam kerak bo‘lganda so‘rashlari mumkin;
- yordam so‘raganlarga ko‘mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- «Biz bir kemadamiz, birga cho‘kamiz yoki birga qutilamiz» qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

### Guruhlar uchun topshiriqlar

#### 1-guruuh

«Lavz» milliy halvo tayyorlash tayyorlash va sifatini aniqlash.

#### 2-guruuh

«Donagi» milliy halvo tayyorlash va sifatini aniqlash.

#### 3-guruuh

«Buxorcha teri» milliy halvo tayyorlash va sifatini aniqlash.

#### 4-guruuh

«Buxorcha pashmak» milliy halvo tayyorlash va sifatini aniqlash.

#### 5-guruuh

«Buxoro» milliy halvo tayyorlash va sifatini aniqlash.

### 3-ilova

*1. Bitta gap bilan savolga javobni shakllantirning.*

1. Kunjutli (taxin) yoki kungaboqarli, yeryong‘oqli halvo qanday strukturaga ega?
2. «Buxorcha teri» milliy halvoni tayyorlash texnologik bosqichlarini ifodalovchi *principial sxemasini chizing.*
3. Ushbu savollarga qisqacha javob keltiring.

1. «Lavz» halvo va «Donagi» milliy halvolarni tayyorlash bosqichlari bilan farqlanadi??
2. «Sobuni» milliy halvo tayyorlash taxnologiyasi qaysi bosqichlarni qamrab oladi?
3. Milliy halvolar sisatini organoleptik baholashda qanday ko‘rsatkichlari aniqlanadi?

### 4-ilova

#### Baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari (ball)

Guruh	1-topshiriq	2-topshiriq	3-topshiriq (har bir javobga 0,2 ballgacha)			Ballar yig‘indisi
	(1,0)	(1,0)	1-savol	2-savol	3-savol	

### 5-ilova

#### «Insert usuli»

Insert - samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning intersaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma‘ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, talaba «V; +; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

## Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) - yangi ma'lumot.

(-) - men bilgan narsaga zid.

(?) - meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

### Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Milliy halvo massasi va tayyor halvoning namligini aniqlash uslubi				
Milliy halvoda umumiyligini qand massaviy ulushini aniqlash uslubi				
Tolasimon halvolarda nam miqdorini halvo sifatiga ta'siri				
Mayda kristalli halvolarda kristallar o'chamini ahamiyati				

## 4.6. Laboratoriya mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti – 6 soat	Talabalar soni – 7-12 nafar
O'quv mashg'ulotning shakli	6-Laboratoriya ishini bajarish
Laboratoriya mashg'ulotining rejasi	<p><i>Mavzu: Quvlangan milliy halvolar tayyorlash va sifatini aniqlash</i></p> <p>1. Quvlangan milliy halvolar tayyorlash.          2. Yarim tayyor mahsulotlar va halvolarning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichla-rini aniqlash.          3. Quvlangan milliy halvolarning xossalari va sifatini taqoslash va xulosa chiqarish.</p>
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Quvlangan milliy halvolarni ishlab chiqarish texnologik jarayonlari bo'yicha bilinilarni chuqurlashtirish, turli milliy quvlangan tayyorlash va sifatini aniqlash bo'yicha ko'nigmaga ega bo'lish.	
Pedagogik vazifalar	<p><i>O'quv faoliyatining natijalari</i></p> <p>Talabalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- topshiriqqa binoan turli quvlangan halvolar tayyorlash bo'yicha ko'nikma hosil qiladilar;</li> <li>- yarim tayyor mahsulotlar va halvolarning orga-</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish va mustahkmalash</li> <li>- quvlangan milliy halvolar</li> </ul>	

